

Anvar IRGASHEV  
Yuliya MEDVEDOVSKAYA

# BIR YUZ BIR



ANVAR IRGASHEV  
YULIYA MEDVEDOVSKAYA

# BIR YUZ BIR

*Roman*

YOSHLAR NASHRIYOT UYI  
TOSHKENT – 2019

UO'K 821.512.133-31

KBK 84(5O')7

I 73

*Rus tilidan Shohsanam (So'fiyeva) tarjimasi*

*Rassom Nigmat Jo'rayev*

**Irgashev, Anvar**

**Medvedovskaya, Yuliya**

Bir yuz bir: roman / Anvar Irgashev, Yuliya Medvedovskaya. – Toshkent: Yoshlar nashriyot uyi, 2019. – 256 b.

«Bir yuz bir» romani syujetiga real voqeа – bir yuz bir o'zbek jangchisining Ikkinchи jahon urushi yillardagi fojiali taqdiri asos qilib olingan. Amersfort konslagerida do'zax azobiga mardona dosh bergen bu askarlar Gitlerning makkorona rejasini butkul barbod qilgani va fashistlarning jahon tarixini boshqa o'zanga burib yuborishiga ozmi-ko'pmi to'siq bo'lganini bilmay halok bo'lgan.

UO'K 821.512.133-31

KBK 84(5O')7

ISBN 978-9943-5530-6-4

© Anvar Irgashev, 2019

© Yuliya Medvedovskaya, 2019

© YOSHLAR NASHRIYOT UYI,  
2019

*Asar Ikkinci jahon urushi yillarida halok  
bo'lgan o'zbekistonlik qahramon jangchilarning  
porloq xotirasiga bag'ishlanadi.*

TerDU ARM  
№ \_\_\_\_\_



## Birinchi bob

2018-yilning 9-apreli  
Niderlandiya, Amersfort shahri

Aprel oyi. Erta tong. Eski rusumdagি qora «Mercedes» katta yo'l yaqinidagi avtoturarjoyga kelib to'xtadi.

Atrof suv quygandek jimjit, mashina azim bir shahar chekkasida, gavjum yo'l bo'yida emas, inson bolasining qadami yetmagan xilvat bir o'rmon chetida to'xtagandek go'yo.

Tonggi bu sokinlikni mashina motorining gurilashi-yu g'ildiraklari ostidagi shag'alning g'ichirashi buzgan chog' cho'chib bir zumgina tinchib qolgan qushlar yana chug'urlay boshladи. Go'yo jumlayi olamga bu ovloq o'rmonda ham tirik jonzot bor ekanini isbotlamoqchi bo'lgandek borgan sari avjiga chiqib sayramoqqa tushdi ular.

Mashina choqqina avtoturarjoy chetida turib qoldi, undan biror kimsa tushmadi. Go'yo bu yerga u allaqanday sehr kuchi bilan kelib qolgandek. Mashinaning old oynasiga atrofdagi quyuq daraxtlar shox-shabbasi aksi tushib uning ichi mutlaqo

ko'rinnmasdi va bu ham vaziyatga allanechuk sirli tus berardi.

Nihoyat, mashinaning haydovchi o'tiradigan tomoni eshigi sekin, deyarli sassiz ochilib, avval bir juft yaltillagan och jigarrang poyabzal, keyin esa qora kostyum-shim kiygan bo'ychan, yarg'indor bir yigit ko'rindi. U ikki-uch qadam bosgach, qo'llarini ikki yonga yoyib kerishib oldi.

Atrofga, serdaraxt bu manzilga qiziquvchanlik bilan boqqani, uning moviy ko'zlarida aks etgan biroz hayrat yigitning bu yerlik emasligini, allaqaydan – olisroq bir joydan kelganini «sotib» turardi. U uzoq yo'l davomida g'ijimlangan engil-boshini tuzatdi, to'zg'igan och malla, to'lqinsimon sochlarini barmoqlari bilan tekisladi-da, «Mersedes»ni aylanib o'tib, yo'lovchi o'tiradigan orqa tomon eshigini ochdi.

– Keling, yordamlashay, Martin, – dedi yigit nemischalab. Odatda, bunday ehtirom va iltifot bilan yosh bola yoki keksalarga murojaat qilinadi.

– Kerak emas, Ervin. Men hali o'zimni o'zim eplay olaman, – dedi yo'lovchi biroz zardali ohanga va yoshiga yarashmagan epchillik bilan mashinadan tushib qaddini tutdi. – Yetib keldik, chamamda, – dedi u va go'yo o'z gapini o'zi ma'qullagandek sochi olingan oppoq boshini sarak-sarak qilib qo'ydi.

Keksalik alomati – andak qaddi egikligini aytmaganda chol ham nevarasi kabi bo'ychan, qotmadan kelgan edi. Yoshidagi farqqa qaramay qaddi-

basti shu qadar o'xhash ediki, ularning bobo va nevara ekanini bir qarabiq payqash qiyin emasdi. Ayniqsa, cholning nevarasiniki singari yonib turgan moviy ko'zlar bu borada biron-bir e'tirozga o'rin qoldirmasdi.

Bobo bilan nevara shag'al yo'lak bo'ylab yurib uzoqdan yam-yashil devor bo'lib ko'ringan daraxtzor hududigacha bordi va kattakon taxta-lavha qarshisida to'xtadi. Kulrang lavhaga yirik oq bosma harflarda golland va rus tillarida bitilgan «Sovet harbiy askarlarining Amersfortdagi qabristoni» degan yozuv yaqqol ko'zga tashlanardi.

Bobo-nevara yo'lida davom etdi. Bu yer nihoyatda sokin edi. Turli qushlarning tinimsiz chug'ur-chug'uri esa bu sokinlikka o'zgacha joziba baxsh etardi.

Shag'al yo'lakning har ikki tomonida oppoq ohaklangan qator-qator qabrtoshlar. Hammasi bir xil – xuddi safga tizilgan ko'yi qotib qolgan jangchilarga o'xshardi. Ba'zi qabrtoshlarga ism-familiyalar yozilgan, ammo aksariyatida «Noma'lum askar» degan yozuvni o'qiysiz. Har birining poyida yangi guldasta.

«Noma'lum» degan so'zning ma'nosini Martin tarjimasiz ham tushunardi. Uning shundoq ham tund chehrasi battar ayanchli tus oldi – hozir o'krab yuboradigandek lablari pir-pir uchdi. U «Noma'lum askar» degan yozuv bitilgan bir qabr qoshiga kelib

to'xtadi, xuddi jon joyiga mislsiz bir og'riq kirgandek peshonasi tirishdi-yu, ko'zlarini yumib oldi. Quloqlari ostida jarangdor nemischa marsh yangradi, so'ng kuy tovushini oldidan chiqqan tirik jonnig'ajishga shay turgan itlarning vahimali vovullashi bosib ketdi. Keyin odamlarning yordam so'rab yolvorishlari, baqir-chaqirlar baralla eshitildi, uning ortidan ketma-ket otilgan o'q ovozlari...

Bu g'ala-g'ovur goh pastlab, goh balandlab avj olib turdi-da, so'ng hammasi aralashib miyani yorib yuborgudek mislsiz bir shovqinga aylandi.

Martin ingrangancha qo'llari bilan quloqlarini bekitib oldi.

– Ahvolingiz durustmi, Martin? – dedi nevarasi xavotir aralash uning tirsagidan tutib. Chol ko'zini ochdi va bosh irg'ab qo'ydi.

U qo'lini kamzulining keng-mo'l cho'ntagiga tiqdi-da, ichiga sham solingan yelim stakan oldi. Boshqa bir kissasidan chaqmoqtosh chiqarib shamning piligini yoqdi. Olov lip-lip qilib turdi-da, so'ng bir maromda yona boshladи.

Martin Ervinga qaradi. Nevara boboni darrov tu-shundi: uning tirsagidan tutdi.

Chol nevarasiga suyanib tizzalab yerga o'tirdi va shamni qabrtosh poyiga qo'ydi. Ayni chog'da borliqqa yana sukunat cho'kkandek, bir-biriga gal bermay tinmay chug'urlashib yotgan qushlar ham tinchib qolgandek edi.

– Esimda... bari esimda... – dedi Martin past tovushda, ammo qat'iyat bilan.

Ervin bobosining turishiga ko'maklashdi va uni uzoq o'tmishdagi xotiralari bilan yolg'iz qoldirib, o'ylariga xalal bermaslik uchun o'zi nari ketdi.

Martin yana bir necha daqiqa qabr boshida turdi, so'ng ko'zyoshlarini kafti bilan artib ortiga o'girildi-da, bir tekis o'rilgan maysazordan go'yo «o'sib chiqqan» bir xil qabrtoshlar oralab – yo'lak bo'y lab yurib, qabriston darvozasi tomon yo'naldi.

Nevara bobosining xayolini chalg'itgisi kelmay undan biroz ortda qolgan edi, ammo cholning o'zi o'girilib:

– Ervin, sen o'zbekistonlik do'sting bilan gaplashgansan-a? – deb so'radi.

– Gaplashdim, Martin, gaplashdim, – dedi Ervin bobosini xotirjam qilib. – Alisher «Bemalol kelaveringlar», dedi. Biroq, bobojon, yo'l uzoq – Samarqand dunyoning u chekkasida! – deb Ervin Martin ga ma'noli qaradi. – Yoki shu ishni boshlab bekor qildikmikan, nima deysiz? Shuncha yo'lni bosib o'tishning o'zi bo'ladimi, men sizni o'ylayapman-da, Martin!

– Mening tashvishimni qilmay qo'ya qol, bolaginam, – dedi jiddiy ohangda bobo. – Bu yog'i qancha umrim qoldi, bilmadim, ammo u dunyoga safarim oldidan men ulardan kechirim so'rashim kerak...

## Ikkinci bob

2018-yilning iyun oyi  
O'zbekiston, Samarqand shahri

Kumushrang tezyurar poyezd – «Afrosiyob» Samarqand vokzaliga yetib keldi va sekinlasha-sekinlasha perronda to'xtadi.

Qosh qoraya boshlaganiga qaramay jazirama yoz tafti hali qaytmagan.

Ervin Martinning tirsagidan tutib poyezddan tu-shishga ko'maklashdi-da, darrov vagonga qaytib, ikkita chog'roq jomadonni sudrab chiqdi.

Shashti pasaygan esa-da charaqlab turgan qu-yosh nuri Martinning yuzini jizillatdi va u negadir nevarasiga qarab peshonasini tirishtirdi.

– Nachora, bobojon! – dedi yelkasini qisib Ervin.  
– Bu yer Osiyo axir! Hoynahoy, bularning qahraton qishi ham bizning saratondan issiq bo'lsa kerak. – Ervin ichida juda oshirib yubordim, shekilli, deb o'yladi-yu, biroq gapni cho'zgisi kelmay indamay qo'ya qoldi. O'zi-ku, ob-havoga mos kiyingan – yupqa jinsi shim, yengi kalta polo-ko'ylak, oyog'ida yozgi krossovka.

Martin qaddini rostlab oldi – vagon o'rindig'ida uzoq o'tirganidan eti biroz uvishib qolgan ekan. U ro'parasidan kelayotgan odamlarga qiziqsinib qaray boshladi – ko'pchiligi ovrupocha libosda, bittayarim keksa ayollargina antiqa bichimdagi guldor ko'yak kiygan – milliy kiyim bo'lsa kerak.

Martinning egnida oqish shim bilan ko'yak, ustidan moviyrang yozgi kamzul ham ilib olgan. Kamzuli yupqa, deyarli isitmeydi, lekin chol uni darrov yechib bilagiga tashladi. Yelkasida uzun tasmali ixchamgina qora charm xalta, odatda safarga chiqqanda unga hujjat-pujjat, telefon, yondaftar kabi kerakli mayda-chuydalar solib yuradi.

– Qani, bobojon, ildamlaylik, – deya uni shoshirdi Ervin.

Ular tomon bir yigit peshvoz kela boshladi. Qorachadan kelgan, qo'yko'z, ochiqchehra Alisher ham xuddi nemis do'sti Ervin singari zamonaviy libosda: yozlik jinsi shim, polo-ko'yak va krossovka kiygan.

– Ervin! – deb chaqirdi u uzoqdan qo'l to'lg'ab va qadamini tezlatdi.

Unga ko'zi tushgan Ervin ham xursand bo'lib qo'l silkidi.

Ular quchoq ochib ko'rishdi.

– Eh, Alisher, seni ham ko'rар kun bor ekan-ku!  
– dedi Ervin do'stini bag'ridan bo'shatib. – Mana mening bobom – Martin Geynrix, – dedi u ikki do'st ni havas bilan kuzatib turgan qariyaga ishora qilib. –

Senga u haqda ko'p gapirganman. Bobojon, mening saboqdosh do'stim Alisher – shu yigit!

Alisher bilan Martin qo'l siqishib ko'rishdi.

– Kam bo'l mang, o'g'lim, bizdan yordamingizni ayamadingiz! – dedi Martin.

Alisher nemis tilida javob qaytardi:

– Janob Geynrix, sizlarga yordamim tekkanidan xursandman.

– Meni Martin deyavering, – dedi chol.

– Mayli, – dedi Alisher kulib, – Martin va Ervin, O'zbekistonga xush kelibsiz! Bizning yurt sizlarga manzur bo'ladi, degan umiddaman!

## **Uchinchi bob**

Shom qo'ngan shahar bo'ylab oppoq «Lasetti» yeldek uchib borayotir. Haydovchining yonida o'tirgan Ervin ortiga o'girilib:

– Martin! – dedi o'rindiqqa yastanib olgan bobosiga. – Do'stim ikkimiz ozroq ruscha chug' urlashsak, aybga buyurmaysizmi? Anchadan beri biror kimsa bilan bu tilda gaplashmagach, esimdan chiqay deb qolgan bo'lsa kerak.

Martin parishon bosh silkib qo'ydi-yu, yana mashina oynasidan tashqariga tikildi. Ayni dam-

da unga yosh yigitlarning gap-so'zidan ko'ra ko'z o'ngidan lip-lip o'tayotgan manzaralar – begona yurtdagi hayot ko'proq qiziq edi. U uylar, do'konlar, ko'rinishidan o'ziga juda tanishdek bo'lib qolgan odamlarni diqqat bilan kuzatardi.

Alisher gapni cho'zib o'tirmay, birdan do'stiga ma'lum bo'lмаган yangiliklarni aytib qo'ya qoldi:

– Xullas, O'zbekistonga qaytgach maktabga ishga kirdim: Nemis tilidan dars berib yuribman. Yozgi ta'til mahali shahrimizga sayohatga kelgan nemiszabon sayyoohlarga tilmochlik qilib pul topaman. Tarix va arxitekturamizga oid bir dunyo kitob o'qidim. Shunday ekan, do'stim, ona yurtim tarixidan sizlarga jon-jon deb hikoya qilishim va ajoyib-ug'aroyib manzillarini sayr qildirishim mumkin... Xo'sh, yana... Rafiqam – juda yaxshi ayol. Yaqinda menga yana bir qiz tug'ib berdi!

U Ervinga savol nazari bilan qaradi.

– Men hali uylanganim yo'q, – dedi Ervin do'stining nigohidagi savolni uqib. – Vaqti-soati kelmadи chog'i...

– E, bu qanaqasi, jo'rajon?! Talabalik chog'imiz qizlarning bari senga maftun bo'lib yurardi-ku axir, – dedi Alisher unga ko'z qisib, Ervin bo'lsa, go'yo uzr so'ragandek yelka qisib qo'ydi. – Mayli, hechqisi yo'q, – dedi tamomila jiddiy qiyofada Alisher. – Biz seni shu yerdan uylantirib qo'yamiz. Bilsang edi, bizning qizlar qanchalik latofatli ekanini!

Ayni chog'da ular Registon maydoni yonidan o'tmoqda edi. Alisher ro'parasidagi ko'zgudan orqada o'tirgan Martinning zo'r diqqat bilan shaharni kuzatayotganini ko'rib:

– Dunyo mo'jizalaridan biri, Sharq durdonasi – Registon, Samarqandning markaziy maydoni shu yer! – dedi nemischalab maydon tomon ishora qilar-kan. – Bu yerda o'rta asrlarda qurilgan uch madrasa, ya'ni ta'lim maskani joylashgan. Mashhur Tillakori masjidi ham shuning ichida. Mana bu minoralardan azon aytildi – musulmonlar ibodatga, ya'ni namozga chaqiriladi.

– Haqiqiy minoralar shunaqa ekan-da... – deydi Martin o'zicha.

Cholning xotirasida bir zum o'tmish jonlandi: kattakon askarcha etik nam qumdan yasalgan mo'jaz minorani toptab buzayotir.

Bu orada mashina manzilga yetib to'xtadi.

– Mana, mehmonxonaga keldik, – dedi Alisher. – Ertaga ertalab sizlarni shu yerdan olib ketaman.

Martin negadir mashinadan tushishga oshiq-madi. Alisher bilan Ervin uning nimadir demoqchi bo'lib taraddudlanganini angladi.

– Alisher, u mening kim ekanimni biladimi? – dedi nihoyat chol uzoq sukutdan so'ng.

– Yo'q, – dedi Alisher. – Men unga faqat otasi haqida u-bu gapdan xabardor ekaningizni aytdim, xolos...

## To'rtinchi bob

Ixcham, shinamgina bir hovli. O'rtada – ishkom tagidagi yog'och so'rida xontaxta, atrofiga yangi ko'rpa chalar to'shalgan, par yostiqlar qo'yilgan – aftidan aziz bir mehmon kelishi kutilayotir. Tok novdalari hosil qilgan soyabondan so'riga tangadek quyosh nuri tushmas darajada salqin. So'ri zinasida boshini quyi solgancha keksa bir otaxon o'tiribdi. Xayolan kim bilandir so'zlashayotir, goh-goh kumushrang boshini sarak-sarak qilib, qo'lidagi aso bilan yerga do'q-do'q urib qo'yadi. Uning egnida oq yaktak, oqish shim.

Cholning nevarasi Lola yelib-yugurib xontaxta-ga kashtali dasturxon to'shaydi, so'ng uning ustini qand-qurs, meva-chevaga to'ldirib tashlaydi. Tabiiy-ki, paxtagulli idishlarda «chaq-chuq»ning necha xil turi: yong'oq-u mayiz deysizmi, turshag-u pistabodom deysizmi – baridan bor. Lola – yigirma yoshlardagi ko'hlikkina qiz, quralay ko'zlari qop-qora, ikki o'rim zulukdek sochi naq taqimini o'padi, egnidagi harir libosi qomatiga qolipdek tushgan, o'ziga yarashgan.

U har gal oshxonadan so'riga qatnarkan, bobosiga qarab-qarab qo'yadi-yu, ko'nglidan kechayotgan

gapni aytishga jur'at qilolmaydi. Nihoyat qiz bir qarorga kelib:

– Bobojon, siz qattiq asabiylashyapsiz, – dedi xavotir aralash. – Shu odam biznikiga kelmasa tuzukmidi. Axir oradan qancha suvlar oqib o'tgan bo'lsa, endi o'tmishni kavlagandan nima foyda? Yaxshisi, men sizga doringizni beray...

– U ham menga o'xshagan bir chol-da, qizim, tengqurim ekan. Bu yoshida odam bejizga shuncha uzoq yo'l bosib kelishga jazm etmaydi. Demak, uning menga aytishi kerak bo'lgan omonat bir gapi bor, – deydi ota xayolida anchadan beri aylanayotgan o'yni nevarasi bilan bo'lishib.

Darvoza tomondan mashina tovushi keladi.

– Bora qol, qizim, kelishdi, ularga peshvoz chiq, – deydi ota nevarasiga allanechuk muloyim ohangda.

Birozdan so'ng Lola uch nafar mehmonni boshlab kiradi. Alisher-ku, ob-havoga monand yengil kiyingan, Martin bilan Ervin esa Samarcanddag'i bir xonadonda – ochiq havoda nonushta qilgani emas, xuddi oqshomgi marosimga kelgandek qora kostyum-shim kiygan, bo'yinbog' taqqan edi. Temur ota bu holga ajablangandek tikilib qaradiyu, hech nima demadi, «Hoynahoy, bir bilgani bor-ki, bular shunday po'rim kiyinibdi», deb qo'ydi ichida.

Ota asoga tayanib joyidan qo'zg'aldi.

– Assalomu alaykum, – dedi o'ng qo'lini meh-monga cho'zib, chap qo'lini esa odatga ko'ra ko'ksi-ga qo'ydi.

– Men Martinman, – dedi mehmon ham qo'l uza-tarkan o'zini tanishtirib.

– Men esa Temur. Xush kelibsizlar. Qiynalmaygi-na yetib keldinglarmi? – Alisher otaning gapini ne-mischaga o'girib turdi.

Germaniyalik qariya bosh silkib:

– Rahmat, yaxshi keldik, – dedi. – Bu Ervin, mening nevaram.

– Xush ko'rdik, o'g'lim, – dedi Temur ota Ervin-ning qo'lini siqib. – Qani, marhamat, o'tinglar mun-day, – ota so'rige imo qildi.

Martin ma'qul deganday boshini yanada quyiroq egdi.

– Biz bilan uchrashishga rozi bo'lganiningizdan minnatdorman, – dedi u.

– Qo'ysangiz-chi, sizlarni axir qachondan beri kutaman. Marhamat, so'rige chiqinglar.

Ervin Loladan ko'z uzolmay qoldi. Uni nima jin urdi, o'zi ham hayron: begona bir xonadonga kelib birovning qiziga bunday suq bilan qarash odob-dan emasligini biladi-ku. Qiz ham unga bir kulib qaradi-yu, duv qizarib boshini egib oldi. Bu noqulay vaziyatdan ularni Temur ota qutqardi:

– Bu – mening nevaram Lola, – dedi u.

Mehmonlar xontaxta atrofidan joy oldilar.

– Alisher, o'g'lim, mehmonlarning orqasiga yostiq qo'yib ber, qulayroq o'tirishadi, – dedi ota o'zi ham yostiqqa suyanar ekan.

– Xo'p, ota. – Alisher Martinning orqasiga par yostiq qo'yib berdi. – Bemalol o'tiravering endi.

– Sizning ismingiz Temur otami? Men bo'lsam Temur deb o'ylabman, – dedi allanechuk xavotir bilan Martin.

– Bizda qariyalarga hurmat yuzasidan «ota» so'zini qo'shib aytishadi, – deya darrov izoh berdi Alisher. – Masalan, sizni Martin ota deymiz.

– Martin ota! – dedi qariya jilmayib. – Qulooqqa yoqimli eshitilar ekan!

Lola barkashda: tandirdan yangi uzilgan ikki dona samarqandcha non, paxtagulli katta choynakda choy ko'tarib keldi. U mehmonlarga choy quyib uzatguncha, Temur ota non ushatdi va bir burdadan mehmonlar oldidagi likobchalarga qo'ydi. Martin tandirdan endigina uzilgan non isidan mast bo'lган-dek bir on ko'zlarini yumdi.

Temur ota bir burda nonni dimog'iga olib kelib hidladi.

Martin otaga tikilib qoldi. «Shu turishida Hoshim akaga – dadasiga ikki tomchi suvdek o'xshaydi-ya, faqat yoshlaridagi nisbatni aytmaganda». Shuuriga xotiralar bostirib kirdi-yu, u yana ko'zlarini yumdi.

– Tobingiz qochdimi? – dedi uni kuzatib turgan Alisher xavotir bilan.

Martin ko'zini ochdi va xijolat bo'lgandek:

– Yo'q, yo'q, tuzukman. Aybga buyurmaysizlar, issiqqa ko'nikolmayapman, shekilli, – dedi.

– Qani, mehmon, ko'k choydan ho'plang, darrov yengil tortasiz, – dedi Temur ota.

Martin piyoladan bir-ikki choy ho'plab olgach, yo'talib qo'ydi-da, sekin og'iz juftladi:

– Muhtaram Temur, – Martin bir soniya jim qolib, so'ng dedi, – Temur ota, endi men sizga nima sabab-dan shuncha joydan kelganimni aytsam. Otangiz haqida uncha-muncha gaplarni bilishimdan xabar-ringiz bor, albatta.

– Urush tamom bo'lganidan so'ng, bizga otam-ning nom-nishonsiz ketgani haqida xabar kelgan edi.

– Yo'q, bu – noto'g'ri, yanglish ma'lumot.

– Siz uni ko'rghanmisiz? – dedi Temur ota ko'zlari-da umid uchquni porlab.

Martin biroz sukut saqlagach, chuqur xo'rsinib gap boshladi. U dam-badam tin olar – bu gaplarni aytish unga oson kechmayotganini payqash qiyin emas edi.

– Ijozatingiz bilan bilganlarimning barchasini sizlarga bir boshdan so'zlab bersam.

Martin piyoladan choy ho'plab olib hikoyasini boshladi.

## Beshinch bob

1941-yilning 10-iyuli  
Smolensk shahri

Samarqanddan chiqqan «o'zbek esheloni» belgilangan manzilga o'ninchi iyul kuni yarim kechasi yetib keldi. Ikki hafta yo'l bosildi. Poyezdda ikki hafta vaqt behuda ketmadi: qo'mondonlar shu kungacha oddiy hayot kechirib kelgan, endi esa dabdurustdan Qizil Armiya askariga aylangan yosh-yalangga eng sodda, ammo muhimdan-muhim harbiy mashqlarni: miltiq, pulemyot, granatani qanday otishni, qo'l jangi usullarini oz bo'lsa-da o'rgatishdi.

«Yangi askarlar» vagon oynalaridan kichikroq bir bekat – yarimvayrona vokzal binosini ko'rishi di. Binoning tom qismiga snaryad yoki aviabomba tushib pachoq qilgan – bekat nomini bilib bo'lmasdi. O'zbek askarlari bu qaysi bekat ekanini bilolmadi, ayni chog'da buning hech bir qizig'i ham yo'q edi, chamasi. Aynan front o'chog'iga kelib tushishgani ni askarlar sezib turishibdi. Bu yerda to'plar gumburi, o'q ovozlari, kecha – qurol-yarog' va harbiy texnika ortilgan vagonlar o'tib ketishi kutib turil-

gan yerdagidan ko'ra yaqin va yaqqol eshitilayotir. Bomba portlaganda osmon-u falak shundoqqina ko'z o'ngingizda yorishib ketardi. Jang maydonidan ko'tarilgan chang-to'zondan osmon-u falakni zulmat qoplagan: yulduz-pulduz ko'rinas, qonga belangandek qip-qizil oygina sokin suzib yurar edi.

Front shunchalik yaqin ediki, uning sovuq nafasini payqash qiyin emasdi. Askarlarning kuni kechagi xotirjamligidan asar ham qolmadi: birdan barchasining chehrasi tund tortdi, ko'zлari xavotirdan katta-katta ochildi. Nigohlarda esa birgina savol: bu yog'i nima bo'larkan, bizni ne savdolar kutayotir? Hatto poyezdda hazil-huzul qilib, hamyurtlarini zeriktirmay kelgan o'n sakkiz yashar Shuhrat ham og'ziga talqon solib oldi; o'zi urush o'chog'iga yaqinlashishgani sari uning askiyalari ham kamayib bormoqda edi, mana, endi latifa aytishga-da chog'i kelmay o'tiribdi.

– Vagondan tushlaring! Saflan! – deya buyruq berdi qism qo'mondoni, nishondor mayor Kablukov. Uning jarangdor ovozidan to'plar gumburi bir zum eshitilmay qoldi.

Shu buyruqni kutib turgandek hamma o'zini vagon eshigiga urdi. Askarlarning egnida asosan Qizil Armiyaning eski-tuskisi, yangi harbiy libos taqchil bo'lgani uchun tuman harbiy komissarligidan shular berilgan. Ba'zilarining boshida naq fuqarolar urushidan qolgan budyonovka. Jazirama

yoz bo'lishiga qaramay aksarining oyog'ida kigizetik, aftidan, Qizil Armiya bularni etik bilan ham ta'minlay olmagan.

Yarim soatga qolmay mingdan ziyod o'zbekistonlik, xususan, samarqandlik yigitlardan tashkil topgan qism saf tortib jang maydoni tomon yo'lga tushdi.

Safda gaplashish va chekish qat' iyan man etilgani sabab, zulmat qo'ynida lom-mim demay ketayotilar. Lekin ko'nglingizdan kechayotgan o'y-xayollar tashqariga otlib chiqib ketay deb turganda qanday qilib gapirmaysiz!

Til va adabiyot muallimi Hoshimning yonida unga qo'shni yigitchalar – bizga tanish askiyachi Shuhrat bilan Hoshimning o'quvchisi Ilhom yelkama-yelka borishardi. Hoshim bularni bolaligidan biladi. Ko'z o'ngida voyaga yetgan bu ikkovlonning yaxshi-yomon kuniga guvoh bo'lgan. Shuhrat bilan Ilhom – ikki dunyo: jismonan ham, fe'l-atvori ham o'xshashmaydi.

Jismonan baquvvat, o'jar-u o'r Shuhrat bolaligidan boks bilan shug'ullangan. U keljakda dongdor sportchi bo'laman deb maqsad qo'ygan va bunga yuz foiz ishonardi ham. Qotmadan kelgan, kamtargina Ilhomning orzusi esa haykaltarosh bo'lish edi. Ikki do'st bot-bot jiqillashib qolishar, sababi – jizzaki Shuhrat men sendan kattaman deb Ilhomga tird'algani-tird'algan edi. Aslida, u Ilhom-

dan bor-yo'g'i ikki oylik katta. Tortishuv qizib ketgan chog' Ilhom ko'pincha taslim bo'lar, lekin bu sira zaifligidan emas, aksincha, u vaziyatni yumsatish uchun bahs-munozara chegaradan chiqib ketmasin deb yon berardi.

Mana shu suv bilan olovdek ikki yigit Hoshimni o'ziga ustoz deb bilardi. Shuhrat Hoshimga shu qadar bog'lanib qolgan ediki, bu dunyoda undan-da yaqin kishisi yo'q edi hisob. Nafaqat tug'ilib o'sgan mahallasida, butun boshli tumanda Shuhratning boks bilan shug'ullanishini qo'llaydigan, uning kelajakda sport sohasida yuksak marralarni zabit etishiga ishonadigan yagona odam Hoshim edi desak mubolag'a bo'lmas edi. Hatto yolg'iz boshi bilan katta qilgan onasi ham Shuhratning boksci bo'lishini yoqlamasdi. Ilhom ham Hoshim akasiga maslahat solmay biror ishga qo'l urmasdi.

Miq etmay ketishga sabri chidamagan qiziqqon Shuhrat:

– E, Hoshim aka, tezroq jangga kirsaydik! Yaramas fashistlarning naq abjag'ini chiqarardim! – dedi shivirlabroq ko'zлari yongancha.

Hoshim Shuhratga qaradi, past tovushda, lekin keskin ohangda:

– Shuhrat, bu senga ring emas jang maydoni!  
– dedi. Bilaman, jasur yigtsan, biroq esingni yig', bola. Kuchni ham aql bilan ishlatish kerak. O'lish hammaning qo'lidan keladi, sen bekor-behuda o'lib

ketmay, yurt oldidagi burchingni ado etishni o'yla! Bu endi unchalik oson ish emas! Gaplashilmasin deyildimi, bas endi, ovozing chiqmasin! Tushunding!

Shuhrat bu gal buyruqni buzishga botinmadni, bosh silkib qo'ydi.

Ko'zlangan manzilga erta tongda yetib bordilar. Uncha chuqur bo'lмаган xandaqlar sho'ro askarlaring murdasiga to'lib ketgan edi. Kechagi jangdan so'ng ularni olib chiqadigan tirik jonning o'zi qolmagan. Jazirama saratonning dim havosi yetmagan-dek, porox va kuygan rezina hidi dimog'ni yorgudek edi. Xandaq qarshisidagi maydonda nemislarning pachog'i chiqqan tanklari, ag'darilib yotgan motosikllar, son-sanoqsiz jasadlar ko'zga tashlanadi. Bu o'zbek askarlari ilk bor yaqindan ko'rgan nemis askarlarining murdasi edi.

Qo'mondon Kablukov tezda xandaqlarni murdalardan tozalashni buyurdi: ularning tanasi hali sovib ulgurmagan edi. «Xandaq bo'ylab o'ng tomon yurilsa, kattakon o'ra hosil bo'lган ekan – hozircha askarlar jasadini shu yerga tashiysiz, keyinroq, imkon tug'ilishi bilan ularni odam qatori ko'mamiz», dedi qo'mondon. Askarlar lom-mim demay ishga kirishdi. Ular uchun bu chindan-da jiddiy sinov bo'ldi: umrida o'lik ko'rмаган navnihol ba'zi yigitlarni sovuq titroq tutdi, kimdir o'qchib qusti. Ular umri bino bo'lib bunday yumush qilmagan, boz

ustiga, bular hali o'likkayam o'xshamasdi. To'g'ri, ba'zi murdalarining tanasi ilma-teshik, laxtak-laxtak bo'lib ketgan. Xullas, yosh askarlarning haqiqiy jang maydonidagi ilk harbiy ishi oson kechmadi.

Xandaqlar bo'shatilib, ish yakuniga yetdi. Holdan toygan yigitlar endi tin olaman deganda qo'mondon gulduros ovozda baqirib qoldi:

– Jangchilar! Ikkala qulog'ingizga quyib oling, hech biringiz mana shu yerdan bir qadam ham ortga qayrilmaysiz! O'lsangiz-o'lasiz, lekin nemis ko'ppaklarini shu hududdan nariga o'tkazmaysiz! Bu – jangovar buyruq!.. Ortimizda – Smolensk, u yog'i Moskva qo'l uzatsa yetgulik masofada! Bilaman, o'g'lonlarim, aksaringiz harb ishidan bexabarsiz, quroldan otishni ham bilmaysiz! Ammo nachora, makkor dushman mana shunday – dabdurustdan hujum boshlab qoldi! Kurashni shu yerda – jang maydonida, xandaqlarda o'rganamiz endi! Boshqa yo'l yo'q!

Qism qo'mondonlari, sizlarga buyrug'im shu: qo'shin joylashishi bilan jadal ravishda yigitlarga jang sirlarini o'rgatishga kirishing!

O'ttiz to'rtni qoralagan Hoshim yigirmanchi yillarda Turkiston fuqarolar urushiga qatnashgan edi. U pulemyotchi bo'lgan o'shanda. Shu bois poyezdda kelishayotganidayoq uni pulemyotchi guruhga qo'mondon etib tayinlashdi. U o'ylab ham o'tirmay guruhiga Shuhrat bilan Ilhomni oldi: mayli, hali

ularning qo'lidan bu ishlar kelmas, ammo ishonchli yelkadosh bo'lishi aniq!

Uchovlon birgalashib tezgina xandaqning o'r-monga yaqin o'ng qanotida chuqurcha qazib, o'zlariga ishonib topshirilgan va Hoshim besh qo'ldek biladigan «Maksim» pulemyotini joylashtirishdi.

Hoshim yo'l-yo'lakay yigitlarga pulemyotni qanday ishlatishni tushuntirdi. Bu ajal komida kutilmaganda dushman o'qiga nishon bo'lish hech gap emas edi. Shu bois Hoshim Ilhomni o'ziga o'rinosar – o'qchi-mergan, Shuhratni esa o'q-dori yet-kazib turuvchi etib tayinladi. O'ylaganidek, Shuhrat bundan norozi bo'ldi. Noroziligini yuz-ko'zi aytib turardi. Lekin nima qilsin, Ilhom pulemyotning «tili»ni Shuhratdan ko'ra tez va yaxshi o'zlashtirib oldi-da, binoyidek ota boshladi ham.

«Bu qanaqasi?» dedi o'ziga o'zi to'ng'illab Shuhrat o'q-dorili tasma joylangan og'ir qutilarni tashir ekan. «Men shu qiltiriq Ilhomdan baquvvatman, ham dovyurakman! Hoshim aka meni emas, uni o'ziga o'rinosar qilib oldi. Axir shu ishi to'g'rimi? Mayli, Hoshim aka bilan bu bora-da tortishib o'tirmayman, hozir buning mavridi emas».

Pulemyotchi guruhga ma'lum bir hudud ajratilgan, shu yerni mudofaa qilish topshirilgan edi.

O'zbek askarlari joylashgan xandaqlar bir necha kilometrga cho'zilgan. Qism qo'mondonlari vaqt dan

foydalanim ularga jang yo'l-yo'riqlarini o'rgatishga kirishdi.

Atrof suv quygandek sokin, faqat qushlarning chug'urlashi eshitilib turibdi.

Bir parcha bulutsiz ko'm-ko'k osmonda charaqlab turgan oftob nuri baland-balandlarga o'rلان daraxt shoxlarida jilolanar, rus o'rmoni ayni damda ertaklardagidek benihoya chiroyli edi.

Son-sanoqsiz jasad-u qiyshaygan-mayishgan temir uyumlari go'yo butun borliqqa unsiz jar solayotgandek: «Bu omonat sokinlikka ishonib bo'lmaydi – oldinda ro'y berajak beomon jangdan darak ber-guchi sukunat bu!»

Jangchilar o'sha beomon jang boshlanishini kutmoqda: xotirjamgina, indamay. Aftidan, hamma o'z xayoliga g'arq bo'lgan: kimdir uyi, kimdir tuqqan-tug'ishganini o'ylaydi.

Hoshim galife shimi kissasidan gildan yasalgan va chiroyli bo'yalgan jimitdekkina o'yinchoq qushchani oldi. Uning chehrasi yorishib, yonoqlariga kulgi yoyildi. Qushchani o'pib qo'ydi.

Daf'atan kuchli gumburlash va chiyillashdan yer-u osmon larzaga keldi. Jang boshlandi. Hoshim qushchani shosha-pisha cho'ntagiga tiqib, atrofga alangladi.

O'zbek jangchilar ilk bora nemislarning bomba yomg'iriga guvoh bo'ldi. To'p va zambaraklardan

to'xtovsiz otilayotgan o'q osmondan va har taraf-dan yog'ilib yerning kulini ko'kka sovurar, «qu-log'i»gacha yerga ko'milgan sho'ro tank va to'plarini joyidan qo'porib xuddi gugurt qutidek chirpirak qilib allaqaylarga itqitib tashlamoqda edi. Qizil Armiya jangchilari nafaqat o'q yoki snaryad par-chasidan, balki osmon-u falakka ko'tarilib, so'ng ular egallagan hududlarga tushayotgan mana shu botmon-botmon tuproq va temir parchalari ostida qolib ham halok bo'lmoqda edi. Bu naq qiyomat-ning o'zi edi!

Artilleriyaning to'p yomg'iri deyarli yarim soat-cha davom etdi, u to'xtagach nafas rostlagulik vaqt ham o'tmay osmonda paydo bo'lgan yuzlab samolyotlar shovqini quloqni qomatga keltirdi. Chiyillab, guvillab Smolensk himoyachilari boshiga o'q-bom-ba yog'ildi. Obdan bombardimon qilib ortga bu-rilgan samolyotlar endi pastlab uchib jangchilarni to'pdan o'qqa tutdi.

Havo hujumidan so'ng yana bir zumgina borliq tinchib qoldi. Hoshim, Shuhrat va Ilhom shosha-pisha atrofga ko'z yogurtirdi: manzara dahshatli edi. Chor tarafda qiyshaygan-mayishgan temir-ter-sak – haligina ko'zlarni o'ynatib turgan tank va to'p-zambaraklar ko'z ochib yunguncha uyum-uyum temirga aylangan edi. Xandaqlar yana mur-daga to'lган – bu jang qilishga ham ulgurmay halok bo'lgan askar va zabitlar edi.

Bu galgi tanaffus ham uzoq cho'zilmadi – oradan o'n daqiqa o'tar-o'tmas o't ochgancha bostirib kelayotgan nemis tanklarini ko'rib, tirik qolgan askarlarni battar vahima bosdi: yuzdan ziyod tank! Tanklar bilan barobar gurra-gurra nemis piyoda askarlari kelmoqda edi. Ularga qarshi kurashayotganlar esa deyarli tajribasiz, ammo metin irodali va jasoratli kam sonli o'zbek jangchilari edi. Ularning qo'lida to'g'ridan kelayotgannigina mo'ljalga oladigan to'p-zambaraklarga qolgan edi, xolos. Mудо-  
faa chizig'inинг u tarafida – har yer-har yerda nemis tanklari lovullab yonar, o'zbek jangchilari to'pdan otgan o'qdan yuzlab piyoda askarlar tutdek to'kilmoqda edi.

Hoshim, Shuhrat va Ilhom o'z mudofaa hududini zo'r berib himoya qilayotir.

Ularning zambaragi shu qadar qizib ketdiki, ana-mana deguncha eriy boshlaydigandek edi. Shuhrat binoyidek o'q-dori yetkazib turibdi, Hoshim bilan Ilhom galma-galdan o't ochishmoqda. Ular goh-goh suvdonidagi ayab-ayab ichiladigan «bebaho» suvdan qizib ketgan temir «jangchi»ga sepib-sepib qo'yadi – pulemyotni sal bo'lsa-da sovitib turishmasa bo'lmas edi.

Qizil Armiya to'p-u zambaraklardan bunday merGANlik bilan nishonga olishini kutmagan nemis tanklari to'xtab qoldi, piyoda askarlar o'zini tappa yerga tashlab jon saqlashning payiga tushishdi.

Dushman hujumi barbod bo'lgandek edi go'yo. Bi-roq shu chog' ikkita tank shiddat bilan qizil askarlar ustiga bostirib kela boshladi, ular chap qanotni mo'ljalga olgan edi. Aftidan, qo'shining zaif joyini aniqlagan: o'sha yoqda birorta ham to'p-zambarak yo'q, shu bois qarshilikni bemalol yengish va shiddatli o'q yomg'iridan panalanib bir-bir bosh ko'tarib qo'yayotgan tirik qolgan jangchilarni to'pdan o'qqa tutib, yer bilan yakson qilish, yanchib tashlash imkonи bordek edi. Hozir, deyarli ko'z ochib yumguncha nemislar bu hududni ishg'ol etadigandek va g'olib maqomida olg'a ildamlab ketadigandek edi. U yog'i esa ochiq sayhonlik – o'rmon chekkasi, mudofaadan xoli hudud.

Shuhrat u yoq-bu yoqqa ko'z tashlab tankkacha bo'lgan masofani mo'ljal oldi-da, ikkita granatani qo'yniga tiqib kutilmaganda xandaqdan sakrab chiqdi va dushman tomon yugurdi.

– Shuhrat! Qayoqqa? Qayt orqangga! – deb qichqirdi Hoshim uning ortidan.

Ammo qoni qaynab turgan yigitning qulog'iga gap kirarmidi, to'xtovsiz yog'ilayotgan o'q yomg'iri ostida egilib-bukchayib oldinga qarab chopaverdi. Chuqurroq bir o'rani mo'ljal olib, o'sha yerga sakrab tushdi. Biroz poylab turib o'rada chiqdi-da, yana olg'a intilaverdi. Yo'l-yo'lakay shunday o'ralardan pana topib, nihoyat, birinchi tankka yaqin joyga yetib oldi. Sportchiligi qo'l kelib, bir sakrashda

granatani tankka tomon itqitdi. U tankning qoq tepasi – qopqog'i ustidan tushdi. Granata portlab, tankning tepe qismi qo'porilib ketay dedi, ochilgan yoriqdan lop etib olov chiqdi. Tank tuynugi jonholatda ochilib, tiriklayin yonayotgan nemis tankchisi o'rmalab chiqdi, ammo u o'zini eplay olmay zirh uzra cho'zilib qoldi.

Ikkinci tank esa o'jarlik bilan qizillar tomon bostirib kelaverdi. Shuhrat sayozroq bir o'raka tushib, yerga qapishib oldi. U yerda yotgan kulrang kiyimli nemis jangchisining jasadini sal nariga surib qo'yishga to'g'ri keldi. Hoynahoy, u avvalgi hujumda halok bo'lган.

Nemislarning tanki to'ppa-to'g'ri Shuhrat jon saqlab yotgan o'ra ustiga bostirib kelmoqda edi. Motoring guvillashi-yu zanjirlarning g'ichirlashi Shuhratga yanada yaqin va baralla eshitilmоqda. U haligi jasadni panalab, tepaga qaradi. Shu chog' o'ra chekkasini bosib o'tayotgan «temir maxluq»ning zanjirli oyoqlari ko'rindi. Atigi ikki qarichgina masofa sabab Shuhratning joni omon qoldi. Ammo u ajal sharpasini sezdi, go'yo tank ana-mana deguncha uning tanasini majaqlab o'tadigandek edi. Atigi o'n soniya davom etgan bu vaqt qilt etmay, hatto nafas ham olmay yerga qapishib yotgan Shuhrat uchun bir asrdek tuyuldi. Nihoyat, tank ustidan o'tib ketdi, yigit biroz kutib turdi, so'ng o'radan sakrab chiqdi va qo'lidagi granatani uzoqlashib borayotgan

tankning yonilg'i bakiga qarab irg'itdi. Tank lop etib o't oldi-yu, gurillab yona boshladi.

Mana, endi ortga qaytsa bo'ladi. U o'rada yotgan nemis-jasadning miltig'ini shartta olib yelkasi-ga ildi-da, o'zlarining handag'iga qarab chopdi. Do'stlari uni olqishlab, chapak chalib kutib oldi. Xandaqqa sakrab tushgach, u bir on nafas rostlab, hayratdan ko'zlari yonib turgan Ilhomga g'olibona tikildi.

– O'rgan, bola! – dedi u kulib chang va terdan loy bo'lib ketgan yuzini yengi bilan artar ekan.

Hoshim indamay Shuhratni bag'rige bosdi, pand-nasihat ham qilib o'tirmadi: mayli, hozircha g'alaba nashidasini surib tursin. Ichida esa qayta-qayta «Xudoga shukrki, bola do'zaxdan omon chiqdi» derdi u.

## Oltinchi bob

Smolensk ortidagi shiddatli janglar 1941-yilning 10-sentabrigacha davom etdi. Har ikkala tomon ko'p talafot ko'rdi, son-sanoqsiz jangchi qurbon bo'lди. To'g'ri, Qizil Armiyadan farqli o'larоq fashistlarga tinimsiz qo'shimcha kuch kelib qo'shilib turdi. Ayni chog'da, sho'ro jangchilari safi kun emas, soat sayin siyraklashib boraverdi. Ikki oy ilgari Samarqanddan kelgan ming kishilik o'zbek askarlardan atigi yuz nafarcha qolgan edi. Ular to'p-u zambaraklardan o'q uzib, ba'zan o'q-dorini ehtiyyotlaganidan nayza hujumiga o'tib ham hanuz mudofaa maydonini tark etmay, himoyada turar va bundan nemislar hayratda edi.

O'q-dori-yu oziq-ovqat kelmaganiga ham bir haftadan oshgan, frontorti qismlar bilan aloqa butkul uzilgan edi. Jangchilar o'z kunini o'zi ko'rishi kerak: ochlikdan o'lmaslik va yaroqsiz qurol-yarog'o'rmini to'ldirish uchun ular kechasi – atrof tinchigan mahal portlab, pachoq bo'lgan nemis tanklari-yu, jasadlarga to'lgan jang maydoniga chiqib timirskilanib yurardi. Shosha-pisha qurol, o'q-dori, granata solingan o'qdonlar yig'ib olinardi. Yegulik, nimadir topish ilinjida o'liklarning yo'lalta

va cho'ntaklarini titkilashdan ham qaytmasdilar. Bu «tintuv» natijasida arzimas, lekin ayni chog'da, jonga ora kiruvchi «o'lja» – shokolad, pechenye va ba'zan vaqli qo'lga kiritilardi. Bularni ovqat deb bo'lmasdi-yu, har holda ochlikdan surnay chalayotgan oshqozonni bir bo'lak shirinlik bilan biroz al-dab turilsa bo'lardi. Nemislardan qolgan o'q-dori va shokolad bilan uzoqqa borib bo'lmasligini hamma bilardi. Oxirgi jangda tiriq qolgan ikki zabit: qism qo'mondoni Kablukov bilan bo'linma qo'mondoni Rahmonov ham halok bo'lishdi. Ular uvalanib tu-shayotgan xandaq devoriga tiralib olib xarita ustida cho'kkalab o'tirgancha qolgan jangchilarning kelgusidagi harakat rejasini ishlab chiqayotgan bir vaqtda birin-ketin o'q yeb o'lishdi.

– Oqshom cho'kdi. Batartib nemislar dam olgani chekindi. Ularning «orom soati» to erta tonggacha davom etishini qizil askarlar allaqachon bilib olgan.

Atrof tinchigach, xandaqning har tarafidan o'zbek askarlar Hoshimga yaqin kela boshladи.

– Hoshim aka, endi nima qilamiz? Endi qo'mondonimiz ham yo'q. Yegulikdan ham hech vaqo qolmadi. Qurol-yarog' yo'q. Ertaga nemislar bizni osongina asir oladi-qo'yadi. Biz sanab chiqdik, bor-yo'g'i bir yuz bir nafar qolibmiz. Oramizda eng yoshi kattasi – o'zingizsiz, shunga maslahatlashaylik deb keldik, – deya gap ochdi o'ttiz yoshlardagi jangchi.

– Men har kuni qo'shni xandaqlardagi jangchi va zabitlar o'rmonga chekinayotganini ko'ryapman... Guruh-guruh bo'lib ketishyapti... Hozir bu yerda bizdan bo'lak deyarli hech kim qolmadi... – dedi o'ng qanot to'pchisi bo'lgan yana bir yigit.

Hoshim biroz o'yga tolib qoldi, so'ng bir qarorga keldi shekilli:

– Xo'sh, gap bundog', bilasiz, chor atrofimizni nemislar qurshab olgan. Qo'limizda qurol yo'q, baribir tanklar yo'lini to'sa olmaymiz, aksincha, be-korga jangchilarimiz nobud bo'ladi. To'g'ri aytasiz, yagona yo'l shu – boshqalar qatori o'rmonga chekinish. O'zimiznikilarni topishga harakat qilamiz, keyin yana bu gazandalarga qarshi kurashaveramiz. Hamma bir yerga yig'ilsin: sog' ham, yarador ham. Bir soatdan so'ng yo'lga tushamiz! – dedi.

## Yettinchi bob

Bir yuz bir o'zbek jangchisidan iborat guruh bir haftadan oshdiki Qizil Armiyaning biron-bir harakatdagi qismini topish maqsadida qalin va rutubatli Smolensk o'rmonida darbadar kezishmoqda. Avval-boshda serquyosh o'zbek yurtidan kelgan yosh askarlarni o'ziga jalb etgan bu qalin o'rmon tez orada ular uchun butkul bexosiyat, odamni chalg'itadigan xatarli hududga aylandi. Ayniqsa, botqoqliklar o'ta xavfli edi. Sal salqinlab olmoq uchun yuz-qo'lini yuvaman deb azbaroyi tajribasizlikdan qancha jangchi qaltisroq yerga oyoq qo'yib yuborganida, botqoq ularni biqirlab girdobiga tortib ketishiغا oz qoldi. Shu-shu, ular imkon qadar botqoqliklarni chetlab o'tishga harakat qiladigan bo'lishdi.

Bu changalzordek o'rmonda qayga yurib, qayga borishni hech kim bilmasdi. Buning ustiga, qo'llarida mahalliy hudud xaritasi ham yo'q – xo'sh, bo'lganda nafi tegarmidi deng? Nima bilandir qorin to'ydirish, chanqoqni qay yo'sin qondirishga-da hayron edi ular. Ochlikka chiday olmagan ba'zi askarlar baland o'sgan butalardagi qip-qizil sersuv rezavorlarni ko'rib, hovuchlab terib og'ziga sola boshladi. Meva shirin emas, taxirroq edi-yu, harholda bir-ikki soat

chanqoqni bosib turardi. Ariq-irmoq kam uchrardi, butun qolgan sanoqligina suvdonga to'ldirib olin-gan suv esa hech qanchaga yetmay, tamom bo'la-di. Shu sabab goho yuzidagi po'panakni qo'l bilan tozalab, turib qolgan kir-irkit balchiq suvni ichish-ga ham majbur bo'lardilar. Balchiq suv va rezavor meva och qoringa tushib ham nima bo'lardi? O'zi zo'rg'a oyoqda turgan jangchilar orasida ichburug' kasali tarqab, ularni butkul holdan toydirdi.

Uvada-yu juldurga o'ralgan, oyog'idagi yirtiq choriqni bazo'r sudrab bosayotgan och, tinka-madori qurigan askarlar nihoyat yorug' olam-ga – o'rmon chekkasiga chiqib oldilar va o'zini tappa-tappa yerga tashlashdi. Birozgina hordiq chiqarish, jiqla ho'l bo'lib, tanalariga yopishib qolgan uvada kiyimlarini quritib olish ham kerak edi-da.

Hoshim o'q-dorisiz miltiq va nemis avtomati bilan quollangan bir necha jangchini qorovul qilib qo'ygan edi, foydasi bo'lmadi. O'zbek askarlarini bir necha yuz kishilik eseschilar sezdirmay qurshab olib, jangsiz asirga olishdi.

Fashistlar holdan toyib, yerda cho'zilib yotgan jangchilarni qo'ndoq bilan turtib, baqirib-chaqirib o'rnidan turg'izdi va oldiga solib, podadek hay-dab ketdi. Ba'zilar yo'l-yo'lakay yiqilib qolar, lekin yonidagi sherigi darrov qo'lidan tutib turg'izar va suyab olardi. Chunki yiqilib qolganni fashistlar

o'ylab o'tirmay o'sha yerning o'zida otib tashlashi mumkin edi. Ikki-uch kilometrcha masofa – dala va siyrak o'rmon hududi bosib o'tilgach, katta yo'lga chiqishdi. Yo'l harbiy asirlar bilan to'lgan edi: xuddi daryodek na boshi, na oxiri ko'rinardi ularning.

Bu minglab rus jangchilarining tushkun ahvoli, loqayd yuzlarini ko'rib, Hoshim bilan uning sheriklarini battar vahima bosdi. Kechagina ular askar emasmidi?! Endi esa qurol-yarog'siz, hatto kamarsiz, chang-to'zoni ko'kka o'rلان tuproq yo'ldan egri-bugri saf bo'lib borishar, ko'rinishidan, bu dunyodan mutlaqo umidi qolmagan odamlarga o'xshar edilar. O'sha payt bular urushning dastlabki oylaridayoq Qizil Armiyaning deyarli to'rt million zabit va askari asir olinganini hatto xayollariga ham keltirisholmasdi. Xususan, o'zlarini oldinda nimalar kutayotganini hech biri tasavvur ham qilisholmas edi.

## Sakkizinch bob

Ikki kundirkি harbiy asirlar qiyinchilik bilan shu adoqsiz yo'ldan borishardi. Front jabhasi ortda, uzoqlarda qoldi. Fashistlar ularni butkul teskari to-monga haydab'ketishayotgan edi. Atrof suv quygandek jimjit, hatto ufq tomondan ham biron-yarim o'q tovushi eshitilmaydi. Kun davomida deyarli o'n soatlab yo'l bosishadi, to'xtash, bir soniya tin olishga ruxsat yo'q. Hatto bir tishlam qotgan non berishmasdi, temir meshlardagi suvni esa kechasi-ga boribgina olib kelishdi. Zang ta'mi kelib turgan shu arzanda suv ham odam boshiga bir-ikki qultum berildi, xolos. Kechasi qoq yerda yotib, birozgina ko'z ilintirishgan bo'lishdi, tong otar-otmas yana ur kaltak-sur kaltak ostida oyoqqa qalqdilar. Na boshi, na keti ko'rindigan asirlar safi yana yo'lga tushdi.

Yo'lning o'ng tomonida kichikroq bir o'tloq ko'zga tashlanishi bilan asirlarga sekinoq yurish buyurildi.

O'ti yangi o'rilgan bu o'tloq o'rtasiga – katta yo'ldan o'n besh qadamlar nariga yumaloq ko'chma stol qo'yilgan, uning tegrasida yig'ma kursida ikki kishi o'tiribdi. Biri – eseschi harbiy libosidagi sochi oq, qotmadan kelgan general, ikkinchisi nos-

rang-sarg' imtir pogonsiz kiyim kiygan baqaloq odam. Ularning orqasida bir necha zabit va askar rahbarlar og'zidan chiqajak amrni bajarishga shay bo'lib qotib turibdi.

Nosrang kiyimdag'i baqaloq zo'r ishtaha bilan tovuq oyog'ini g'ajib, kattakon qadahdan alvonrang sharob ho'plab o'tiribdi. U betakalluf kekirib, kursi suyanchig'iga yastandi-da, generalga qarab:

– Uch kundirki, shu yerda qimirlamay, bu juldurvoqilardan ko'z uzmay o'tiribmiz. Birontasi bizning mo'ljalga mos kelmasa-ya, tavba! Axir vaqt o'tib boryapti. Endi rahbariyatga nima deymiz?

Baqaloq ora-sira harbiy asirlarga bepisand ko'z tashlar, uning nigohidagi nafratni sezish qiyin emas edi. Ammo u zimmasidagi vazifani unutmagan: «juldurvoqi»larni diqqat-la kuzatardi.

Birdan uning ko'zlari yonib, xursandligidan qo'lidagi suyakni bir chekkaga uloqtirib, o'rnidan turib ketdi:

– Ana, ana ular! Topildi, – dedi u yosh boladek sevinib general tomon o'girilarkan.

General ham katta yo'lga qaradi. Ayni chog'da holdan toygan, ozib-to'zib ketgan, engil-boshi uvada, kir-chir o'zbekistonlik jangchilar o'tib bormoqda edi. Ularning aksari o'rtabo'y, qorachadan kelgan, siyrak soqoli o'sib ketgan, bodomqovoq, ko'zlari qoraligi bilan boshqalardan ajralib turardi.

– Aynan shunaqasi kerak edi menga, brigadefyurer! – dedi baqaloq. Uning ovozi basavlat gavdasiga mos kelmaydigan darajada chiyillab chiqdi.

Baqaloq generalga engashdi:

– Omadimiz chopdi! Bularni darrov Niderlandiyaga, Amersfort shahriga – konslagerga jo'natish kerak, – dedi u «bular»ni so'ziga alohida urg'u berib. Chamasi, u umrida ilk marotaba ko'rib turgan, na oriy, na slavyan va na boshqa ovro'poliklar ga o'xshaydigan o'zbeklarni qanday atashni bilmasdi. – Ular hozirning o'zida temir yo'l bekatiga yuborilsin. Zudlik bilan! Biz, kimsan fyurerning buyrug'ini bajaryapmiz! Hoy, zabit, bu yoqqa qara! – deb qichqirdi baqaloq soqchilarning kattasiga. – Manavilar necha kishi ekan?

– Bir yuz bitta! – dedi zabit...

## To'qqizinchi bob

2018-yilning iyun oyi  
O'zbekiston, Samarqand shahri

Martinning uzundan-uzoq hikoyasini tinglab, Temur ota bir soniya xayolga tolgancha qotib qoldi: axir shuncha gapni hazm qilish osonmi?..

– Demak, dadam konslagerga tushgan ekan-da;  
– dedi u birozdan so'ng chuqur xo'rsinib... – Aybga buyurmaysiz, Martin aka, siz bu gaplarning barini qaydan bilasiz?

Martin ham biroz fikrini jamlab olgach:  
– Amersfort konslagerining mahbusi – Aleks de Leu degan bir yahudiy otangiz Hoshim aka bilan yaqin do'st bo'lgan. O'shaning kundaligi mening qo'limga tushib qoldi. Uning katta qismi o'zbek asirlari, jumladan, otangizga bag'ishlangan ekan. Qolaversa, bir zamonlar men o'zim yosh bola eshitishi va ko'rishi mumkin bo'limgan voqealarga guvoh bo'lib qolganman.

Temur ota ilkis boshini ko'tardi. Martin bilan ko'zlari to'qnashdi.

– Siz ham Amersfort tutquni bo'lganmisiz? – deb so'radi u.

Martin Temur otaning o'tkir nigohiga dosh berolmay ko'zlarini olib qochdi:

– Biz siz bilan deyarli tengdoshmiz. O'shanda – 1941-yilning kuzida men atigi o'n bir yashar bola edim. Otam harbiy edi, shu bois uyda kam bo'lardi. Men, asosan, onam bilan buvimning tarbiyasini olganim uchun erkatoyroq, jismonan ham zaifroq bola edim. Qo'shni shumtakalar mening jig'imga tek-kani-tekkan edi. Hatto bir necha marta kaltak ham yeganman ulardan. Tabiiyki, men o'zimcha ulardan o'chimni olmoqchi bo'lardim-u, ammo uddalayolmasdim. Boz ustiga, «Gitleryugend» uyushmasining kichik guruhiga sinov topshirib, o'ta olmadim. Bu – Gitler g'oyalarini kelajakda og'ishmay davom etti-ruvchi yoshlarni tarbiyalovchi bir uyushma edi. Men unga a'zo bo'lish uchun qayta imtihon topshirishim lozim edi. Qirq birinchi yilning avgust oyi oxirida otam uyga keldi. Tabiiyki, «Gitleryugend»ga kira ol-maganimni bilib u qattiq ranjigan edi. Mening tarbiyam bilan jiddiy shug'ullanish va imtihonga tayyorlash uchun u meni o'zi bilan olib ketadigan bo'ldi. Bir necha kundan so'ng biz yo'lga chiqdik. Men o'zimda yo'q xursand edim. Chunki dadam men uchun dunyodagi eng zo'r odam edi-da. Kelajakda unga o'xshashni istar edim. Bilaman, siz ham dadangizni qattiq yaxshi ko'rgansiz, – dedi Martin va bir on na-

fas rostlab, Temur otaga qaradi. – Men Amersfortda bo'lganman. U yerga asir bo'lib tushmaganman, yo'q, o'sha konslager komendanti Valter Geynrixning o'g'liman men...

## O'ninchি bob

Amersfort qamoqxonasi boshlig'inинг xizmat mashinasi – qora «Opel-olimpiya» to'g'ri temir yo'l vokzalining yuk tushiriladigan bekatiga kirib keldi va omborxona binolari yonida to'xtadi.

Valter Geynrix mashinadan tushdi. Yaltillagan etik kiygan kaltabaqayroq bir kishi biroz lapanglab, biroq gavdasiga yarashmagan chaqqonlik bilan mashina yoniga keldi. Bu Geynrixning o'rribosari untershturmfyurer Logann Shtyover edi. Doimgidek urishtiriladigan itlarni o'rgatishga mo'ljallangan qamchiga o'xshagan katta charm qamchisi qo'lida.

– Xush kelibsiz, herr obershurmafyurer! – dedi u bosh kiyimi ayvoniga qo'lini keskin tirab. – Maxsus tanlangan asirlar hozir kelib qoladi. Buyrug'ingizga binoan biz rus askarlariga lagerimizdan shinam bir joy hozirlab qo'ydik, – dedi u «shinam» so'ziga alohida urg'u berib va sovuq ishshayib. – Uzoq yo'ldan kelgach toza havoda bir shamollab olishadi-da. Ha,

aytgancha, herr komendant, bir necha kun avval bu qalang'i-qasang'ilarning tilini biladigan Ernst Alsher degan zabitni bizga ishga yuborishgan. Ruxsat eting, sizga tanishtiray.

Komendant Valter Geynrixning mashinadan tushmay o'tirgan o'g'li undershturmfyurer Shtyover ellik yasharlar chamasi novchabo'y, qotmadan kelgan, sal bukchayib yuradigan, siyraksoqol, ko'zoynakli bir odamni qo'l to'lg'ab chaqirganini ko'rди. Bu odamning sovuq nigohidan hech nimani uqib bo'lmasdi.

– Bu herr Alsher, u bizga hujjat ishlarida yordam beradi. Bundan tashqari, boy ayanimdek, u anavi yovvoyilarning tilini besh qo'ldek biladi, – deya hisob berdi Shtyover.

– Juda soz, – dedi Geynrix. So'ng Alsherga yuzlanib dedi: – Ruschani qayerdan bilasiz?

Alsherning yuzi birdan bo'zarib, battar jiddiy tortdi.

– Birinchi jahon urushi yillari ikki yilni Sibirdagi rus qamoqxonasida o'tkazganman.

– Iye, shundaymi?! Qandayin azob-uqubatlarni boshdan kechirganingizni tasavvur etyapman, – dedi bepisand ohangda Geynrix va perron bo'ylab keta boshladи.

Ro'paradan kelayotgan ikki zabit qo'lini peshonasiga tirab avval komendant, so'ng uning ortidan chopib borgan Shtyover bilan salomlashdi. To'rta-

lasi o'sha yerda turib nimanidir qizg'in muhokama qilishdi. Alsher esa joyidan jilmadi, aftidan, boshliqlar buyruq bermaguncha shu yerda kutishni ma'qul ko'rdi.

Martin avtomobil oynasiga peshonasini tiragancha atrofni kuzatmoqda edi.

Vokzal va omborxonalar bo'ylab it yetaklagan juda ko'p qo'riqchi-yu, miltiq tutgan askarlar jangovar holatda turibdi. Martin barmoq niqtab odaticha ularni sanay boshladi. Yosh go'dakligidan shunday – ko'rgan narsasini sanaydi – uylar oynasidan tortib ko'chadagi daraxtlar-u odamlarni, hatto osmondag'i qushlarni ham nazardan qochirmaydi. Uning sanog'iga ko'ra, qurollangan askarlar ellikta, itlar esa naq yigirmata ekan.

«Shuncha it nimaga kerak ekan bu yerda?» deb o'yladi Martin, ammo yaqinlashib kelayotgan poyezd ovozi uning e'tiborini tortdi, o'sha yoqqa qaradi. Odatda, uchta vagondan iborat bunday poyezdda mol-hol tashiladi.

Bir qancha askar miltig'ini yelkasiga osib, oxirgi – uchinchi vagonning eshigini ochishga kirishdi. Chorva tashiladigan bu vagonlardan soqchilar do'q-po'pisasi ostida birin-ketin engil-boshi uvada, ozib-to'zib ketgan, oyog'ini bazo'r ko'tarib bosayotgan kir-chir odamlar tusha boshlashdi.

Birdan itlar baravar vovullab quturgandek ular tomon otilsa deng – qo'riqchilar arang ushlab qolishdi.

Ko'pchilik asirlarning oyog'ida etik yoki boshmog'i yo'q, ularga shunchaki uvada, titilib ketgan paytava o'ralgan edi, xolos. O'rmon-u dalalarda oyoqyalang darbadar yuraverganidan ba'zilarning oyog'i necha martalab jarohatlangan, qoni qotib, qorayib ketgan chuqur yara izlari ko'zga tashlanardi. Bir-ikkitasininggina oyog'ida eski, abgorgina kigizetigi bor. Ko'pi boshyalang, birov-yarmining boshida yozlik qalpoq, yana birlari qulqochinli tel-pak yoki peshonasiga qizil yulduz taqilgan eski budyonovka kiygan.

Yangi kelgan asirlarni ko'rib, Shtyoverning og'zi lang ochilib qoldi. Agar maxsus poyezdni nazorat qilib kelgan zabit uning qo'liga yuk-naqliyat hujjatini tutqazmaganda, kim bilsin, shu ahvolda u yana qancha turardi.

Qamoqxona boshlig'inining muovini hayrat bilan hujjatni ko'zdan kechira boshladi. Qog'ozda ko'rqa hassadekqilibyozibqo'yilibdi: «O'tamuhim. Atoifadagi poyezd – literli. Rus harbiy asirlari. Soni: 101 nafar».

– Xotirjam bo'ling, herr Shtyover, bu – o'sha po-yezd, – dedi Geynrix bamaylixotir.

Lager boshlig'i ko'rib turibdi, bari rejadagidek, asirlarning birortasi slavyan emas. Bularning tashqi qiyofasi mutlaqo o'zgacha, osiyoliklarga tortadi: esida, maktab darsligida – biologiya kitobida ular taxminan mana shunday tasvirlangan edi: sochi qora, bodomqovoq...

– Rostdan ham, bular bitta-bittalab tanlab olin-gan, shekilli, – dedi Geynrix.

– Nima dedingiz, herr komendant? – deb so'radi hali ham angrayib turgan Shtyover.

– Bularning birortasi ruscha bilarmikan, aks hol-da, odamsiyoq bu gala maxluqqa gap uqtirolmay Alsheringizning esi ketadi, – dedi masxaraomuz kulib boshliq.

– G'am yemang, herr obershurmfyurer, podani boshqarish oson, bularning tilini bilish shart ham emas! – dedi og'zining tanobi qochib Shtyover.

– Haqsiz! Yuz foiz! – dedi muovinining javo-bidan mamnun iljayib Geynrix.

Soqchilar poyezddan tushgan asirlarni miltiq qo'ndog'i bilan urib-surib safga tiza boshladi. Martin dadasiga qaradi, u mashinadan uncha uzoqda emas. Haligi ikki zabitga topshiriq berarkan, bot-bot poyezd tomon o'girilib, osiyoliklarga ko'z tash-lab qo'yadi. Keyin Alsherni chaqirdi va unga ham obdon nimalarnidir uqtirdi.

Yolg'iz o'zi o'tiraverib zerikib ketgan bola eshik-ni qiya ochib mashinadan tushdi. Poyezdda kelgan g'alati odamlarni yaxshiroq ko'rish uchun mashi-naning old tarafiga o'tdi va barmoq bukib ularni sanamoqqa kirishdi.

Shu vaqt Martinning ro'parasidagi vagon eshigi ochildi, mana endi u o'sha odamlarni yanada yaqin-dan ko'rishi mumkin edi. Birinchi bo'lib o'rtabo'y bir

odam sakrab tushdi. U Martin har kun ko'rib yur-gan odamlarga sira o'xshamasdi. Uning orqasidan birin-ketin ko'rinishi, aft-angori bir-biriga o'xhash boshqa odamlar tusha boshladi.

– To'rt qatordan saflan! – deya buyruq berdi zabit Alsher.

Hoshim oldinga bir qadam bosib to'xtadi, so'ng mamnun qiyofada oftob charaqlab turgan osmonga qaradi va chuqr nafas oldi. Ammo shu zahoti ya-qinida turgan soqchi miltig'i qo'ndog'i bilan uning yelkasiga tushirib qoldi. Qattiq tegdi-yu, Hoshim sir boy bermadi, chunki u sal narida qora mashinaga su-yangancha malla sochlari tekis taralgan ko'kko'z bir bola o'zidan ko'z uzmay qarab turganini ko'rgan edi.

Bolaning engil-boshi toza-ozoda, po'rimgina edi: oq ko'ylik, kalta kamzul, kalta shim-bridji, tizzaga-chá keladigan jun paypoq va qishki poyabzal kiy-gan. O'g'liga sira o'xshamasa-da, yoqimtoy bu bola Hoshimga o'g'li Temurni eslatib yubordi.

Martin bilan Hoshimning nigohlari bir on to'qnashdi. Asir qalin qoshlarini biroz ko'targancha hayron bo'lgandek bolaga tikildi va sezilar-sezilmas jilmayib qo'ydi. Dovdirab qolgan Martin darrov ko'zini olib qochdi. Shunda u o'zi tomon katta-katta odimlab kelayotgan otasini ko'rdi.

Dadasi Martinning yelkasidan tutib:

– Kimdan so'rab tushding mashinadan? – dedi jahl bilan. Uning chap ko'zi ucha boshladi. Dadasi

nimadandir darg'azab bo'lsa, shunday – asabdan ko'zi pir-pir uchadi. Martin buni bilsa-da, negadir doim andak cho'chiydi.

– O'tiraverib zerikib ketdim, – deb rostini aytib qo'ya qoldi bola va itoatkorlik bilan mashinaga chiqdi. – Anavi odam kim o'zi, dada?

Dadasi uning gapini eshitmadimi yoki o'zini eshitmaganga soldimi, harqalay indamadi.

Safga tizilgan asirlar shahar tomon yo'l olgan, Shtyover bilan Alsher ularni kuzatib borayotir.

Haydovchining yonida o'tirgan Valter:

– Ketdik! Yo'l-yo'lakay shahar komendatusasiga kirib o'tamiz, – dedi.

Martin esa mashina oynasidan qarab hamon asirlarni sanardi.

– Bir yuz bir! – deya sanoqni yakunladi u.

## O'n birinchi bob

Shahar komendatusasiga kirib chiqishgach, qora «Opel» Amersfort shaharchasining Gyugo de Groot-laan tor ko'chasi bo'ylab yurdi. Ko'chaning ikki tomonida bir tekis tizilgan oppoq mo'jaz uychalar xuddi ertakka tushib qolgandek taassurot uyg'otardi kishida.

Qorni tatalab ketgan Martin qo'lidagi ichiga qu-lupnayli shinni solingan, ustiga qand upasi sepilgan shirin kulchadan ishtaha bilan bir tishlab, ko'chaning ikki tomonida – uyi oldida turgan odamlarni kuzata boshladi. Negadir aksarining qo'lida non, olma va shunga o'xhash yeguliklar bor, chehralari allanechuk parishon edi. «Ular ham menga o'xshab och qolgan, shekilli» deya xayolidan o'tkazdi Martin va burni uchiga tekkan qand upasini qo'lining orqasi bilan artdi.

Birozdan so'ng mashina Martin boyaga vokzalda ko'rgan asirlar safini quvib yetdi. To'rt tomondan soqchilar qurshovida to'rt qator-to'rt qator saf bo'lib ketayotgan kir-chir, ochlikdan sillasi qurigan, uvida paxtalikka o'rangan, yara-chaqa bosgan oyog'ini arang ko'tarib bosayotgan bu odamlar shunday ko'r kam, ertakona ko'chada o'ta bechorahol ko'rinnardi.

Shahar ahli o'ziga ilinj bilan ko'z tikkan och-yupun asirlarni ayanch bilan kuzatib turardi. «Opel» haydovchisi signal chaldi, soqchilar miltiq qo'ndog'i bilan turta-turta asirlarni chetlatib, qamoqxona boshlig'inining mashinasiga yo'l ochdi. Martin oynadan ko'z uzmay kulchasidan yana tishladi. Mashina boyaga vokzalda u bilan ko'zi to'qnash kelgan asir yonidan o'ta boshladi. Ularning nigohi yana to'qnashdi. Bolanning nazarida, asir qo'lidagi kulchaga suq bilan

tikilib turgandek tuyuldi. U kulchasini darrov yashirdi.

Aslida, amersfortliklar asirlarga non, olma va bিrорегуллик бермоqчи bo'lib ko'chaga chiqqan edi. Ammo birontasi bu ishni uddalay olmadi, fashist soqchilari ularni qo'rslik bilan haydab asirlarga ya-qin yo'latmadi.

Shunga qaramay, bir ayol chiday olmay qo'lida-gi nondan ko'z uzmay o'tayotgan asirga uni uzatdi. Yigit nonga qo'l cho'zib ulgurmay, soqchi ayolning ko'ksiga miltiq qo'ndog'i bilan ayamay tushirdi. U orqaga tisarilib ketdi va qo'lidagi non uchib yerga tushdi. Soqchi jahl bilan nonni yo'l chetiga qarata tepib yubordi, bunga ham qanoat qilmay asirning chakkasiga qo'ndoq bilan chunonam urdiki, shundoq ham darmonsiz, oyoqda bazo'r turgan yigit shilq etib tosh yo'lga yiqildi.

Hoshim bilan ikki-uch asir qonga belangan yigitni ko'tarib olishdi. Asirlar yana yo'lga tu-shishdi.

Asirlar safi yaqinlashishi bilan shaharliklar cho'chib, bir-ikki qadam ortga tisarilar va, hatto, uy-lari devoriga qapishib ham olar edi. Martin ba'zilari-ning ko'zida yosh ko'rdi.

Komendantning mashinasi asirlar safini quvib o'tgach, Martin:

– Dada, bu juldur odamlar kim o'zi? Nega ularni urib-savalashyapti? – deb so'radi.

– Bular bizning dushmanimiz – odamsiyoq maxluqlar. Odam deb ham bo’lmaydi ularni! Shuni miyangga quyib ol, o’g’lim, g’oliblar doim mag’lublar ni urib-kaltaklaydi! – dedi Geynrix.

– Demak, odamsiyoq maxluqlar mag’lub bo’lib-di-da, dada?

– Boshqacha bo’lishi mumkin emas axir, o’g’lim!  
– dedi mammunlik bilan Geynrix. U ortiga o’girilib, o’g’lining sochini to’zg’itib erkalab qo’ydi.

So’ng haydovchiga tezlikni oshirishni buyurdi. Martin esa endi orqa oynadan asirlarni kuzatib ketdi va toki qorasi ko’rimmay qolguncha ulardan ko’z uzmadi.

## O’n ikkinchi bob

Qo’shni qishloqdagi Valter Geynrixga mo’ljallangan kattakon uy hali to’liq ta’mirdan chiqmagani uchun, u vaqtincha ikki qavatli ma’muriy binoda yashab turgan edi. Bu yerda ish bo’lmasi, shuningdek, uning o’zi va o’g’liga alohida yotoqxona bor.

Atrofi pastak devor bilan o’ralgan bu bino Amersfort konslageri asosiy darvozasidan yigirma metrlar berida joylashgan edi. Bino yonida kichikroq yumaloq hovuzcha bo’lib, Geynrix ko’pincha og’ir

ish kunidan so'ng shu yerga chiqib, dam olish va o'y-fikrlarini tartibga solishni yoqtirar edi. Komentantning «omonat» uyi yaqinidagi yana bir ma'muriy binoda Shtyover va boshqa zabitlar yashardi. Bu binodan sal narida yana ikkita ixchamroq imorat bo'lib, qamoqxona rahbarlari va zabitlari uchun omborxonada oshxona vazifasini o'tardi.

Bugun Martin ilk marotaba ikkinchi qavatdagagi otasining ish bo'lmasiga chiqdi. U xonani qiziqish bilan ko'zdan kechirdi: kattakon ish stoli, qulay oromkursi, charm divan, qalin-qalin jild va kitoblar tartib-la terilgan kitob raflari. Dadasi ish stoli boshida o'tirib, derazadan qamoqxona hududini bemalol kuzatar ekan-da. Bu yerdan hammasi xuddi kaftdagidek ko'rinish turarkan.

Oromkursi tepasida – devorda fyurerning bo'y baravar tushgan rangli surati, yon tarafdagagi devorda esa uzunchoq qasnoqqqa solingan grafikaga oid rasm – chiroyli bir shahar: shinam uylar va gumbazli jomelar tasvirlangan kartina ilingan edi.

Martinni kuzatib turgan otasi:

– Bu – Gerkules Segersning «Amersfort manzarasi» asari. Bunisi ko'chirma nusxa... Lekin hali biz asl nusxasini ham qo'lga kiritamiz. Gollandlar bir vaqtlar rasm chizishga usta bo'lishgan... – dedi. U ortiga o'girilib o'ziga ishonib topshirilgan qamoqxona hududida ayni chog'da nimalar bo'layotganini diqqat bilan kuzata boshladi.

Uning ko'r-ko'rona tartibga o'rgatilgan xodimlari qamoqxonadagi barcha asirlarni baraklardan haydab chiqib, katta maydonda safga tizmoqda edi. O'sha yerdan o'ngroqdagi maydonga – to'rt tarafi tikanli sim bilan o'ralgan qo'raga Geynrix mam-nun ko'z tashladi. Bu joy yangi kelgan mahbuslarga maxsus hozirlangan bo'lib, nemislar unga allaqa-chon «shinam qo'ra» deb nom berib ulgurgan edi. «Ha, shinamlikda bu joyga yetadigani yo'q», deya miyig'ida kului qamoqxona boshlig'i.

Martin dadasingning yoniga bordi, dadasi esa o'g'-lining yelkasidan quchdi.

– Dada, bu odamlar kim, ularni nega safga tizisha-yotirlar? – deb so'radi Martin otasining ko'zlariga tikilib.

Lekin dadasi birdan nimadir esiga tushib qolgandek ketishga chog'landi.

– Keyin, o'g'lim, qancha savoling bo'lsa, keyin so'raysan. Hozircha shu yerda o'tirib tur. Mening zarur ishim bor.

Martin derazadan otasi shoshilmay, qaddini g'oz tutgancha maydon bo'ylab safga tizilgan eski-tuski harbiy kiyimdagи haligi odamlar tomon borayotgанини ko'rди. U maydonga yaqinlashganda zabitlar-ning bari harbiychasiga qo'l ko'tarib salomlashdi. Ulardan biri – Martinbekatda ko'rgan baquvvat-rog'i mahbuslarga tomoq yirtgudek baqirib buyruq berdi. Asirlar safi buyruqqa bo'ysunib tekislandi.

Geynrix mahbuslar qarshisiga kelib gap boshladi. Tabiiyki, qalın oyna ortida turgan Martinga dadasingin gapi eshitilmadi, ammo u nima deyishini bola aniq taxmin qildi. Germaniya nechog'lik buyuk va kuchli davlatligi-yu, nemislar bu olamdag'i eng oliv nasl ekani, yaqin orada fyurer saltanati butun dunyoga hokimlik qilishi-yu, Sho'ro Ittifoqi va uni qo'llab-quvvatlagan barcha-barcha yer bilan yakson bo'lajagi haqida va'z o'qiyotgani aniq edi.

Geynrixning ovozi tobora balandlamoqda edi, odatta, Reyx va Fyurer haqida gapirganda o'zi ham sezmag'an holda ovozi tantanali tus olib, baralla chiqardi. Martin endi uning har bir so'zini aniq eshita boshladi.

– Hademay yengilmas Buyuk Reyxga qarshi kim kurashayotganini o'z ko'zingiz bilan ko'rasiz! Bular – inson nomiga nomunosib eng tuban, past maxluqlar! Sizlarning... ittifoqchilaringiz! – Oxirgi so'zni aytganda uning lablari burishib ketdi. Martin hatto shu yerdan turib dadasingin o'ng ko'zi asabiy uchayotganini ko'rgandek bo'ldi.

Valter Geynrix orqasiga o'girildi: hammasi o'yaganidek kechmoqda – qamoqxona darvozasidan o'sha – aft-angori slavyanlarga zarracha o'xshamaydigan asirlar kirib kelmoqda. Ular xuddi boyagidek: to'rtta-to'rttadan saflangan. Martin yigirma besh qator sanadi va uni to'rtga ko'paytirdi. Yuzta! Bitta mahbusni ko'tarib olishibdi. Uni ham qo'shganda bir yuz bir nafar chiqadi.

– Mana, mana shu sariq chaqaga arzimaydigan, hech kimga keragi yo'q odamsiyoq olomon, – dedi irgangandek ular tomon barmoq niqtab Geynrix, – Buyuk Reyx qo'shiniga qarshi chiqa olamiz deb o'ylashga jur'at etgan sho'ro askarlari bo'ladi! Mana, ko'rib qo'ying, ular shu yerda! Ahvoliga bir qarang bularning: ojiz-u notavon! Xuddi sizlar kabi!

Ayni damda otasi va u aytayotgan gaplardan Martinning qalbi g'ururga to'lib ketdi. Lekin u asirlar orasida o'ziga tanish chehrani – Hoshimni ko'rib qoldi. Negadir bu odamga achindi.

– Amersfort qamoqxonasiغا xush kelibsiz! – deya istehzo bilan nutqini yakunladi Geynrix va darvoza tomon yo'l oldi.

Shtyover «eski» mahbuslarni o'z baragiga, yangi kelgan, ya'ni o'zbeklarni esa o'sha «shinam qo'ra»-ga haydadi. Bu yer baayni asov mollarni qamashga mo'ljallangan bir qo'ra edi. Hajmi: o'n beshga o'n besh, to'rt tarafi: odam bo'yidan baland tikanli sim-to'siq.

Mahbuslar tikanli simdan to'qilgan ensiz eshik oldida uymalashib qoldi. Biror kimsa birinchi bo'lib ichkariga qadam qo'yishga botinmasdi.

Qo'raga birinchi bo'lib Hoshim kirdi. Uning ortidan sekin-asta boshqalar ham ergashdi. Soqchilar oxirida qolganlarning ozg'in, qoqsuyak yelkalariga qo'ndoq bilan urib-surib ichkari kir-

gizib eshikni yopdi. Atrofi tikanli sim bilan o'ralgan bu to'rtburchak qo'raga asirlar arang sig'di. Ular surila-surila bir amallab joy ochib haligi yigitni yotqizishdi. U qimirlamas, katta-katta ochilgan ko'zлari bir nuqtaga tikilgan ko'yi qotib qolgan edi. Uning joni allaqachon uzilgan, buni bilish uchun shifokor chaqirishga hojat yo'q edi. Amersfortga kelib-kelmayoq o'zbeklar bir qadr-donidan ayrildi. Bu yigit ilk qurban edi. Endi asirlar bir yuz bitta emas, roppa-rosa yuz nafar qolgan edi.

Avval Hoshim, uning ortidan boshqalar birin-ketin yerga cho'kkalashdi. Hoshim qiroat bilan Qur'on tilovat qila boshladi. Asirlar kaftlarini ochib, boshini quyi eggancha ko'zлarini yumib Hoshimga qulq solib o'tirardi. Rahbarlar-u soqchilar angrayib qoldi.

G'azabdan ko'karib ketgan Shtyover Alsherga tomoq yirtgudek baqirdi:

– Bular nima qilyapti o'zi? Anavi nima deb vaysayapti?

Unter-zobit odaticha pinagini ham buzmay:

– Bilmadim, u ruscha gapirmayapti, – dedi.

– Alsher, tur deng bularga! O'rnidan tursin! Yal-payib o'tirib olganini qarang! Kim ruxsat berdi!

Asirlar na Shtyover va na Alsherga e'tibor qildi. Joyidan qimirlashmay janzoza namozini poyoniga yetkazishdi.

– Soqchilar! Bu yoqqa! – deb qichqirdi muovin Shtyover.

Asosiy darvozaga yetib qolgan soqchilar Shtyoverning ovozini eshitib darrov ortga qaytdi.

Mahbuslar namozni tamomlashib o'rnidan qo'zg'algan ham ediki, quturgan Shtyover bosh soqchilar «qo'ra»ga bostirib kirib, orqa-oldiga qaramay ularni urib savalab qolishdi. Shtyover to'g'ri Hoshimning ustiga bostirib bordi va yuz-ko'zi demay qamchilay ketdi: hammasini boshlagan sensan, oladiganingni ol, ablah!

Asirlar qarshilik ko'rsatishdi, kimdir o'zini himoya qilgan bo'ldi, ammo kuchlar teng emas edi.

– Bas! Yetar! – deb qichqirdi nihoyat muovin.

Soqchilar ur kaltak-sur kaltakni to'xtatib, miltiqlari og'zini asirlarga qaratgancha Shtyoverning yoniga tisarildi.

Muovin g'azabdan dag'-dag' titrardi.

– Alsher, bu to'ng'izlarga gapimni tarjima qiling: agar yana bir marta o'zboshimchalik qilishsa, buyruqqa bo'ysunishmasa, itdek urib o'ldiramiz!

Alsher gapini tarjima qilguncha muovin atrofida qurollangan soqchilari bilan o'zi nazar-pisand qilmagan asirlardan ko'z uzmadi. Qurolsiz, kaltak zarbidan labi, qoshi yorilgan, burni qonagan, bir burchakka siqib qo'yilgan asirlar bir-birini suyagancha dushmanga yeb qo'ygudek o'qrayib turishar

edi. Qo'yib bersa, hozirning o'zidayoq qo'lida qurol bo'lmasa-da ularga tashlanishga shay edi ular.

Qani endi Shtyoverning ham erki o'zida bo'lsayu, bu hayvonlarni ottirib tashlasa! Biroq u hozir soqchilariga «Ortga chekining» deyishga majbur. O'zi ham bir askar singari edi, u ham o'zidan yuqoridagilarga bo'ysunadi. Bu odamsiyoq maxluqlarni ma'lum bir vaqt Amersfort qamoqxonasi-da ushlab turish kerak. Bu, kimsan, Berlindagi rabbariyat amri! Shtyoverning buyrug'i bilan ikkita askar haligi o'zbek yigitning jasadini «qo'ra»dan chiqarib tashladi. Birozdan so'ng Alsher yana ikki nafar yahudiy mahbusni ergashtirib kelib jasadni tibbiy bo'limga olib ketdi.

## O'n uchinchi bob

Martin dadasingin ish bo'lmasi derazasidan bo'lgan voqealarni ko'rди. Geynrix esa telefonda Berlin bilan gaplashmoqda. Gap ohangidan mammunligi sezilib turibdi. U maxsus poyezd hech bir ishkalsiz yetib kelgani, asirlar qamoqxonaga olib kirilgani, hamma ish rejadagidek ketayotgani haqida hisobot berdi.

Geynrix go'shakni qo'yar-qo'ymas, ostonada Shtyover paydo bo'ldi. U haliyam o'zini bosib ololmagan edi.

– Ha, Iogann, keling, tanishib qo'ying, bu – o'g'lim Martin. – dedi bolaga imo qilib. – Bu esa mening muovinim untershturmfyurer Shtyover bo'ladi.

– Salom, janob Shtyover, – deya odob bilan salom berdi Martin.

– Martin bu yerda bir-ikki oycha bo'ladi, – dedi joyidan turib muovini tomon borarkan boshliq. – Biz birgalikda uni haqiqiy erkak, Reyxga munosib chin askar qilib tarbiyalaymiz! Amersfortda o'g'limning ko'zi pishadi, tezroq ulg'ayadi, chamamda, nima dedingiz?

– Juda to'g'ri o'yabsiz, janob obershurmfyurer! Germaniyaga sadoqatli askarlar kerak! – dedi boshliqqa yoqish uchun yaldoqlanib Shtyover.

Muovinining betoqatligidan Geynrix u bu yerga bejiz kirmaganini payqadi.

– Shtyover, menda gapingiz bormidi?

– Shunday, janob komendant.

Geynrix kursiga imo qildi: «o'tiring» degandek.

Shtyover «qo'ra»da bo'lgan ishni qisqacha so'zlab berdi.

– Herr komendant, biz bularni pisand etmay yanglisyapmiz chog'i, – dedi deraza tomon imo qilib u. – Menimcha, ular bizga hali ko'p tomosha ko'r-satadi-yov.

Geynrixning asablari taranglashdi, yuzidagi boyagi mammunlikdan asar ham qolmadi.

– Nima? Qarshilik ko'rsatishga ham jur'at etdi deng bu juldurvoqilar? Endi ayab o'tirmang, ularga iloji boricha og'irroq jazo qo'llash payidan bo'ling! Bugun och qoldiring! Suv ham bermang!

Shtyover ma'qul deya bosh irg'adi va devordagi soatga qarab oldi.

– Herr obershurmfyurer, kechki ovqatgacha yarim soat bor ekan, men «tomorqa»ni bir aylanib chiqsam devdim.

«Tomorqa» deganda ular qamoqxonani nazarda tutardi.

– Dada, men janob Shtyover bilan borsam maylimi? – deb so'radi Martin.

– Agar herr untershurmfyurer qarshi bo'lmasa, bora qol!

Shtyover boshlig'iga yoqish uchun, o'ylab ham o'tirmay rozi bo'ldi:

– Nega qarshi bo'laman, yura qol, Martin. Faqat yonimdan bir qadam ham jilmaysan, uqdingmi?!

Shtyover bilan Martin to'ppa-to'g'ri o'zbek mahbuslar qamalgan «qo'ra»ga borishdi. U yerda Alsher muovinni kutib turgan ekan. Martin bu novcha, ozg'in zabitni darrov tanidi. Uni Amersfort temir yo'l bekatida ko'rgan: o'sha kuni yangi kelgan asirlarga tushunarsiz bir tilda gapirgan odam shu-da.

Mahbuslar Martinga taajjub-la tikilib qolishdi: bu yerda bola nima qilib yuribdi? Martin esa vok-

zalda o'ziga kulib qo'ygan tanish asir – Hoshimni qidirmoqda edi.

Shtyoverning ovozi, so'ng Alsherning behis, quruq ruscha lahjasini eshitib mahbuslar Martindan ko'z uzib, ularga qaradi.

– Qamoqxona muovini undershturmfyurer Iogann Shtyover ogohlantiradi: Amersfort lagerida har qanday sarkashlik, itoatsizlik shafqatsizlarcha jazolanadi! Bo'ysunmagan mahbus muqarrar o'limga mahkum! Bugun sizlar buyruqqa itoat etmaganingiz uchun och qolasiz!

Mahbuslar yuz-ko'zida xavotir zohir bo'ldi, o'zaro shivir-shivir boshlandi.

Shuhrat tilini tiyib turolmadi:

– O'zi shundoq ham necha kundan beri ochmiz! Tinka-madorimiz quridi! Bizga ovqat berenglar!

Barcha baravar norozilik bildirsa, go'yo vaziyat o'zgaradigandek boshqa mahbuslar ham g'alg'ovur ko'tardi.

Ammo Shtyover «qo'ra»ni ko'zdan kechira turib, simto'siqqa yaqin keldi-da, to'pponchasini qinidan chiqarib uni naq Shuhratning peshonasiga to'g'irladi:

– Yana bir og'iz gapirsang, u dunyoga ravona bo'lsan, tushundingmi!

– Ot, ablah, ot! Nimani kutyapsan? – dedi Shuhrat ko'krak kerib Shtyoverga yaqinlasharkan asabdan titrab.

Muovin bunday munosabatni sira kutmagandi. Yigitning bir og'iz so'zini tushunmagan bo'lsa-da, gap ohangi va nigohidagi nafratdan barini anglatdi. U shoshilmay, biroq qat'iyat bilan to'pponcha tep-kisini tushirdi.

– Shoshmang! – dedi asirlar ortidan kimdir dadil ovozda. U Hoshim ekan. U olomonni chetga surib simto'siqqa yaqinlashdi va Shuhratning oldini to'sdi. Shtyover to'pponchasi og'zini Hoshimning peshonasiga qaratdi. Mahbus ikkala qo'lini adl ko'tardi:

– Bo'ldi, bo'ldi, tinchlaning, janob zabit! Biz sizni tushundik! – Keyin esa simto'siqqa yaqin turgan asirlarga qarata baland ovozda: – Hamma ikki qadam ortga chekinsin! O'zingizni bosing! Bugun shundoq ham begunoh bir do'stimizdan ayrildik. Yana kimdir bekor-behuda o'lib ketmasin!

Shtyover Hoshimga yeb qo'ygudek o'qraydi. G'azabga mingan olomon esa Hoshimga qulog solib, ortga tisarildi va birmuncha tinchlandi.

Shtyover yana biroz vaqt Hoshimning peshonasini mo'ljal qilib turgach, to'pponchasini tushirib, qiniga joyladi. Hoshim sheriklari tomon yurdi, Shuhrat unga ergashdi.

Shtyover rangi oqarib ketgan Martinga qarab:

– Ketdik, Martin. Dadang ham kutib qolgan bo'lsa kerak, – dedi.

Martin qo'rquv to'la ko'zlarini Shtyoverga tikib:

– Ular nima deyapti? – dedi.

– Ovqat ber, deyishyapti.

– Nega ularga ovqat bermayapsizlar?

– Bolakay, – dedi Shtyover muallimlardek nasihat ohangida, – ovqat yeyish uchun shunga yarasha mehnat qilish kerak, to'g'rimi? Bular nimani qoyil latibdi hali?

Martin dadasining bo'lmasiga kirganida u deraza oldida tashqariga tikilib turgan edi.

– Dada, dada, hozir-chi, herr Shtyover bilan men ga temir yo'l vokzalida kulib qaragan mahbus bor ku, o'sha butun bir olomonni to'xtatib qoldi, – dedi bola hayajondan o'zini bosolmay.

– Men barini ko'rdim, o'g'lim, – dedi ota si va Shtyoverga qarab: – Siz haq ekansiz, herr untershurmfyurer, bu odamsiyoqlar biz o'ylagan chalik anoyi emas, shekilli. Keling, bu haqda kechki ovqat mahali gaplashib olamiz.

Geynrix, Shtyover va Martin bo'lmadan chiqib oshxonaga o'tishdi. To'kin-sochin dasturxon tuzal gan ekan.

Boshliq bilan muovin ovqatdan oldin bir qadah dan asl nemis shnapsidan ichishdi.

– Boyagi olomonni to'xtatgan... oti nima shuning?

– Bilmasam, – dedi Shtyover, – Ertaga, Alsher shularning hujjat-pujjatini ko'rib chiqqach, ma'lum

bo'ladi. Biroq o'sha osiyolik bugun ikki marta o'zini ko'rsatdi. Aftidan, boshchilari ko'rindi.

– To'g'ri, dada! – deya gapga aralashdi qoyil qolganini yashirolmay Martin. – U qo'lini ko'tarishi bilan mahbuslarning bari bo'ysunib, aytganini qildi!

Geynrix bilan Shtyover ko'z urishtirib oldi. Boshliq o'g'liga hech nima demadi. Biroq Martinning dushmanidan nafratlanish o'rniga qoyil qolib gapirganidan ko'ngli xira tortdi.

– Janob komendant, Martin bu yerda bo'layotgan ishlarni ko'rmagani durustmikan deyman?

– Yo'q, aksincha, – dedi Geynrix taqsimchasiga sabzavotlardan va bir bo'lak dudlangan go'sht solar-kan. – Fahmimcha, o'g'limga aynan qattiqko'llik, shafqatsizlik yetishmaydi. Shuncha vaqt ammanning buzog'i bo'lib yurgani yetar! Yaqinda o'n birga kiradi, u bo'lsa haliyam «Gitleryugend» a'zo bo'la olmadni!

Martin asabiy yutinib qo'ydi.

– Harholda, Martin, sen geynrixlar harbiy sulolasi naslidansan! Bizning avloddan bunday lapashanglar chiqmagan, uqdingmi?

– Uqdim, dada, – dedi eshitilar-eshitilmas yerga tikilgan ko'yi bola.

– Ha, aytgancha, gap bundoq, Iogann!

Shtyover shosha-pisha og'zidagi go'sht bo'lagini chaynab-chaynamay g'ilt etib yutdi-yu boshlig'iga qaradi.

– O'sha odamsiyoqlarni kelishganimizdek tush mahali emas, ertaga ertalabdan kiftini keltilrib cho'miltirib qo'yishga buyruq bering. Sas-sig'iga chidab bo'lmayapti, bulardan ko'ra cho'chqa tuzukroq! – dedi Geynrix aftini burish-tirib.

– Xo'p bo'ladi! – dedi bosh silkib Shtyover. – Herr komendant, siz bilan yana bir masalada kelishib ol-sak devdim. Unter-zobit Alsherning hujjatlar bilan bog'liq ikir-chikir yumushlari juda ko'p ekan. Bizga esa sho'rolar bilan muomala qilish uchun rus tilini biladigan odam doim kerak. Bu ishga anavi yahudiy mahbus Aleks de Leuni jalb qilsak, nima deysiz? U golland kommunistlarining yo'lboshchisi bo'lgan, rus tilini yaxshi biladi.

– Ma'qul! Ularning tengi yahudiy bo'lmay kim bo'lsin! – dedi o'ylab ham o'tirmay istehzoli kulib Geynrix. Keyin Martinga qarab: – Xo'sh, bolakay, qamoqxona bo'ylab sayr qanday kechdi?

– Mahbuslar och ekan, ovqat so'rashdi, – dedi sanchqi bilan taqsimchasidagi yemakni cho'qilab o'tirgan bola.

– Aynan kim so'radi?

– Yangilar – bugun kelganlar.

– Yangilar emas, Martin, odamsiyoq maxluqlar! Necha marta aytish kerak senga! Shuni esda saqlash qiyinmi? – dedi jahl bilan.

- Herr Shtyoverning aytishicha, o'sha odamsiyoqlar hali ovqat yeyishga arzigulik ish qilmabdi.
- To'g'ri aytibdi! Bu odamsiyoqlar, qullar xo'jasiga munosib xizmat qilsin avval! Ana shunda, ehtimol, ovqat berarmiz.
- Lekin men ham tekindan tekin ovqat yeyapman-ku, ishlamayman-ku!
- Sen, Martin, nemissan! Oriy irqidansan, qoning toza! Sen xo'jayinsan! Sening burching – Buyuk Germaniya va fyurerga xizmat qilish! Endi esa, marhamat qilib, oldingdagi taomni yeb qo'ysang!

### O'n to'rtinchchi bob

Martinning Amersfortda o'tkazadigan har bir «ish» kunini otasi daqiqama-daqiqa taqsimlab chiqdi. Bola ana shu tartibga qat'iy rioya etishi kerak.

Ertalab soat yetti-yu o'n beshda uyqudan turadi, yetti yarimdan sakkizgacha butun qamoqxonani larzaga solib yangraydigan tantanavor nemischa marsh ohangi ostida dadasi ikkisi jismoniy tarbiya bilan shug'ullanadi.

Nonushtadan keyin bir soat kitob mutolaa-siga ajratilgan. O'qishi shart bo'lган kitoblarni

otasi tanlab, ro'yxat qilib bergen, bular kelgusida Martin «Gitleryugend»ga imtihon topshirganida asqotadi.

Tushlikdan so'ng matematika bilan shug'ullana-di. Keyin deyarli bir soat fyurer maqlolarini ting-lashi yoki o'qishi va uni qisqacha ko'chirib olishi kerak. Kechki ovqatdan oldin Buyuk Germaniya tarixiga oid kitoblarni o'qiydi, ovqatdan so'ng dasasi bilan qisqacha suhbat qurishadi: kunlik reja qanday bajarilgani tekshiriladi. Roppa-rosa soat to'qqizda Martin yotib uxlashi kerak.

Kundalik rejada, shuningdek, otasi ruxsat ber-ganda Martin Shtyover yoki Alsher nazorati ostida qamoqxona hududini kezishi mumkin degan band ham bor edi. Martin nimjon edi, shu bois jismoniy mashqlarni ham oson o'zlashtirolmasdi, lekin jon-jahdi bilan harakat qilardi. Chunki dadasidan doim dakki eshitish – kuchli bo'lish va dushman deganni qarab o'tirmay qon qaqshatish kerakligi haqidagi va'z-nasihatlar joniga tekkan. Bu tong dasasining undan ko'ngli to'ldi, g'ayrat qilgani uchun Martinni hatto maqtab ham qo'ydi.

Ular jismoniy mashqni tugatishi bilan tashqa-ridan Shtyoverning o'dag'aylagan ovozi eshitildi. Ota-bola ochiq deraza tomon oshiqdi. O'zbek asirlar yotgan «qo'ra» bo'm-bo'sh. Martin u yoq-bu yoqqa alanglab Shtyoverni ko'rди, u tibbiy bo'lim yonidagi maydonda ekan.

– Yana qaytaraman! Cho'ntakdagi shaxsiy bu-yumlarning bari chiqarib yerga tashlansin. Yechinib, yalang'och bo'linsin! – deb baqirardi u o'zbek asirlarga. Uning yuzi kecha ichgan ichkiligidanmi qip-qizil edi. Doimgidek qo'lida qamchi va u bilan dam-badam kaftiga chirt-chirt urib qo'yadi.

Shtyoverning chap yonida kecha Geynrixga ham ma'qul kelib «tilmoch» tayinlangan yahudiy mahbus Aleks de Leu turibdi. U chamasi qirq besh yoshlardagi o'rtabo'y, qirg'iyburun, kalbosh odam edi. Uning egnida qamoqxona kiyimi; kamzulining naq yuragi ustiga sariqrang David yulduzi tasviri tushirilgan. U Shtyoverning gaplarini so'zma-so'z tarjima qilayotir. Shtyoverning o'ng tarafidan unter-zobit Alsher joy olgan, u Aleks to'g'ri tarjima qilyaptimi-yo'qmi tekshirib, boshliqlarga aytishi kerak. Aleks har bir jumlanı tarjima qilib bo'lishi bilan Alsher qamoqxona boshlig'i muoviniga bosh silkib qo'yadi: barini to'g'ri tarjima qilyapti. Asirlar bir tekis tizilgan. Hoshim hozir qarshilik ko'rsatish befoya ekanini bilib turibdi. Aksincha, bekorga o'lib ketishadi. Shu sabab u birinchi bo'lib Shtyoverning buyrug'iga itoat etib, eski gimnastyorkasi kissasidan g'ijimlanganroq kichkina suratni chiqardi. Ko'hlik-kina xotini bilan yetti-sakkiz yoshlardagi o'g'li kulib tushgan rasmga boqib beixtiyor uning chehrasi yorishdi, shivirlab nimadir dedi va uni o'pib qo'ydi: qadrdonlari bilan xayrslashdi go'yo.

Uning ortidan Shuhrat, Ilhom va boshqa asirlar ham cho'ntagidagi narsalarni olib yerga qo'yishdi.

Bularni ish bo'lmasi derazasidan kuzatayotgan Geynrix mutlaqo xotirjam ko'rindi. U qilt etmay tikilib turar, ammo pirpirayotgan ko'zi uning sirt-dangina shunday sokin ko'rinyotganini anglatib, «sotib» turardi.

Kecha Shtyover Hoshimni «asirlarga bosh» deganida haq ekan, mana, Geynrixning o'zi bunga amin bo'lib turibdi. U nima qilsa, boshqa asirlar ham shunday qilyapti.

Aleks de Leu ham ko'z qiri bilan Hoshimni kuza-tar, undan sira ko'z uzmas edi. Osiyoliklarga yetak-chi bo'lgan bu odamning boshiga hali itning kuni tushishini u allaqachon sezgan edi.

Hoshim yechinib bo'lgach, shimining cho'ntagidan jimitdek bir nima olganini Aleks ko'rdi. Uzoqroq bo'lgani uchun nima ekanini farqlay olma-di. Hoshim taxlangan kiyimlarini yerga qo'ydi va uning ustiga surat hamda boyagi «narsa»ni tashladi.

Boshqa asirlar ham kir-chir, yirtiq-uvada, hid-lanib ketgan harbiy kiyimlarini yechishib shunchaki yerga tashlashmadi, Hoshimga o'xshab taxlab qo'yishdi. Shaxsiy buyumlarini esa ehtiyyotlab kiyim ustiga tashlashdi.

Birozdan so'ng nemis soqchilari qip-yalang'och asirlarni miltiq qo'ndog'i bilan urib-turtib bir qator qilib tizdi: xuddi hayvonlarni ko'rikdan o'tkaz-

gandek tekshirib, so'ng dorilashmoqchi. Osiyoliklar ozib-to'zib ketgan bo'lsa-da, qaddi-basti chakki emas edi, ko'pchiligining qo'llari baquvvat – bo'r-tib chiqqan mushaklar izi hamon sezilardi – af-tidan, aksari urushga qadar jismoniy mehnat bilan shug'ullangan ko'rinardi.

Ko'rikdan avval Alsher har bir mahbusni so'roq qildi. Yigitlarning ism-familiyasi, yoshi, urushgacha nima ish qilgani va boshqa ikir-chikirlarni, bir so'z bilan aytganda, xat-hujjati uchun nima lozim bo'lsa, barini yozib oldi. Harbiy guvohnomalarni u temir yo'l bekatidayoq asirlarni kuzatib kelgan soqchi-zobitdan olgan edi.

Yahudiy mahbuslar o'zbeklarning kiyimi va shaxsiy buyumlarini bir yerga to'play boshlashdi. Aleks Hoshim narsalarini qo'ygan joyga bordi. U surat ustida rang-barang tusga bo'yalgan jimitdek-kina gil qushchani ko'rdi. Hoshimning kiyimini olib, uyumga eltib tashladi.

Qamoqxona shifokori Nikolas Van Niuenxeyzen ellik besh yoshlар atrofidagi o'rtabo'y, miqtı gavdali, yumaloqyuz va xushfe'l ko'rinaridigan odam edi. Uning shaxsan o'zi o'zbek asirlarni birma-bir ko'rikdan o'tkazdi.

Shifokor vazifasini astoydil bajarar, biroq o'lguudek qo'rs edi. U nafratini yashirolmas, asirlarni atay tahrqirlayotgani ochiq sezilib turardi. Nikolas Van Niuenxeyzen ishini tamomlagach, uning yordamchilari

o'tmas qaychilar bilan asirlarning soch-soqoli, tanasi-dagi yung-pungni tag-tugi bilan kesishdi, badanining qancha yerini kesib qonatib ham tashladi, og'riqdan dodlaganlarga e'tibor ham qilmadi.

Soqchilar lampamoy solingan chelak va pol yuvadigan dag'al cho'tkalar olib kelishdi. Bir yahudiy mahbus osiyoliklarning tepe qilib uyilgan kiyimlariga lampamoy sepdi.

Bir to'p osiyolik asir dorilashga hozir bo'lganda, Shtyover yahudiylargaga «boshla» deb buyruq berdi. O'zbeklar barak devorini ushlab egilib turishdi. Yahudiylar cho'tkalarni lampamoyli chelakka botirib, osiyoliklar yelkasini dag'al cho'tkada shilib yubormaslik uchun iloji boricha ehtiyojkorlik bilan ishqay boshladi. Muovin Aleksga Hoshimning yelkasini ishqashni buyurdi.

Shu vaqt bu yerga shoshilmay, ammo dadil qadam bosib Geynrix keldi. U bu «tomosha»dan quruq qolishi mumkin emas edi. Shtyover va boshqa askarlar hurmat yuzasidan qaddini rostlab qotib turishgan edi, boshliq qo'l siltab, «Ishni davom ettiraveringlar» dedi.

– Hoy, qattiqroq ishqalalar, qattiqroq! Jonlarin bormi?! – deya do'q urdi Shtyover. – Yo'qsa, hozir o'zlarining uch qavat teringlarni shilib olaman!

Yahudiy asirlar o'zaro ko'z urishtirib oldi.

– Nimasiga hayron bo'lasanlar? Bularning isqirtligini ko'rmayapsanlarmi? Irkitini top-toza

qilib shilib ollaring! Biroq... ming ishqagan bilan bu odamsiyoqlar toza bo'larmidi! – dedi battar asabiy-lashib Shtyover.

Alsher bu gaplarni tarjima qilmadi, bunga hojat qolmadi – shundoq ham Shtyoverning noroziligi ayon ko'rinib turibdi.

Geynrix untershturmfyurerni imlab yoniga chiqirdi va sekin:

– Anavining burnini bir yerga ishqab qo'yish kerak, – dedi Hoshimga imo qilib. – Logann, boring, manavi yahudiylarga bu hayvonlarning isqirtini qanday tozalash kerakligini o'zingiz bir ko'rsatib qo'ying!

Shtyover istehzoli kulib, qo'lidagi qamchini Alsherga tutqazdi-da, maydonga yo'rg'aladi.

– Voy ahmoq maxluqlar-ey! Senlarga hamma narsani o'rgatish kerak, a? – U Hoshim bilan Aleks de Leu tomon jadal bordi.

U yahudiyning qo'lidan cho'tkani yulqib oldi-da, lampamoy to'la chelakka botirib-botirib, bor kuchi bilan Hoshimning yelkasini ishqay boshladi. Jon-jahdi bilan devorga qapishib olgan Hoshim og'riqning zo'ridan dodlab yubordi. Uning chakka tomirlari bo'rtib ketdi. Bir necha soniya ichida Shtyover go'shtini chiqargudek qilib Hoshimning yelkasini shilib tashladi. U arang oyoqda turardi. Orqasi qip-qizil qonga bo'yaldi. Shtyover uning yelkasini obdon shilib xumoridan chiqqach, oyog'iga cho'tka bilan chunonam tushirdiki, Hoshim gup etib yiqlidi.

Aleks uni turg'izmoqqa chog'langan edi, Shtyover ko'zi qinidan chiqayozib o'dag'ayladi:

– Xayolingga ham keltirma!

Shtyover yerda yotgan Hoshimning tilka-pora yelkasiga cho'tka bilan yana o'xshatib soldi, asir o'kirib yubordi-yu, so'ng tinchib qoldi.

Osiyolik asirlar Hoshim tomon oshiqqan edi, soqchilar darrov miltiqlari og'zini ular va «hammomchi» yahudiylarga qaratdi.

Shtyover imo qilib, Hoshimga yelim ichak – shlangdan muzdek suv sepishni buyurdi.

Hoshim ko'zini ochdi, ingrab qo'ydi.

Muovin savol nazari bilan xo'jayiniga qaradi. Geynrix buyrug'i va uning ijrosidan mammun ilja-yib qo'ydi va yordamchisiga ma'qul degandek bosh irg'ab, maydondan nari ketdi.

– Ko'rdingmi, yahudiy, qanday yuvintirishni!  
– dedi u qo'lidagi cho'tkani Aleksga irg'itib. So'ng barcha «hammomchi»larga qarata: – Mana shunaqa ishqash kerak, uqdilaringmi, aks holda, o'zingizning teringizni shilib olaman!

Yahudiylar ishga kirishdi.

Aleks cho'tkani qattiq siqqancha chelakka botirdi.

Hoshim bir amallab o'rnidan turdi va yahudiyga boshla degandek bosh silkib, orqasini o'girdi.

– Aybga buyurma, – dedi ruscha shivirlab Aleks va Hoshimning yelkasini ishqalay boshladи. U o'zini go'yo Hoshimning yelkasiga cho'tkani botirib-botи-

rib ishqalayotgandek ko'rsatar, aslida, og'ritmaslik uchun uning uchini shunchaki tekkizib qo'yari edi. – Ertaga men senga biron-bir malham topib berishga urinib ko'raman.

Shtyover xo'jayinning amrini bajo keltirdi – uning ko'ngli to'ldi. Muovinga bundan ortiq nima kerak, boshqa «hammomchi»lar buyruqni o'zidan o'tkazib bajaradimi-yo'qmi, endi buning unga zarracha qizig'i yo'q.

Geynrix ish bo'lmasiga qaytganida jismoniy mashqdan so'ng egnidagi sport kiyimini hamon almashtirmagan Martin deraza oldida qimirlamay tashqariga qarab turgan edi.

– Martin! – dedi otasi asabiy baqirib. – Bu yerda bekorga qaqqayib turguncha nonushtangni qilib, muhimroq biror yumush bilan shug'ullansang bo'lmaydimi?

Martin sapchib tushdi.

– Dada, men shunchaki kuzatayotgandim, – dedi u o'zini oqlamoqchi bo'lib. – Ularni nima qilishyapti?

– Bularning isqirtiga qarab bo'lmaydi, shunga yuvintirishyapti, – dedi otasi.

U bir qadah konyak quyib, oromkursiga cho'kdi va o'yga cho'mdi.

Martinni qiziqtirgan savollar ko'p edi, lekin og'iz ochmadi, ko'rib turibdi, hozir dadasi gaplashadigan ahvolda emas. U kitobini ochib, o'qimoqqa tutindi.

Birozdan so'ng asirlarni «dorilash-emlash» ishlari yakunlandi, bola derazadan osiyoliklarning lampamoy sepilgan jandalari gurillab yonayotganini ko'rdi.

Osiyolik asirlar ham «qo'ra»dan – kimdir tishini tishiga bosib, yana kimdir unsiz yig'lab shu kungacha o'zini uyi bilan bog'lab turgan yagona qadrli narsasini gulxan xoinlarcha yondirayotganini kuzatmoqda edi. Ularning ko'zida g'am-alam bor edi, ammo qo'rquv sezilmasdi. Ayni chog'da o'zlariga hayvondan battar muomala qilayotgan, insoniylikdan, o'zligidan ayirmoqchi bo'lgan, yuragidagi yurtga bo'lgan muhabbat tuyg'usini yulib olmoqchi bo'layotgan fashist gazandalardan butun borlig'i bilan nafratlanishar edi.

## O'n beshinchi bob

O'zbeklar quruq yerning o'zida yotishardi. Tongga yaqin ancha salqin tushdi, sovuqdan eti junjikkan asirlar bir-birining pinjiga tiqilib oldi. Ba'zilar muk tushgan yoki yonboshlagan, ba'zilar ingrab-ihragan, yana kimlardir chala ochiq ko'zlarini qop-qora osmonga tikkancha qimirlamay yotibdi.

Hoshim tuni bilan mijja qoqmadi. U ham yuztuban yotibdi, qimirlashga holi yo'q. Havo sovuq

ekaniga qaramay, uning orqasi lov-lov yonmoqda, kecha Shtyover shilib tashlagan yarasi zirqirab og'rirdi. Atrof jimjit, faqat endi-endi uyg'onayotgan qushlar unda-bunda sayrab qo'yadi.

Amersfortda qush ko'p ekan, turi ham xilma-xil bo'lsa kerak. Qamoqxona hududida deyarli daraxt yo'q, faqat pastak butalar o'sadi. Qushlar xonishi yaqin atrofdagi o'rmondan kelardi. Hoshim bu o'lkaning tabiatи juda chiroyli ekanini allaqachon payqadi. To'g'ri, qadrdon Samarqandiga teng-lashtirib bo'lmaydi-ku, lekin o'ziga xos jozibasi bor – kuzak mahali bunda ham daraxtlar alvon va sariqqa burkanadi – xuddi kimdir erinmay ularni bo'yab chiqqandek.

Faqat bu yerning havosi birmuncha salqin, aksariyat vaqt sovuq shamol esib turadi. Samarqandda esa sentabr-oktabr oylari kunduzi havo deyarli issiq bo'ladi, kechga boribgina yoqimli salqin shabada esadi.

Hoshim uyi yaqinidagi chog'roq bog'ni ko'z oldiga keltirdi, u yerdagи bahaybat chinor va eman daraxtlariga tizilib olgan oqbo'yin bulbul va ko'kush saharlab xonish boshlar edi.

«Samarqand... Jonajon uyim... Uyga qaytish, peshonada bormikan?» Hoshim chuqur xo'rsinib, ko'zini yumdi.

Roppa-rosa soat yetti yarimda xuddi kechagidek birdan shang'illab qolgan tantanavor nemis marshi

jimlikni buzdi. To'siq ortida turgan Shtyover ham ovozi boricha:

– Turlaring! Shnel! Shnel! – deya baqirdi.

Yonida turgan Aleks de Leu muovinning buyrug'ini ruschaga tarjima qildi.

Odatdagicha o'n-yigirma chog'li soqchi «qo'ra»-ga kirib arang joyidan qo'zg'alayotgan asirlarni miltiq qo'ndog'i-yu kattakon yog'och so'yillar bilan urib tashqariga haydadi.

Asirlar shosha-pisha maydonga chiqdi, soqchilar yana ularni urib-surib bir qatorga tizdi.

Shuhrat bilan Ilhom Hoshimning qo'lidan ushlab o'rnidan turg'izishdi va suyab tashqariga olib chiqmoqchi bo'lishdi. Biroq Hoshim bosh irg'ab minnatdorlik bildirdi va yigitlar ko'magisiz chay-qala-chayqala o'zi chiqdi.

Aleks Hoshimdan ko'z uzolmay qoldi: uning ko'ylagi jiqqa qon bo'lib, orqasiga yopishib qolgan edi. «Eh shu yigitga qiyin bo'lди-da» dedi ich-ichidan unga achinib. Ammo sirtdan sir boy bermay Shtyoverning buyrug'ini so'zma-so'z tarjima qildi, lekin o'zidan ham ul-bul qo'shdi.

– Qimirlanglar, yigitlar! Tez, tezroq!

Bir necha daqiqa o'tib, mahbuslar maydonda besh nafar-besh nafardan bo'lib tizilishdi. Shu qadar ozib ketganidan kecha «dorilash» ishlaridan so'ng tarqatib berilgan eski golland harbiy libosi ularning egnida xuddi kosovga ilingandek hilpillab, osilib

turar edi. Boshmoq o'rniga klomp – eski, qo'poldan-qo'pol yog'och moyabzal berishdi.

Odatda, bunday oyoqkiyimni kambag'al golland dehqonlari kiyadi. Qalin jun paypoq bilan kiyilmasa, oyoqni shilib tashlaydi. Mahbuslarga berilgan yog'och choriq obdan kiyilganidan taglari yedirilib ketgan, xuldas, kiyguligi qolmagan edi. Ichi dag'allashib ketmag'anmi, sarpoychang kiyilgach, (asirlarda jun paypoq qayda!) tovonni urib, qonatib, zirapcha kirib azoblar edi. O'zi shundoq ham kechagi «dorilash» ishlaridan so'ng mahbuslar yuz-ko'zi-yu boshida yangi-yangi yaralar manaman deb turibdi.

Aleks de Leu Hoshimga qaradi: u novcha bo'lmasa-da, birinchi safning birinchi qatoridan joy olgan. Yuzi azobdan tirishgan, ammo nigohi o'sha-o'sha – o'tkir, ochiq, ma'noli edi. Aleks ich-ichida unga tan berdi: «Ha, bu yigit haqiqiy mard, jasur ekan! Kaltakning kattasi shuning boshida sindi, biroq boshqa asirlarning ko'zi unda, shuning uchun nafaqat nemislarga, hatto o'z yigilariiga ham ojizligini ko'rsata olmaydi, ko'rsatgisi kelmaydi!»

Shu vaqt darvoza tomondan mashina motori guvillashi eshitildi-yu, Aleks o'sha yoqqa o'girilib qaradi: bir yuk mashinasi chiqib ketyapti, haydovching yonida unter-zobit Alsher o'tiribdi.

Beso'naqay gavdasiga qolipdek tushgan kulrang-yashiltob libos kiygan Iogann Shtyover osiyolik mah-

buslar safi oldida odaticha qo'lida qamchi o'ynatib, u yoqdan-bu yoqqa borib-kelardi.

U allaqachon Aleksning me'dasiga tekkan tutu-riqsiz valdirashini boshlagan: buyuk Germaniya, sa-riq chaqaga qimmat xorijlik qullar, nemis armiyasi-ning yaqin kunlardagi g'alabasidan lof urardi. Alsher yo'qligi, qamoqxonada o'zi bilan o'zbek asir-laridan boshqa biror kimsa rus tilini bilmasligidan foydalaniib, Aleks de Leu biroz sarkashlik qilishi mumkin. Shuni o'ylab u miyig'ida kulib qo'ydi.

Bamaylixotir, vazmin qadam bosayotgan Shtyo-verning ortidan itoatkorona odimlar ekan, Aleks muovinning tomoq yirtgudek qichqirib aytgan gaplarini ham xotirjamgina tarjima qildi. Hatto Shtyover nutqining avj pallasini ham bamaylixotir bayon etdi:

– Manavi cho'chqa aytyaptiki, – dedi Aleks, – siz-lar «Untermenschen», ya'ni eng past irqqa mansub odamsiyoq maxluq ekansiz. Siz har kuni Buyuk Germaniya uchun ishlappingiz, yeydigan bir tish-lam noningizni ham halol mehnat qilib topishingiz kerak ekan!

Ba'zi osiyoliklarning yuziga sal-pal kulgi yoyil-ganini ko'rghan Aleks: «Shtyoverni cho'chqa dega-nim ularga yoqdi, o'zi rostdan ham cho'chqaga o'xshaydi-da bu», deya xayolidan o'tkazdi.

Hoshimning orqasi lov-lov yonar, u qanchalik harakat qilmasin, qotib tik turishga qiynalari edi.

U badaniga chippa yopishgan gimnastyorkasini iloji boricha sezdirmay tortib qo'ymoqchi bo'lди. Zora shu bilan sal yengil tortsa. Ammo butkul zavq-shavqqa to'la nutqqa berilib ketgan Shtyover hatto shuni ham darrov payqadi. Gapdan to'xtadi va Hoshimga tikilgancha g'iq etmay turib qoldi.

So'ng Hoshimning yaqinidagi soqchiga qaradi va qamchi bilan uni ko'rsatdi. Soqchi o'ylab ham o'tirmay qo'ndoq bilan qulochkashlab Hoshimning simillab turgan yelkasiga tushirdi.

Hoshim og'riqdan dodlagancha yiqildi – go'yo yelkasiga, ochiq yarasiga kimdir spirt sepgandek a'zoyi badani battar lovullab azob bermoqda edi.

## O'n oltinchi bob

Roppa-rosa soat sakkizda o'zbeklar yahudiy mahbuslar bilan birga qamoqxonadan uncha uzoq bo'lмаган очиқ конга боришди. Yahudiylarning ahvoli o'zbeklarga nisbatan tuzukroq edi. Ularning nigohidan yangi kelgan mahbuslarga achinayotganini payqash qiyin emasdi.

Har birining ko'ksida Aleks de Leuniki kabi olti-qirrali sariq yulduz – Yahudiy qavmiga mansublikni anglatuvchi nishon ko'zga tashlanib turibdi. Shu

nishonning o'ziyoq nemislar nazarida yahudiylar-ning gunohkor ekanini anglatardi.

Amersfort qamoqxonasida ishlab chiqarishga bog'liq barcha masalalarga Maks Ritter degan nay-nov, beso'naqay, doim shirakayf yuradigan bir arbaytsfyurer javobgar edi. Bugun ham erta tongdan undan araq hidi gupillab yotibdi, hatto soqchilar ham undan o'zini olib qochmoqda. Maks Ritter yana shunisi bilan mash'hur ediki, boshqa zabitlarga o'xshab u soqchilarga buyruq berish bilangina kifoyalanmasdi, mahbuslarga qolganda, arzimagan bahona bo'lsa bas, bemalol mushtiga erk berib yuboraverardi.

U uchun qarshisida kim turganining – yahudiy-mi, o'zbekmi, o'rismi mutlaqo farqi yo'q edi. Ular-ning bari bir go'r – odam emas, hayvon, maxluq. Shu sabab Aleks Hoshimni o'ziga sherik etib tanla-ganiga u e'tibor ham qilmadi.

Kondagi ish o'lgudek og'ir edi. Mahbuslar og'zi-burni barobar tosh, qum yoki shag'al to'ldirilgan kattakon yog'och qutilarni bu yerdan qamoqxonaga tashishi kerak. Ritter va soqchilar ularni qat'iy nazarat qilib turadi. Limmo-lim to'ldirilgan bir g'ildirakli yog'och aravani bilq-bilq qum yo'lak-dan tortib ketish chekiga tushganlarga ham oson tutib bo'lmasdi. Bu ishdan «qutulib» qolganlar esa daraxt arralashi yoki kurak va lom yordamida, ba'zan shunchaki qo'lda to'nka qazir, xoda hamda shox-butoqlarni qamoqxonaga tashib borar edi.

Tajribali Aleks o'zi bilan Hoshimga birmuncha yengilroq ish olishga muvaffaq bo'ldi – ular yiqitilgan kattakon daraxtlarni hechqursa to'rt kishilashib ko'tarsa bo'ladigan xoda qilib arralashi kerak. Bundan tashqari kattakon daraxtlar ularni soqchilar ko'zidan pana qilib turadi.

Joni og'rib turganiga qaramay, Hoshim ishdan bo'yin tovlamadi. Sherigi arra tortishga usta ekanini payqagan Aleks ichida xursand bo'ldi. Demak, ular bugungina emas, boshqa kunlar ham shu ishni qilaverishi mumkin. Bu degani anavi Ritter ham ularga ortiqcha tird'almaydi.

Ammo biroz ishslashgach Hoshimning shاشти pasaydi, u tez-tez to'xtar, ko'zini yumib tin olar edi. Aftidan, ishlab terlagach, ko'y lagi orqasiga yopishib, go'shti chiqib yotgan yarani achishtirib, azob bermoqda edi.

Aleks de Leu o'zlariga yaqinroq turgan soqchiga qaradi – bu mallatob yigitni u hech qachon jahl otiga mingan ahvolda ko'rmagan. Biron marta uning zabit buyruq berishi bilan qiltiriq, nimjon mahbuslarning qoqsuyak yelkasiga qo'ndoq bilan tushirishga oshiqqanini ham eslolmaydi.

– Mumkinmi! – dedi Aleks barmog'ini baland ko'tarib.

Mallatob unga qo'l to'lg'adi: beriroq kel.

– Janob askar, – deya gap boshladi yaltoqiroq ohangda Aleks, – ruxsat etsangiz, do'stim gim-

nastyorkasini yechib ishlasa? Yarasiga ham malham surtib qo'ysammi degandim...

Soqchi unga taajjub bilan tikildi, biroq Aleks og'iz ochishiga ham fursat qoldirmay, o'ng kissasi-dan naysimon qog'oz chiqardi va uning uchini och-di: bu ellik reyxsmarka edi. Soqchi atay yahudiyga qaramay, miq etmay undan pulni oldi va cho'ntagiga tiqdi, tezgina bosh silkib o'zi nariroq ketdi: Aleks bilan Hoshimni boshqa soqchilardan sal bo'lsa-da pana qilib turdi.

Aleks Hoshimga ko'ylagini yechishga ko'mak-lashdi. Uning badani yelkasidan to beligacha bir tekis shilingan, tag'in uzunasiga tilim-tilim chuqur yara izi qolgan edi. Yahudiy chap cho'ntagidan xatjildga solingan kichkina qog'ozxaltacha oldi va uni ochib Hoshimning yarasiga oq kukundan sepa boshladi.

– Bu – streptotsid, dori, – dedi u shosha-pisha.  
– Yiringlashning oldini oladi. Sal bo'lsa-da, yengil tortib qolasan...

Hoshim minnatdorona bosh silkib qo'ydi. Uning nigohida hayrat ko'rgan Aleks:

– Hayron bo'lyapsanmi? – dedi jilmayib. – Hat-to shu jahannamda ham pulga oz-moz ish bitirsa bo'ladi. Tilla va tamaki evaziga ham... To'g'ri, har qanday xohishimizni emas... – U Hoshimning qu-log'iga engashibroq shipshidi: – Shu gapimni esda tut, sheriklaringga ham uqtir – hech biringizni tibbiy bo'limning karavotiga tushgulik qilmasin! Joningiz



ming azobda qolsa-da, chidang, sabr qiling. Ishqilib o'sha yoqqa bormang. U yerda shifokor emas, naq qassob ishlaydi. Uning qo'lidan hali biror odam tirik chiqmagan...

Hoshim ma'qul deya bosh irg'adi. Soqchi bular tomon xavotir-la qarab-qarab qo'yayotganini ko'rib ular yana qo'liga arra oldi. Rostdan ham og'riq biroz qoldi va ular yana ishga kirishdi. Arra tortaturib gaplashish qulay: birov bularning gapini eshitmaydi.

– Mening ismim – Hoshim.

– Men esa Aleksman.

– Bu yerda qanday chidayapsizlar?

– Ko'nikdik... Moslashdik... men bu yerga birinchi bo'lib tushganlardanman... Ammo sizga qoyil qoldim... O'zingizni mardona tutayotirsiz... Ko'rini turibdi, yigitlaringiz ham sizga ishonadi, sizga suyanadi.

– Qamoqqa nima qilib tushib yuribsiz o'zi?

– Men golland kommunistlarining yo'lboshchisi edim...

Hoshim hayratlanib unga qaradi, hatto arra tortishdan to'xtadi. So'ng Aleksga qo'l uzatdi.

– Rahmat, do'stim!

Aleks uning qo'lini siqdi.

– Sizlar qayerliksizlar? Uzr-a, qiziquvchanligimni aybga buyurmang... biroq mutlaqo rus askarlari ga o'xshamaysizlar...

– Biz asli o'zbekistonlikmiz... – dedi Hoshim. – U – O'rta Osiyodagi bir mamlakat. Samarqandda tug'i-lib o'sganmiz... Bizni Smolensk frontiga jo'natishdi... Keyin esa iskanjaga tushib qoldik. Bizni to'g'ri shu yoqqa olib kelishdi...

Hoshim birdan jim bo'lib qoldi. Ular biroz lom-mim demay arra tortishdi, lekin Aleks Hoshimdan ko'z uzmadi. Ha, ko'rinib turibdi: malhamdan biroz yengil tortdi u.

– Qamoqxonada mahbuslar ko'pmi? – deb so'radi Hoshim.

– Sizlardan tashqari yana ikki yuztacha odam bor... asosan kommunistlar... golland va yahudiy-lar. Bir qanchasi savdo-tijorat ishi bilan tushganlar... Yana kimlardir bezoriligi uchun o'tiribdi. Sizlar kel-guncha bu qamoqxonada eng ko'p xo'rlik ko'rgan biz – yahudiylar bo'lamic.

– Ha, aytgancha, bilmaysizmi, bir yosh bolaga ko'zim tushdi, u bu yerda nima qilib yuribdi?

– Umi? Komendantning o'g'li... sizlar kelgan kun paydo bo'lib qoldi... aftidan, Valter Geynrix uni be-jiz olib kelmagan, biror sababi bo'lsa kerak... – Aleks atrofga alanglab oldi, hech kim kuzatmayotganiga amin bo'lgach: – Qo'lingizni bering, – dedi.

Hoshim qo'lini uzatdi, Aleks unga nimadir tutqaz-di. U kaftini ochib qaradi: bu o'sha – jippi gil qushcha!

– Adashmasam, bu sizniki... Tezroq cho'ntakka tiqing.

Hoshim qo'li ko'ksida, «rahmat» dedi. Aleks tomon egilib shivirladi:

– Kam bo'l mang, aka... Buni qaytib ko'raman deb umid ham qilmagan edim.

– Siz uchun juda qadrli narsa, shekilli.

– Shunday, – dedi Hoshim, – buni o'g'lim Temur yasagan.

Tabiiyki, Aleks yangi topgan do'stining ko'zida yosh miltillaganini payqadi.

## O'n yettinchi bob

Zil-zambil yog'och aravaning omonat g'ildiragi tinmay yumshoq qumga tiqilib to'xtab qolar, og'zida ikkita tilla tishi yiltirab turgan bo'yи pastroq, nimjon yigitcha har gal bor kuchini ishga solib uni yurgizar, ammo besh qadam yurar-yurmas arava yana tiqilib, hammasi boshdan boshlanar edi. Tillatishning sheri-gi – undan kuchli va epchilroq yigit do'stiga yengil bo'lishi uchun aravani iloji boricha to'ldirmay yuklar edi. Shunga qaramay arava har safar qumga tiqilardi.

Arbaytsfyurer Maks Ritter har bir soqchi va mahbusni birma-bir kuzatishga ulgurmasa-da, bir qaraboq qayerda nima bo'layotganini darrov fahmlar edi. Bu gal tillatish yigitning aravasi kelib-kelib nay-nov arbaytsfyurer oyog'ini kerib gerdayib turgan joy yaqinida tiqilsa bo'ladimi.

Zildek arava bilan omonsiz «jang»da bor kuchini boy bergen och-nochor yigitning tizzalari bukilib-bukilib, qo'llari qaltirab ketardi. Shag'al to'la aravani tekis, ravon emas, qumi bilqillama yo'lakdan itarish u yoqda tursin, yigitning o'zi arang qimir-layotgan edi.

Maks Ritter tillatish asirning chiranishlarini obdan ser solib kuzatdi. Aksiga olib, yigit bu gal aravani joyidan jildira olmadi. «Ha, bu osiyolik maxluqqa ozroq «saboq» berib qo'yish kerak chog'i», dedi o'ziga o'zi naynov. U yonginasida turgan soqching qo'lidan miltig'ini olib bor kuchi bilan tillatishning choviga tushirdi.

Asir ikki qo'llab chovini changallab, dodlagancha tizzalab qoldi. Ritter masxaraomuz ishshayib, endi tillatishning naq jag'iga qo'ndoq bilan quloch-kashlab urdi. Bu gal yigit yer tishlab qoldi, og'zi-burni qop-qora qonga to'ldi.

Bu yerdan ellik qadamlar narida shag'al uyumi yonida turgan tillatishning sherigi qo'lidagi kurakni otib yuborib, do'sti cho'zilib yotgan tomon qarab chopdi.

– Urmang! Urmang uni! – derdi u tinmay yalin-gudek bo'lib.

Lekin yigit o'n qadam ham bosmay yuztuban tushdi va og'riqdan dodlab yer changallab qoldi. Uning orqasiga kurak kelib qadalgan edi. Umurtqasini kesib yuborayozgan uchi nayzadek bu kurakni

bilagi kuchdan yorilay deb turgan barzangi soqchi Frits otgan edi.

Bu tomoshalardan arbaytsfyurer Ritter huzur qilmoqda edi chog'i. U miltiqni dast ko'tardi, so'ng qo'ndog'i bilan yerda qimirlamay yotgan tillatish yigitning boshiga ayamay ura boshladi. Har gal qo'ndoq yigitning boshiga tushganda Ritter yovvoyi tuyadek o'kirar edi:

– To'ng'iz, ishlamaysanmi hali? Harom qotgur!

Barzangi Frits ham «o'ljas» yotgan yerga lapanglab bordi-da, Ritterga o'xshab yigitni qo'ndoq bilan ura ketdi.

O'zbek mahbuslar ishini tashlab, do'stlari tomon yordamga oshiqqan edi, soqchilar baravar ularga qarata miltiq o'qtaldi. Boshlari uzra yog'ilgan o'q yomg'iri, bir hamlada tilka-pora qilib tashlashga shay turgan ovchi itlar asirlarni to'xtatib qoldi.

Ular ikki begunoh do'stini vahshiylarcha o'ldirayotganlardan ko'z uzmay qarab turar, ammo qo'llaridan hech vaqo kelmasdi. Bilishardiki, qimirlagudek bo'lishsa, soqchilar o'ylab o'tirmay otadi-qo'yadi.

Hoshim baqir-chaqir-u otishma ovozini eshitib, arrani tashlab sapchib o'rnidan turdi. O'z yigitlari ni itdek kaltaklab o'ldirishayotganini ko'rib chidab turolmay o'sha yoqqa xezlangan edi, Aleks uning bilagidan mahkam tutdi – yahudiy nimjon ko'rингани bilan kuchli ekan. Hoshim unga o'qrayib qaradi va qo'lidan yulqinib chiqmoqchi bo'ldi.

– Meni qo'yib yubor, Aleks!

Biroq Aleks uning qo'lini bo'shatish o'rniga battar yopishib oldi.

– Menga qara, – dedi u. – Endi kech, ularga yordam berolmaysan, aksincha, sog' boshingga g'avg'o sotib olasan. Hoshim, qolgan yigitlaringni ham o'yla, sen ularga keraksan!

Aleksning shu gapi Hoshimni to'xtatib qoldi.

Arbaytsfyurer Ritter tillatish yigit qimirlamay yotganiga ishonch hosil qilgach, nihoyat tinchlandi.

Cho'ntagidan oppoq dastro'mol chiqarib avval ter bosgan peshonasini, so'ng qon sachragan uzun-uzun barmoqlarini hafslala bilan artdi. Sal nariroqda chalajon yotgan asir – tillatishning sherigiga bir qarab olgach, shu atrofda angrayib turgan to'rtta yahudiyga ko'rsatkich barmog'ini birma-bir bigiz qildi va xuddi shu barmog'i bilan ularga qimirlamay yotgan osiyoliklarni ko'rsatdi.

– Tibbiy bo'limga, doktor Van Niuenxeyzenga olib boring! – deb amr qildi u. Negadir yupqa lablari qiyshayib ketdi.

Hoshim Aleksning doktor haqida aytgan gapini esladi va ko'zlari qinidan chiqqudek bo'lib unga qaradi. Aleks bosh chayqadi: endi foydasi yo'q. Xuddi o'zi aybdordek Hoshimdan nigohini olib qochdi.

O'zbeklar shu tarzda yana ikki nafar og'aynisdan judo bo'lди...

## O'n sakkizinchchi bob

...Dadasi qamoqxonada yo'qligida Martin uning ish bo'lmasida dars tayyorlar va shu yerning o'zida ovqatlanib qo'ya qolar edi. Bolaga shu yer ma'qul edi – kattakon xonada u o'zini xuddi katta odamdek his qilardi. Dadasi ham o'g'lining ish bo'lmasida dars tayyorlashiga qarshi emas, aksincha, bu uning tarbiyasiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi deb hisoblardi.

Martinning bugungi «ish kuni» ham u qamoqxonaga kelgandan buyon o'tgan kunlardan deyarli farq qilmasdi. To'g'ri, bugun kechki soat yettida u otasi bilan radiodan fyurerning jonli efir orqali uza-tiladigan nutqini tinglashi kerak. Valter Geynrix bu eshittirishni o'ta muhim bir voqeadek ulkan ishtiyoq bilan kutayotgan edi.

Uning tantanavor kayfiyati Martinga ham yuqdi. Lekin u otasi qayta-qayta qulog'iga quygan gapni bir on bo'lsin unutmaydi: Buyuk Germaniyaga munosib o'g'il bo'lib ulg'ayish, buning uchun tirishqoqlik bilan o'qib-o'rghanish – hozir uning oldida turgan eng katta vazifa!

Dadasining charm oromkursisiga yastanib ol-gan Martin avvaliga «majburiy ro'yxat»dagi kitoblardan birini o'qidi, keyin esa matematika darsligini

ochib misol va masalalarni yecha boshladi. Sonlar-u sanashni yoqtirgani bilan u mакtabda ham bu fanni uncha xushlamasdi. Shu bois vaqtı-vaqtı bilan kitob-daftardan bosh ko'tarib, derazadan «qo'ra»ga ko'z tashlab qo'yardi. Kechgacha u yerda hech kim bo'lmasligini Martin biladi, lekin aytib bo'ladimi, balki biror... Yo'q, u kutgan hech nima sodir bo'lmadı: bir-ikkita mahbus maydon va yo'laklarni supuryapti, o'ntachasi yangi barak qurilishi bilan ovora. Martinning hisobiga ko'ra, bu oltinchi barak edi, shekilli.

Umuman olganda, hammasi o'sha-o'sha, odatdagidek. Buning ustiga, hozir ularni bemalol kuza-tib o'tirishga Martinning vaqtı ham yo'q: u bor kuch-g'ayratini ishga solib, imtihonlarga tayyor-lanyapti. To'g'ri, osiyolik mahbus tanishi bir on bo'lsin Martinning xayolidan chiqqani yo'q. Ish-dan qaytgan mahbuslarga ovqat tarqatilayotganda bir-ikki marta derazadan unga ko'zi tushdi.

Bola o'zicha asirlar mehnatiga yarasha qorin to'ydiryapti deb xursand ham bo'ldi. Ularning yemishi bor-yo'g'i bir kunda bir marta beriladigan suv bilan suyuq yovg'on sho'rva ekanini u qayoqdan ham bilsin.

Xo'jalik bo'linmasi askari Martinning oldiga bir necha bo'lak dudlangan go'sht bilan karam dimlama solingan taqsimchani qo'yib, poshnasini do'qillat-gancha eshikni yopib chiqib ketdi. Negadir bolaning

ishtahasi bo'g'ildi. U ovqatdan bir-ikki cho'qilagan bo'lди. Ko'zлari o'z-o'zidan yumilib ketaverdi, birozdan so'ng u oromkursining yumshоq tirsagiga bosh qo'yib mudrab qoldi.

Bo'lмага kirgan dadasi uni shu ahvolda ko'rib:

– Martin! – dedi jahl bilan.

Bola sapchib tushdi va sakrab o'rnidan turdi.

– Qog'oz-qalam ol, hozir eshittirish boshlanadi! – dedi buyruq ohangida Geynrix.

Uning stoli ustida bir dasta qog'oz va uchi o'tkir qilib ochilgan bir nechta qalam yotardi. Dadasining o'zi tinmay soatiga qarar, qattiq hayajonda ekanini sezish qiyin emas edi.

– Hozir fyurer gapiradi! – dedi u yana soatga ko'z tashlab. – Menga qara, diqqat bilan eshit, xo'pmi!

– Xo'p, dada, – dedi Martin itoatkorlik bilan otasining stolidan bir nechta qog'oz bilan ikkita qalam olib.

U otasining stoliga tutash qilib qo'yilgan uzun majlislar stoliga o'tib o'tirdi.

Geynrix devorga – fyurerning portretiga zavqlanib tikildi va radiopriyomnik qulog'ini asta buradi. Xonani radiokarnayning odamni nogoh cho'chitib yuborguvchi shig'irlashi tutib ketdi. Geynrix uni kerakli to'lqinga sozladi. So'ng oromkursiga yastanib ko'zlarini yumdi. Bir necha soniya o'tib Hitlerning chinqiroq ovozi quloqlarni qomatga keltirdi – eshittirish boshlandi.

Geynrix hamon ko'zini yumgancha o'tirar, dambadam fyurerning gapini tasdiqlab, bir maromda bosh irg'ab qo'yardi. Bir-ikki marta ko'zini ochib, qog'ozga allanimalarni yozdi, biroq o'g'liga biron marta qaramadi.

Dadasini kuzatib o'tirgan Martinning qulog'iga fyurerning dabdabali nutqi kirmadi. Bu bir zerikarli, balandparvoz so'zlar jamlanmasidek tuyuldi unga. Xo'sh, Martin uning qaysi gaplarini yozib oladi?

U qalamni tishlagancha o'tirdi-o'tirdi-da, keyin allaqanday handasaviy shakllar chizishga kirishib ketdi. Bir vaqt nimadir esiga tushgandek devordagi soatga qaradi: olti bo'libdi. Aynan shu soatda osiyolik mahbuslar kondagi ishini yakunlab, qamoqxonaga qaytadi.

Martin otasiga qarab oldi-da, sekin joyidan turib oyoq uchida deraza yoniga bordi. Qamoqxona hududini yoritib turgan chiroqlar shu'lasida u birbirini suyab arang qadam bosib darvozadan kirayotgan osiyolik mahbuslarni ko'rди.

Soqchilar ularni darrov «qo'ra»ga haydadi. Tinkasi qurigan, och, madorsiz asirlar o'zini tappa-tappa zax yerga tashladи. Biroq shu vaqt osmondan tushgandek «qo'ra»ga soqchilar bostirib kirib so'yil va qo'ndoq bilan ularni savalay ketishdi. Nima bo'layotganini tushunmagan osiyoliklar qo'llari bilan boshini to'sib himoyalanishga urinishardi.

– Martin! – Geynrix Valterning qahrli ovozi tashqarida bo'layotgan «tomosha»ni achinish bilan kuzatayotgan bolaning kapalagini uchirib yubordi.

Kechirilmas gunoh ustida qo'lga tushgandek uning ko'zлari qo'rquvdan kattayib ketdi.

– Martin! – deb qichqirdi dadasi battar fig'oni falakka chiqib. Qo'lida boyta Martin allanimalar chizib o'tirgan qog'oz. – Bu nima? Sendan so'rayapman? Bir jumla ham yozib olmabsan-ku! Balki umuman tinglamagandirsan, a, gapir!

G'azabdan ko'karib ketgan qamoqxona boshlig'i qo'lidagi qog'ozni g'ijimlab irg'itib yubordi.

– Men... men tingladim... shunchaki... nimani yozishni bilmadim.

– Bilishimcha, seni anavi maxluqlar ko'proq qiziqtiryapti, to'g'rimi? – dedi Geynrix deraza yoniga kelib.

Dadasining dag'dag'asidan bolaning oyoq-qo'li qaltirab ketdi, lekin shunda ham:

– Yo'q, unday emas, biroq ularni nega yana kaltaklashyapti, shuni bilmoqchi edim, – dedi.

Geynrix o'g'liga yeb qo'ygudek qaradi va jahl aralash:

– Menimcha, sen bilan bu haqda gaplashgan edik shekilli! Yana bir marta qaytarib aytaman – sen, birinchi navbatda, astoydil o'qib «Gitleryugend» sinnovidan o'tishni, kelajakda Faterlandning haqiqiy himoyachisi bo'lib yetishishni o'ylishing kerak!

– Bilaman, dada, shunga harakat qilyapman-ku!  
Biroq baribir...

– Men senga avval ham aytganman – g'oliblar  
doim mag'lublarni kaltaklaydi! Kuchlilar esa ojizlar-  
ni! Bu – hayot haqiqati, qonuni! Sen agar o'qishing  
lozim bo'lgan kitoblarni e'tibor bilan o'qiganing-  
da menga bunaqa ahmoqona savollar bermagan  
bo'larding! – dedi Geynrix chuqur xo'rsinib. – Endi  
esa xonangga jo'na! Hozir senga aytgan gaplarimni  
yaxshilab o'ylab, mana bu xom kallangga quyib ol,  
bola!

## O'n to'qqizinchi bob

Shtyover qo'l ko'tarib «qo'ra» ichida asirlarni kaltaklayotgan soqchilarni to'xtatdi:

– Bo'ldi, bas! – Keyin mahbuslarga qarab qichqirdi: – Turlaring!

Osiyoliklar inqillab-sinqillab o'rnidan turdi.

– Poyabzallar yechilsin! – deya amr qildi untershurmfyurer.

Shtyover bilan Ritterning ikki yoniga tizilgan o'n-yigirmatacha soqchi «qo'ra»ga kirishga shay – buyruq kutishardi. Ularning yonida uchtalab mergan turibdi: muovinning buyrug'iaga itoat etmagan asirning miyasidan darcha ochishga shay turishardi.

Aleks de Leu Shtyoverning chap tomonida, uning og'zidan chiqqan gapni tarjima qilardi.

Qorovulkxona minorasidagi chiroqlar yoqilib, atrofni xira shu'la yoritdi.

Shtyoverning buyrug'i bilan asirlar uch qator bo'lib saflanishdi. Muovin ikki buklangan qamchi dastasini kaftiga urib, oyoqda arang turgan asirlar safi bo'ylab u yoqdan-bu yoqqa borib kela boshladi. U qo'li bilan ishora qilib tekislanishni buyurdi. Askarlardek qotib turishga holi kelmayotganlarning yelkasi osha ko'kragiga qamchi tushirib, toki

qaddini tik tutib, buyruqni bee'tiroz bajargunicha kutib turdi.

Uning ortidan boshini eggancha odimlayotgan Aleks osiyolik asirlarga ich-ichidan achinmoqda edi. Bu qanchalik dahshatli jazo ekanini, bugun ular yana bir sherigidan ayrilishi hech gap emasligini bilardi u. Qani endi, ovozi boricha o'zbeklarga qimirlamay turinglar deb baqirsa, lekin buning iloji yo'q.

Shtyover bilan Aleks Hoshimning qarshisiga kelganda bir on turib qoldi. Muovin tirg'alishga tayinli bahona topolmagach, yana yura boshladi. Shu tarzda uch daqiqa safning boshidan oxirigacha borib qaytishdi-borib qaytishdi.

– Bugun sizlar yana ayb ish qildingiz, – dedi biroz o'zini bosib olgan Shtyover. – Arbaytsfyurer Ritter menga hammasini aytdi. Shu bois qamoqxona boshlig'i herr Valter Geynrixning buyrug'iga ko'ra, sizlar toki birontangiz birinchi bo'lib joyingizdan qimirlamaguncha mana shunday turasiz. Sizlarga jazo – shu! Buyruqni buzgan asir shu zahoti miyasidan o'q yeysi. Bunga shubha qilmang. Salgina qimirlaganingiz ham e'tibordan chetda qolmaydi. Yer loy, oyoq izingizdan bilish qiyin emas. Sen esa, – dedi u Aleksga o'girilib, – endi daf bo'l, ko'zimga ko'rhma!

Aleks barakka kirdi, lekin darrov kichkina darchaga yugurdi va tashqarini kuzata boshladi.

O'zbeklar qotib turibdi, hatto kiprik qoqmaslikka tirishardi. Sovuq ularning jon-jonidan o'tib ketdi, oyoq-qo'llari to'ngib, uvishib, akashak bo'lib qoldi. Ularning bir-biriga yordami – yelkama-yelka turgani, shu tariqa soqchilarga sezdirmay kuchdan ham umiddan ayrilib, yiqilay deb turgan sherigini suyab qoladi. Asirlar o'zi uchun emas, do'sti uchun shundayin xo'rliklarga sabr qilishga majbur edi. Chunki o'tgan kunlar mobaynida ular bir-biriga aka-ukadek qadrdon bo'lib ketgan edi.

Oradan ikki soat o'tdi, mahbuslarning madori qolmadi. Ularning yuzimi-burnimi tinmay qichi-shar, tizzalari xoinlarcha bukilib ketar, butun tanasi gardanidan tortib tovonigacha uvishib go'yo birovnikidek o'ziga bo'ysunmas, yalang oyoqlardan o'tgan sovuq o'rmalab a'zoyi badanini egal-lagan edi. Endi bu begona tanani boshqarish, qimirlamay turishga majbur etish mutlaqo imkonsiz edi.

Merganlar tozi it kabi ana-mana deguncha nishonga olinajak o'lja ham paydo bo'lishini sezgandek miltiqlarini shaylaydi. Nihoyat, uch soat o'tganda birinchi qatorda – Hoshimdan sal narida turgan ozg'in yigitchaning darmoni quridi. Safdosh do'stlarining yelkasi ham uni suyab qololmadi.

Asir yerga uzala tushib ulgurmay boshiga nemis merganining o'qi kelib tegdi. Yigit bir qalqib yiqildi. Ko'z o'ngida sodir bo'lган bu vahshiylikdan asirlar

dahshatga tushdi, nigohlari nafratga to'ldi. Ba'zilarining mijjasи namlanib, chang, kir yuzini ko'zyoshlari yuvib tushdi. Qoidani buzib «qimirlab» qo'ygan yigitcha otib o'ldirilgach, qay go'rdandir Shtyover paydo bo'ldi.

– Erkin! – deya amr etdi u nemischalab, qo'li bilan ham imo qilib. Birozdan so'ng yaqinroqdagi barakdan ikkita yahudiyni haydab kelishdi. Ular asir yigitning jasadini tibbiy bo'limning o'likxonasiiga olib ketdi.

Bu «vahshiy tomosha» nihoyasiga yetgach, barak darchasidan qarab turgan Aleks de Leu ixchamgina yondaftarini olib unga bir nimalarni yoza boshladi. Bu vaqtda barakdagи aksar mahbuslar uqlab qolgan edi.

## **Yigirmanchi bob**

Bu tun asirlar ko'ngli misoli sim-siyoh, buning ustiga, har kungiga nisbatan ayozliroq edi. O'zbeklar odadagidek zax yerda yotar, sovuq suyak-suya-gidan o'tib, shundoq ham uvishib, to'ngib qolgan tanasi tarashadek qotgan, sal bo'lsa-da, isinarmikanman degan ilinjda ular bir-birining pinjiga tiqilib olgan. Tanasining ana shu bir-biriga tegib turgan

qismigina isigandek tuyular, a'zoyi badanini tutgan titroqni salgina unutishga yordam berar edi.

«Qo'ra»ning chekkarog'ida Hoshim, Ilhom va Shuhrat boshqalar qatori bir-birining pinjiga suqilib yotishibdi.

Bir vaqt Hoshimning orqasidan Ilhom pichirlab gap boshladi:

– Hoshim aka, bu ablahlarning maqsadi nima o'zi? Bizga ovqat bermasa, ochiq havoda – yomg'ir ostida yotsak!

Ilhomning orqasidan Shuhrat ham boshini ko'tardi:

– Hoshim aka, shu bir necha kun ichida biznikilardan to'rttasini o'ldirishdi! Nimadir qilmasak, qandaydir chora ko'rmasak bo'lmaydi. Bu ketishda birin-ketin barimizni gumdon qiladi bular! – dedi.

– Shuhrat, – dedi yigitlar tomon sal o'girilib Hoshim, – bilaman, sen irodasi kuchli yigtsan, lekin oramizda qat'iyatsiz, bo'shroq bolalar ham bor. Aslida, ular ham fashistlardan sen kabi nafratlanadi, lekin qiyinchiliklarni yengishga ojiz. Shu yigitlarni albatta qiyinchiliklarni yengib o'tamiz, bu jahannamdan qutulib ketamiz, deb ishontirish kerak. Bizing vazifamiz – ularni qo'llab-quvvatlash, ularga kuch, dalda berish. Biz bu yerdan qutulishning bিrор yo'lini topamiz, albatta! Hozir esa yotib uplashga harakat qilinglar! Ayni chog'da bizga eng yaxshi malham uyqudir!

Hoshim aytgan gaplar yigitlarni ozmi-ko'pmi xotirjam etdi chog'i, ko'p o'tmay uxlab qolishdi. Yigitlarning diydiragan tanasi shivalay boshlagan kuz yomg'irini go'yo sezmayotgandek edi, ular bir-birining pinjiga battar tiqilib uxlab yotishardi. Tinka-madori qurigan bu sho'rliklar faqat mo'jiza ro'y berib, bir kun qutulib ketishga umid qiladilar, xolos. Boshqa nima ham qilishsin?

Ehtimol, shu kecha qamoqxonada mijja qoqma-gan yagona odam Hoshim bo'lgandir. Yuziga arining nishidek urilayotgan yomg'ir tomchisi emas, oxir-poyoni yo'q o'y-xayollar sabab edi bunga.

Umididan ayrilgan shu yigitlarga u qo'mondon, aka, maslahatchi bo'lib qolmadimi?! Shunday ekan, ularga dalda berib ruhlantirish, bu azoblarga chidash, har qanday sharoitda ham inson bo'lib qolish lozimligini u, avvalo, o'zi ibrat bo'lib ko'rsatishi kerak. Agarda shu yigitlar uchun jonini qurbon etish lozim bo'lsa, u buni hatto o'ylab ham o'tirmaydi.

Jangchilarining yarmidan ko'pi endi o'n sakkizga qadam qo'ygan navnihol yigitchalar edi. Ular hali hayot nima ekanini bilmaydi, past-balandni ko'rmagan, sevgi atalmish totli tuyg'uni boshdan kechirmagan, oila qurmagan bo'z bolalar edi...

«Biz bir yo'lini topamiz» derdi Hoshim o'ziga o'zi. Ungacha esa o'zigagina ishonib yashayotgan mana shu qorako'zlar uchun ham barcha qiyinchiliklarga chidashi kerak. U bir narsaga amin – agar

bu yerdan qutulolmay ajal bilan yuzma-yuz kelish peshonada bo'lsa, ota-bobolari kabi qo'rqlmay o'limga tik boqadilar. Ular kimning avlodi, axir? Ehtimol, balandparvoz, quruq gap tuyular, biroq mard, mu-zaffar fotih buyuk Amir Temur avlodi emasmi?!

Hoshim maktabni, o'quvchilarini esladi – darsda necha marotaba bu benazir zot haqida bolalarga gapirib bergen. Ha, shu buyuk sarkardani, uning qahramonliklarini yodga olish fursati yetibdi. Yigitlarda jasorat uyg'otishning birdan-bir yo'li shu edi!

– Temur, – dedi pichirlab Hoshim ko'zini yumar ekan. U o'g'lini o'ylay boshladи. Shu buyuk hukmdor sharafiga yolg'iz surriyotiga Temur deb ism qo'ygan edi. U bilan diydorlashish, qanday ulg'ayayotgani, yigit bo'layotganini ko'rish nasib etarmikan...

Xayollar ummonida suza-suza Hoshimning ham ko'zi ilindi.

## **Yigirma birinchi bob**

Yarim tunga borib shamol kuchaygandan-kuchayib qoq yerda yotgan sho'r peshonalarning ustiga yomg'ir chelaklab quyib yubordi. Yer ham tekis emas, o'nqir-cho'nqir edi, har yer-har yer halqob-halqob suvgaga to'ldi. Zax va sovuqning zo'ridan

asirlarning tomirlari tortishib, oyoq-qo'li akashak bo'lib, suyak-suyagigacha takillab qoldi.

Nemis zabit va askarlari kecha kechqurunoq qalin shinellarga o'ranib olishgan. Kuzatish joyida turgan soqchilar esa shinel ustidan rezina yomg'irpo'sh ham kiyishgan. Shuncha qalin kiyinsa-da ular sovuq va rutubatli havodan allanechuk lanj tortgan – qimirlashga ham erinmoqda edi. Soqchi itlarning-ku, oshig'i olchi, bunday yog'in-sochinli havoda ularni issiq, quruq xonalarda saqlashadi.

O'choq-pechi yo'q, isitilmasa-da, Gollandiyaning sovuq havosidan ozmi-ko'pmi pana tutuvchi barakkarda yotgan asirlar tashqarida – ochiq «qo'ra»da yotgan tutqunlarga qattiq achinar edi. Hatto har baloga aqli yetadigan Aleks de Leu ham o'ylab o'yiga yetolmas edi: nega osiyoliklarni bunchalik tahqirlashyapti. Bugun u shunga amin edi: bundayin ayozli tunda aksar o'zbeklar muzlab qolishi tayin. U ichida o'zbek asirlarni duo qila boshladi. Chunki al-laqachon ularning metin irodasi va mardligiga qoyil qolgan, ularga hurmati oshgan edi.

Osiyolik mahbuslar yomg'ir ostida ivib yotgan bir paytda qamoqxona boshlig'inining issiqliqina, shinanmgina oshxonasida, to'kin dasturxon atrofida Valter Geynrix, Iogann Shtyover, Maks Ritter va Nikolas Van Niuenheyzen ovqatlanib o'tirishar edi. Avvaliga ular Martinni uyg'otib yubormaslik uchun sekin gaplashishdi, biroq kechasi soat ikkilarga

borib xiyla kayfi oshgach, qimor o'yiniga berilgandan-berilib, bola ham esdan chiqib, baqir-chaqir qilib qolishdi.

Ritterning bugun omadi chopmadi: arbaytsfyurer bo'lar-bo'lmasga ganakni oshirgach, xato ustiga xato qildi va deyarli maoshining yarmini yutqazdi.

Qolgan uchovlon Ritterning ustidan rosa kulishdi. Ayniqsa, Shtyover uni masxaralab, ko'z ochirmay qo'ydi.

Arbaytsfyurer yana bir qo'l yutqazgach, ta'bi xira tortib, achchiqlanib, bir qadah konyakni shartta sipqordi-da, shinelini kiyib, indamay tashqariga yo'naldi.

– Boring, boring, herr Ritter, bir shamollab keling! – dedi xoxolab uning ortidan Shtyover. – Havo ham aynan sizbop, qovog'idan qor yog'yapti. Balki keyingi safar omadingiz chopib qolar!

Arbaytsfyurer ko'chaga chiqdi-yu, yuziga urilgan sovuq shamoldan junjikib ketdi. U cho'ntagidan tamaki quti va gugurt oldi.

– Jin urgur! – dedi tutoqib gugurt qutisida bir dona ham cho'p qolmaganini ko'rib.

Komendantning issiq uyiga qaytib kirgisi kelmadı – yana yutqazib qo'ymaslik uchun yangi o'yin oldidan fikrlarini jamlab olishi kerak. Anavi Shtyoverga endi yutqazmasligi kerak! Ritter sovuqdan dildirab, tamakisini tutatib olish uchun to'ppato'g'ri darvozada turadigan soqchilar tomon yurdi...

Butkul tarashadek qotgan va kiyimlari ich-ichiga-chá nam tortib ketgan asirlarning u yonboshidan-bu yonboshiga o'girilib yotishga-da holi qolmagan edi. Shundoq ham zax yerda, muzdek ko'lmaq suvga qorilib yotgan odam qayoqqa o'girilib yotmasin – nafi yo'q, baribir issiq bo'lmaydi. Kamiga, ustidan chelaklab yomg'ir qo'yib turgan bo'lsa!

Hoshim birdan cho'chib ko'zini ochdi. Uning a'zoyi badani sovuqdan tak-tak qaltirar, oyoq-qo'li o'ziga bo'ysunmas edi. Shuhrat esa negadir qimir-lamasdi.

«Qotib uxlab qolgan, shekilli» deb o'yladi Hoshim.

Shuhratga qapishib olgan Ilhom esa titrab-qaqshab, tishlari takillab yotibdi. Hoshim boshini ko'tarib atrofga qaradi. Boshqalarning ahvoli ham shu – xarob, aksariyati titrab-qaqshab yotibdi, kimdir to'xtovsiz yo'taladi, yana kimlardir ingrab-ihragan.

– Ilhom! Hoy, Ilhom! – dedi Hoshim yigitning yelkasiga turtib. Ilhom shu zahoti ko'zini ochdi.

– Tur, tura qol!

– Nima bo'ldi, Hoshim aka?

– Bunaqasi ketmaydi. Bunday yotsak, muzlab o'lamiz. Boshqalarni ham uyg'ot, faqat sekinroq, shovqin solmanglar!

Hoshimning o'zi Shuhratni uyg'ota boshladi. Qattiq turtganiga qaramay, u qilt etmasdi. Avvaliga rosa charchabdi, uyg'onishi qiyin bo'lyapti,

deb o'ylagan Hoshimning birdan miyasiga urildi: muzlab qolgan, uyg'onmasa, o'lib qolishi mumkin. U avval yigitning ko'ksini, keyin esa akashak bo'lib qolgan qo'l va oyoqlarini uqalay boshladi. Birikki marta yuziga shapatilab ham ko'rdi. Nihoyat, Shuhrat ko'zini ochdi.

Hoshim yengil tortib, chuqur nafas oldi.

– Tur, Shuhrat, tura qol. Isinib olmasak bo'l maydi.

Shuhrat lom-mim demay, bor kuchini yig'ib amallab joyidan qo'zg'aldi. Ilhom va boshqa asirlar qolganlarni ham uyg'otishdi...

Ritter tamakisini tutatib olgach, komendantning uyiga qaytmoqchi edi. U bir-ikki qadam bosdi hamki, o'zbek asirlar yotgan «qo'ra» tomondan allaqanday tovushlar eshitila boshladi. Yomg'ir-u sovuq ham esidan chiqib, u qorovulkxona minorasidan tushgan shu'la yoritib turgan «qo'ra» tomon yo'l oldi.

Ritter angrayib qoldi: ular o'ylagandek osiyoliklar sovuqdan harom qotib o'lmasdi. Aksincha, mana, Hoshim boshchiligida jismoniy mashq qilib yotishibdi!

Endigina ibodatini tamomlagan Aleks, qani edi, mo'jiza ro'y bersa-yu, o'zbeklar bu ayozli kechani beziyon o'tkazib olishsa, deya umid qilmoqda edi. U to'shagiga yotib ko'zini yumishi bilan Hoshimning ovozini eshitdi. Sakrab turib darcha yoniga chop-

di. Ko'rganlaridan uning boshi osmonga yetdi. Ikki qo'lini dast ko'tarib sekingina:

– Xudoyim, o'zingga shukr! – dedi.

Hoshim Samarqandda – uyida har tong mana shunday mashq qilishni kanda qilmasdi. U qo'llari ni goh ikki yonga yoyar, goh dast ko'tarar edi.

– Bir-ikki, bir-ikki! Bilaman, madoringiz yo'q! Lekin biz shunaqa qilib isinmasak, sovuqdan qotib o'lamiz! Qani, yigitlar, bo'shashmang, mashq qila-miz!

Asirlarni birdan «qo'ra»ni yoritib yuborgan chiroq yorug'i ham cho'chitmadi. Axir chindan-da, badanlari qizib, oyoq-qo'llariga issiq yugurdi-da! Ajabki, allaqaydan yigtlarning kuchiga kuch ham qo'shilsa deng!

– Xudo xohlasa, hammasi iziga tushadi! – derdi Hoshim baralla ovozda. – Biz bu xo'rliklardan qutulamiz! Muhimi, umid uzmaslik kerak!

Maks Ritter ham, minoradagi soqchilar ham ang-raygancha «qo'ra»ga tikilib turar, asirlar esa turli jismoniy mashqlar bajarish bilan ovora: goh qo'llari ni ikki yonga yoyar, goh boshi uzra tepaga ko'tarar, goh sakrar, goh o'tirib-turar edi.

Arbaytsfyurer tamakisini o'chirdi-yu qamoq-xona boshlig'ining uyiga oshiqdi. Soqchilar esa butunlay esankirab qolganmi, asirlarga qaragancha joyidan qimirlamay turishardi: qanday kuch bu sho'rpeshonalarga madad beryapti ekan-a?



O'pkasi og'ziga tiqilgan Ritter boshliqning osh-xonasiga chopib kirdi.

- Hoy, bu nima ahvol? Orqangizdan it quvdimi?
- dedi uni mazax qilib Shtyover.
- U yoqda...
- Yo arvoх ko'rdingizmi, nima balo? – dedi u bat-tar xoxolab.
- Sizga nima bo'ldi? – dedi Geynrix.
- Yaxshisi, buni o'z ko'zingiz bilan ko'ring, herr komendant!

Geynrix ish bo'lmasiga oshiqdi, qolganlar unga ergashdi.

Derazadan «qo'ra»da nima bo'layotgani yaqqol ko'rinaridi. Osiyoliklar Hoshim boshchiligida dadil-dadil mashq qilmoqda edi.

– Bu nimasi, herr Shtyover, marhamat qilib, tushun-tirib bering! – dedi g'azabdan ko'karib Geynrix. – Siz bu-lar kundan-kun kuchdan qolyapti degan edingiz, men aksini ko'ryapman-ku! Ular tetik-bardam ekan, ma-na, hatto jismoniy mashq qilishga-da chog'i kelyapti!

Geynrix muoviniga yeb qo'ygudek qaradi. Bu gal ko'zlari g'azabdan shunchaki uchmadi, balki qinidan chiqib ketgudek olaydi.

- Herr, komen-ndant, – dedi Shtyover tili tutilib,
- ruxsat eting, bu odamsiyoq maxluqlarni tug'ilga-niga pushaymon qilay!
- Yana o'sha maqtanchoqlikmi! – dedi Geynrix tishlarini g'ichirlatib. Uning kayfi batamom tarqab

ketdi. So'ng yana derazadan tashqariga tikildi. – Af-tidan, siz o'zingizning bevosita vazifalaringizni yax-shi uddalay olmayapsiz, untershturmfyurer!

– Bir og'iz gapingiz, men uni tinchitaman! – dedi Shtyover.

U qat'iy qarorga keldi chog'i, eshikka yo'naldi, ammo Geynrix uni to'xtatdi:

– Yo'q, Iogann! Uni otib o'ldirish bilan ish bit-maydi. Bu unga juda yengil jazo bo'ladi. Jazo ham emas, aksincha, uni azoblardan qutqargan bo'lamiz. Mening boshqa rejam bor. Uni shunday bir yo'l bilan yo'q qilayki, oyog'imga bosh urib, emaklab, o'ldir deya o'zi yolvorib kelsin. Mening buyrug'im-siz bu maqtanchoqqa birontangiz qo'l tekkizmang, tushunarlimi?

– Xo'p bo'ladi! – dedi deyarli bir ovozdan Shtyover, Ritter va doktor Niuenxeyzen.

– Ha, yana, aytgancha, – dedi muhim gapni unut-gandek Geynrix, – bugundan boshlab ularga bir tish-lam narsa berilmasin! Bo'ldi, ketishingiz mumkin!

Mashq qilib o'zbek asirlarning tanasiga issiq yu-gurdi, biroq o'lgudek holdan toydilar. Qorinlar bat-tar surnay chalmoqda edi, buning ustiga, uyqu ham g'olib keldi. Yaxshiyamki, yomg'ir tindi, shamol ham bosilay deb qoldi. Yigitlar orasida eng yosh va nimjoni bo'lgan Umid oxirgi marta qo'lini ko'tar-gach, tizzalab qoldi, keyin esa madorsizlikdan yerga uzala tushdi.

Hoshim boshqalarga ham mashqni tamomlab, «Biroz uxlab olinglar» deya buyruq berdi.

Obdan holdan toygan jangchilar qayer quruq, qayer ko'lmaq ekaniga ham qaramay o'zlarini tappa yerga tashlab uxlab qolishdi.

Geynrix esa tuni bilan ko'z yummadi. U ish bo'lmasining chirog'ini o'chirdi-yu bir nuqtaga tikilgan ko'yi o'yga toldi. Hatto bo'kib ichilgan aroq ham muammolarni unutishiga yordam bermadi.

## **Yigirma ikkinchi bob**

Hoshim har yarim soatda yigitlarni uyg'otib mashq qildirdi: hech bo'lmasa, isinishning yo'lini topishdi-ku! Avvaliga joyidan qimirlashga-da holi kelmagan asirlar o'zini majburlab mashq qila boshlagach, o'z-o'zidan kuchga to'lib ketayotganini sezishardi.

Yigitlar oz bo'lsa-da, isinib olyapti-ku, degan o'y dalda berib Hoshim ham mudrab qoldi.

Biroq oradan hech qancha vaqt o'tmay «qo'ra»-ning chekkarog'idan kelayotgan yig'i ovozidan uyg'onib ketdi. Kimdir xuddi yosh boladek hiqillab yig'lamoqda. Hoshim o'rnidan turdi va qator yotganlar ustidan ehtiyyotkorlik bilan hatlab o'tib, yig'layotgan yigitning oldiga bordi. Umid ekan. U xuddi mayoq kabi tebranib o'tiribdi.

Hoshim uning yoniga cho'kkaladi va titrab turgan yelkasidan quchdi. Yigitning issig'i baland edi.

- Qayering og'riyapti, Umid? – deb so'radi.
- Barmog'im yiringlagan shekilli. Og'riqqa chidolmayapman, – dedi Umid ingrab.

Rostdan ham o'ng qo'lining ko'rsatkich barmog'i do'mbiradek bo'lib shishib ketibdi.

– Chidolmayman, – dedi Umid hiqillab, tinmay tebranarkan. – Jonim chiqib ketay deyapti, Hoshim aka. – Umid ingragancha shishgan barmog'ini chap qo'li bilan mahkam siqimpladi.

«Ertaga Aleksdan Umidga biror malham topib berishini so'rayman», deb o'yladi Hoshim. Tibbiy bo'limga – qotil shifokorga bu yigitni ro'baro' qilib bo'lmaydi. Yo'q, aslo.

U xuddi o'g'lini ovutgandek yigitning yelkasini siladi.

– Mayli, sabr qil, Umid! Sen kuchli yigitsan, chiddaysan, bilaman. Hammamiz bu kunlarga bardosh qilamiz. Menga ishonasanmi? Hali biz sening to'-yingda maza qilib raqsga ham tushamiz, ko'rasan!  
– deb dalda berdi.

Umid bir hiqillab oldi-yu yig'idan to'xtadi, bosh irg'ab qo'ydi.

– Ertaga men senga malham topib beraman. Ho-zir yotgin-da, uqlashga harakat qil.

Ertalabga yaqin shamol butkul to'xtab, havo biroz ilidi.

Bir maromdag'i jismoniy mashqlarni bajarib, oz-moz bo'lsa-da isinib olish yo'li topilganidan o'zbek mahbuslar xursand edi.

Ertalab odatdagidan yarim soatlarcha oldin Alsher bir gala soqchini ergashtirib «qo'ra»ga bos-tirib kirdi. Ularning qo'lida miltiq emas, katta-katta so'yil bor edi. Alsherning orqasida Aleks – bexosdan kaltak tushib qolmasin degandek ehtiyyot bo'lib turibdi.

– Turlaring, tekintomoqlar! Ishga! – deb baqirardi soqchilar asirlarni so'yil bilan urib o'midan turg'izar ekan. Biroq asirlarning nimjon, zaiflashib qolgan tanasi hatto kaltakni ham sezmasdi, shu bois nemislar o'ylagandek ular sakrab o'midan turmadidi, bu esa soqchilarни battar tutoqtirardi. Ular endi mahbuslarning boshi-ko'zi demay ayamay savalay ketdi.

Eng oxiri sudralib bazo'r joyidan qo'zg'algan Umid yeydiganini yedi. Havo sovuqligiga qaramay uning peshonasini dona-dona ter qoplagan edi. Soqchilar bilib qolmasin deb u o'zini arang tutib turar, ingrab yubormaslik uchun tishini-tishiga bosar edi. Biroq xoin oyoqlari chalishib yiqilib ketay-yiqilib ketay derdi.

Kaltakdan yashiraman deb boshini qo'li bilan to'sganida so'yil lo'qillab turgan barmog'iga tushsa bo'ladimi. Og'riqdan dodlab sog' qo'li bilan unisi ni yashirmoqchi bo'ldi. Buni ko'rgan soqchi atay

uning shishgan barmog'ini mo'ljal qilib ura ketdi. Umid battar chinqirib yubordi. Alsher soqchiga bas qil deya buyurdi.

– Bu yoqqa olib kelng uni! – dedi Alsher Umidga ishora qilib. – Namuncha xotinga o'xshab dod-voy solasan?

Umid qizarib, shishib, yiring boylagan bar-mog'ini ko'rsatdi.

Yuzidagi bir tuki qilt etmagan Alsher davangir Fritsga ming'irladi:

– Tibbiy bo'limga olib bor!

– Kerak emas, – dedi gapga aralashib Hoshim, – o'zimiz bir amallaymiz.

– O'chir ovozingni! – dedi kesib Alsher. – Hamma ishga! Tez!

Bukchaygancha qo'lini ko'ksiga bosgan Umid bilan nimadandir mamnun iljaygan naynov Frits tibbiy bo'limga yo'l oldi.

Binoga kirishgach, ular yo'lakda yahudiy Nunes – ko'kko'z mahbusga ro'para keldi. Nemislар Gol-landiyaga kelguncha u omadi chopgan tish do'xtiri bo'lgan. Qamoqxonada uni tibbiy bo'limga ishga qo'yishdi. Bu yerda u doktor Niuenxeyzen buyur-gan eng jirkanch yumushlarni bajaradi. Nunes Umidga bir nazar tashladi-yu yonidan yerga qarab o'tib ketdi. Mahbus bilan soqchi yo'lak bo'y lab borib ochiq eshik oldida to'xtadi. Bu Nikolas Van Niuenxeyzenning ish bo'lmasi edi. Doktorning sto-

li ustiga och pushtirang yelim dasturxon to'shalgan va turli tibbiy asboblar tartib bilan terib qo'yilgan edi.

– Janob doktor, – dedi Frits. – Manavining barmog'iga bir balo bo'libdi, xotindek dodlab yotibdi. Endi ijozat bersangiz, men chiqib chekib tursam?

– Bemalol, Frits. Buni ko'rish uncha ko'p vaqt olmaydi o'zi.

Joyidan turib bemor yoniga o'tarkan, ko'zi pishib ketgan doktor bu kutilmagan «tashrif» sababini darrov angladi – osiyolik gazak olib shishib ketgan barmog'ini shundoqqina burni tagiga taqab turibdi. O'zi shifokordan ko'z uzmaydi.

– Qattiq og'riyaptimi? – dedi u taskin bergen ohangda. – Tashvishlanma, hozir birpasda hech nima ko'rmagandek bo'lib ketasan.

Umid uning bir og'iz so'ziga tushunmagan bo'lsa-da, xayrixoh gap ohangidan bu yerda dardimga malham topaman deb o'ylagan edi.

Doktor chap qo'li bilan Umidning bilagidan ushlab chipqonni obdan ko'zdan kechirdi. Ko'rsatkich barmog'idan boshqa hammasini mushtumlab, bermoga xuddi shunday qilishni buyurdi. Umid itoatkorlik bilan shishgan barmog'ini stolga qo'ydi.

– Yiringlagan barmoqni boshingga urasanmi? – dedi doktor xotirjam ohangda, o'z gapi o'ziga nash'a qilib tirjayib. U yigitning barmog'ini bor kuchi bilan stolga bosib turdi-da, o'ylab ham o'tirmay tibbiy as-

boblari orasidan ixchamgina bolta olib qulochkashlab gazak olgan barmoqni chopib tashladi. Tizillab qon otildi. Umid og'riqdan dodlab yubordi, daf'atan nima bo'lganini anglayolmay qonga belangan barmog'iga baqrayib qarab qoldi. Doktorning xoxolagan kulgisi-dan hushi joyiga keldi va o'zini eshikka urdi.

Yo'lakda bir nechta eshik bor edi, Umid duch kel-ganini ochdi. Shu eshik tashqariga olib chiqadi deb adashibdi, bunisi katalakdek bir xona, to'g'rirog'i, oshxona ekan. Eshikni ochar-ochmas ikki plitali o'choqqa ko'zi tushdi, katta qozonda allanima biqirlab qaynab yotibdi. Sinchiklab qaragan Umid bu ko'z chanoqlari ko'riniq turgan ikkita odam kalla-si ekanini anglab, dahshatdan esi og'ib qolayozdi. Bu kecha konda fashistlar urib o'ldirgan ikki o'zbek yigit – tillatish bilan sherigining kallasi edi. Umid og'riqni ham unutib turgan yerida qotib qoldi. Nay-nov Frits tibbiy bo'limning nimqorong'i yo'lagiga bosh suqib uni ko'rib qolmasa, Umid shu tarzda og'zi ochilib yana qancha turardi, Xudo bilsin.

– Hoy! – deb chaqirdi uni Frits.

Sapchib tushgan Umid soqchiga telbalarcha bir qaradi-yu, yo'lak bo'ylab tashqari eshikka qarab otildi. U qarshisidan chiqqan so'laqmondek Fritsni yiqitib yuborishiga sal qoldi.

– Hoy, menga qara, to'xta! – deb qichqirdi uning ortidan tibbiy bo'lim eshididan halloslab chiqqan soqchi.

Oyog'ini qo'liga olib chopib ketayotgan Umid taqqa to'xtadi, hozir qo'ndoq bilan tushiradi degan xavotirda yelkasini qisib oldi. Biroq barzangi soqchi unga sarg'ayib ketgan eski doka tasma uzatdi, aftidan, «mehribon doktor» berib yuborgan.

Umid rahmat degandek bosh silkib, qon oqib yotgan barmog'ini chandib bog'lab oldi.

Umidga biroz rahmi kelgandek ko'ringan Frits birdan miltiq qo'ndog'i yodiga tushdi, shekilli, afti gezarib mahbusning oyog'ini yerga tekkizmay qamoqxona darvozasiga haydab ketdi.

## **Yigirma uchinchi bob**

Nihoyat, bugun dadasi Martinga mahbuslar ishlayotgan konga borishga ruxsat berdi. Ertalab soat roppa-rosa to'qqizda Alsherning qat'iy nazorati va Fritsning kuzatuvi ostida Martin konga yo'l oldi. Geynrixning qo'l qo'yadigan hujjatlari yig'ilib qolgani bois sal kechroq boradigan bo'ldi. U shaxsan o'zi o'g'liga ekskursiya uyushtirishni rejalashtirgan. Uning nazarida, hali hayotning past-balandini ko'rmagan Martin konni, u yerda quldek mehnat qilayotgan asirlarni o'z ko'zi bilan ko'rishi kerak. Zora, odamsiyoq maxluqlarning itdek xor ekaniga

guvoh bo'lib, o'g'lining ko'zi pishsa, diydasi qotsa. Bu ham tarbiyaning bir usuli deb hisoblar edi Geynrix.

– Martin! – dedi Alsher konga yaqinlashib qolganlarida. – Bu kimsalar – o'ta xavfli! Shuning uchun davangir Fritsdan bir qadam ham uzoqlashma, uqdingmi? – Martin ma'qul deya bosh irg'adi. Alsher naynov Fritsga qarab: – Bola senga omonat, uning uchun kallang bilan javob berasan! Undan ko'z uzma! – dedi. Naynov «tushundim» degan ma'noda avtomatini ko'ksiga mahkam bosdi.

Martindek bir norasida ham bu yerda mahbuslar qanchalik og'ir, mashaqqatli yumushlarni bajarishini darrov fahmladi. Bosh ko'tarmay ishlasa ham soqchilar ularni miltiq qo'ndog'i-yu og'ir so'yillar bilan urib savalashlarini qo'ymasdi.

Martin eski tanishi – Hoshimni ko'rib qoldi. U Aleks de Leu bilan ikki dastali arrada uzun-uzun xodalarni arralamoqda. Martin ular tomon bir necha qadam qo'ydi, ammo Frits esiga tushib, to'xtab qoldi.

Konning etakrog'ida turgan arbaytsfyurer Ritterga ko'zi tushgan Alsher u bilan salomlashib, biroz valaqlashib kelgani yo'naldi.

Martin yuk to'la aravalarni itarib, og'ir qutilarni sudrab o'tayotgan asirlardan ko'z uzmasdi. Shunchalik holdan toyganidan bosh ko'tarib bu yerda yosh bola nima qilib yuribdi deb ajablanishga-da

chog'i kelmasdi ularning. Hatto gapirishga holi qolmagan, odatiy shu yumushni arang bajarishayotir.

Faqat Hoshimgina bolaga ko'zi tushib arralashdan to'xtadi va unga jilmayib qo'ydi. Martin avvaliga nima qilishni bilmay dovdiradi, so'ng mahbusga javoban u ham jilmaydi. Buni ko'rgan Frits miltig'i og'zini Aleks bilan Hoshim tomon qaratdi.

— Ishlalaring! — deb do'q urdi. Hoshim bilan Aleks indamay yana arra torishga kirishishdi.

Martin bir qancha vaqt ularning ishini kuzatib turdi. O'zi ham xoda arralab ko'rgisi keldi. Ruxsat so'rayman deb atrofiga alangladi. Biroq Alsher uzoqroqda — o'n besh metrlar narida Ritter bilan gaplashib turgan ekan. Martin Fritsga qaradi. Ammo u ham hozir o'zi bilan o'zi ovora: panskashadek qo'lini shiminining cho'ntagiga tiqib kavlashtirmoqda edi. Nihoyat, kumush portsigarini olib yuzi yorishib ketdi. Miltig'ini yelkasiga osib, portsigarni ochdi va bitta sigareta oldi. Uni labiga qistirib, gugurt qidirib boshqa cho'ntaklarini qoqishtira boshladi. Aksiga olib, gugurti yo'q ekan. U oyog'i ostiga «chirt» etkazib tupurdi va o'zi bilan Martindan bir necha qadam narida turgan soqchiga qaradi. Soqchi barzangi Fritsga nima kerakligini darrov fahmlab u tomon yurdi, yo'l-yo'lakay cho'ntagidan gugurt quagini oldi. Frits ham u tomon bir-ikki qadam tashladi, uzatilgan qutichani olib, gugurtni «chirq» etkazib yoqdi-da, huzur qilib sigareta tortdi.

– Achtung! Achtung! (Diqqat! Diqqat! Ya’ni, «Eh-tiyot bo’linglar») – deya baqirdi nemischalab kimdir qo’rquv aralash. Qarsillagan ovoz eshitildi: bahaybat bir daraxt yiqilayotgandi.

Yalt etib tepaga qaragan Fritsning labidagi tamakisi ham tushib ketdi: bahaybat bir daraxt to’g’ri ularning ustiga yiqilayotgandi.

Kutilmagan bu hodisadan ko’zlari ola-kula bo’lgan Frits ɓilan soqchi jon holatda o’zini chetga olib qochdi.

Baqiriqni eshitgan Alsher bilan Ritter ham shu tomon qaradi va quruq shoxlari har tomonga tarvaylagan katta daraxt Martinning ustiga yiqilayotganini ko’rdi.

– Qoch, Martin, qoch! – deb qichqirdi Alsher.

Martin ustiga yiqilayotgan daraxtdan ko’z uzmay taxta bo’lib turardi. U qo’rqqanidan joyidan qimrlayolmay qotib qolgan edi.

Buni ko’rgan Hoshim ikki hatlab bola turgan joyga yetib keldi va uni mahkam quchoqlab chetga sakradi. Daraxt quruq shoxlari qarsillab hozirgina Martin turgan yerga yiqildi. Hoshim butun gavdasi bilan bolani to’sib yotardi.

Konga qarab kelayotgan Geynrix bilan Shtyover Martin turgan yerga daraxt yiqilganini uzoqdan ko’rdi.

O’takasi yorilgan Geynrix ikki odim otib Hoshimning tepasiga keldi. Jon-jahdi bilan uning biqiniga tepib tagidan o’g’lini tortib oldi.

– Tuzukmisan, bolam?! Hech yering lat yemadimi?! Hech qayering og'rimayaptimi?! – derdi u asabiy bir holda o'g'lining yuz-ko'zini silab.

Hoshim biqinini ushlab bir amallab turishga chog'langan edi, jag'iga tekkan tepkidan yana yerga ag'anab tushdi.

– Ablah! O'g'limga nima qilmoqchi eding?! Unga qo'l tekkazishga qanday hadding sig'di? – dedi og'zidan ko'pik sachratib Geynrix.

– Dada, tepmang! U meni qutqardi-ku, axir! – deb qichqirdi Martin yig'lab.

Ammo quturib ketgan Geynrix o'g'lining gapiga e'tibor ham qilmay, ortidan halloslab kelgan Shtyoverning qo'lidagi qamchini yulqib olib bor kuchi bilan Hoshimni savalay ketdi.

– Qani, yur, Martin, – dedi obdan alamidan chiqqan Geynrix qamchini Shtyoverga tutqazib, – seni doktorga ko'rsataman. Senlar qay go'rga qaradilaring? – deb o'shqirdi u Frits bilan Alsherga ko'zlarini ola-kula qilib. – Men senlarga Martindan ko'z uzmaysan demaganmidim! Shtyover! Sen ik-koving ham! Men bilan yurlaring! – dedi u Alsher bilan Fritsga.

– Dada, nega gapimga ishonmayapsiz, u meni qutqardi deyapman sizga! Uning zarrachayam aybi yo'q, dada! – derdi bola yig'lab.

– Bo'ldi, bas, o'g'lim! Nima qilishni o'zim bila-man. Buyog'ini menga qo'yib ber.

Otasiga gap uqtirish befoyda edi.

Shtyover, uning ortidan xuddi tepki yegan itdek Alsher bilan barzangi Frits Geynrixga ergashdi.

Ular orqasidan lapanglab kelgan arbaytsfyurer Ritter:

– Herr komendant, xotirjam bo'ling, bu noxush hodisa yuzasidan o'zim chora ko'raman! – dedi gunohkorona.

Geynrix ortiga qaramay yo'l-yo'lakay o'shqirdi:

– Chora ko'ring! Kechqurun menga hisob berasiz!

...Avvaliga Ritter soqchilarga daraxt kesgan-u xoda arralagan barcha mahbuslarni kaltaklab adabini berishni buyurdi. Ya'ni, qo'lida bolta-yu, arra tutgan biror kimsa jazodan benasib qolmadi. O'zi ham soqchilarga qo'shilib shu sho'rpeshonalarini tepkilab xumoridan chiqdi.

O'sha mash'um daraxtni kim arralagani surish-tirilganda esa u juda qari, tag-tugi bilan qurib bitgan bo'lgani uchun o'z-o'zidan yiqlgani ma'lum bo'ldi.

## Yigirma to'rtinchi bob

Aleks umri bino bo'lib bunchalik xo'rlik va nohaqlik ko'rmagan edi. Kifti, qo'llari lov-lov yonayotir – Ritter bilan soqchilar obdan tepkilashdi-da. «Nohaqlik» mish, – dedi Aleks o'z gapi o'ziga nash'a qilib, – fashist gazandalar bizni odam sanamaydigan bu jahannamda qandayin adolat haqida o'ylash mumkin?

Eh, hammadan ham Sovet Ittifoqining olisdanolis janubiy bir o'lkasidan kelgan o'zbeklarga jabr bo'ldi. Ular tug'ilib o'sgan yurt qayoqda-yu, urush olovi yonayotgan hududlar-u Niderlandiya qayoqda? O'sha «jabr», endi mana, Aleksning o'ziga ham tegib turibdi. Bu yog'i kundek ravshan – sho'rpeshona osiyoliklarni o'ta og'ir, ayanchli qismat kutayotir. Shu kungacha qamoqxonada hech kim – na gollandlar, na belgiyaliklar, na fransuz va na nemislar ashaddiy dushman deb bilgan yahudiylar bularchalik xo'rlik ko'rmagan. Endi nimadir qilish kerak. Bor kuch-u imkoniyatni ishga solib o'zbeklarga qo'ldan kelgancha yordam berish lozim. Ularga boshqa asirlar qatori og'ir ish qildirishadi, ammo necha kundan beri bir qoshiq yovg'on ham berishmayapti, tavba, bular qanday chidayapti ekan-a? To'g'ri, Aleks ko'rib

turibdi, ko'pchilik yigitlar Hoshimdan ibrat olyapti, unga bo'lgan ishonch sabab ruhi tushmayapti. Lekin Hoshimning o'zi nimaga ishonib, qanday qilib bunalik o'zini xotirjam tutyapti, shunisi qiziq. Qamoqxona boshlig'i ham bu yigitga negadir «tish qayrab» yuribdi, buni Aleks allaqachon sezdi.

Hoshimdek yigit bilan o'zingni o'tga ham, suvga ham tashlashing mumkin – aslo pand bermaydi. Mana, bugun – nemis zabitlari-yu, soqchilar bo'lan qutqarish u yoqda tursin, joyidan qimirlamay angrayib turgan bir payt yolg'iz shu Hoshim o'ylab ham o'tirmay yordamga oshiqmadimi? Komendant ishongan shotirlarning ko'ziga o'z jonidan boshqasi ko'rinnadi. Ammo Hoshimning bunday oljanob ishi ham sho'rpeshona o'zbeklarning ko'chasiga bayram olib kelmaydi, bunisi aniq. Mana, «minnatdor»ligini ko'rib turibmiz: kuni bilan ter to'kib horib-tolib kelgan bechoralarmi qaqqaytirib safga tizib qo'yishdi-ku. To'g'ri, bugun qurbanlar bo'lmasdi, mahalliy bir beva xonimning sharofati bilan qutlib qolishdi. U ikki-uch kun burun Shtyoverni kechki ovqatga taklif qilgan edi.

Mabodo bugun Geynrixning ko'z o'ngida o'g'li daraxt tagida qolib o'lganida yoki biron yeri sinib mayib bo'lganida, kim bilsin, u Alsher, Ritter va Fritsni qay ahvolga solardi. Lekin o'zi jon qarz bo'lgan Hoshimni tepki-yu, qamchi bilan qandayin «siylagan»iga shohid bo'ldik.

Aleks qo'shni so'rilarga nazar tashladi. Shift tagidagi kichkina darchadan tushayotgan oy shu'lasи zulmatni bilinar-bilinmas yoritsa-da barak ichi deyarli zim-ziyо. Shunga qaramay, Aleks biladi, qamoqxonadagi maslakdosh do'stlari hozir uxlamay, uning «tungi mashvarat»ga chaqirishini kutib yotishibdi. Ular shunga odatlangan, nima bo'lishidan qat'i nazar, har tun bosh qo'shib, qamoqxonadagi vaziyatni muhokama qilishadi. Tabiiyki, tungi «orom»ga zang chalingach, soqchilar barak eshiklарини tambalab ketgan!

Ko'п asirlar boshi katga tegishi bilan qotib uxlаб qoladi, to'g'ri-da, ertangi mashaqqatli ish kuni-ni o'tkazish uchun ozmi-ko'pmi kuchga kirib olish ham kerak-ku! Ammo Aleks va uning ikki do'sti – yahudiy Nunes bilan ingichka mo'ylovi o'ziga yarashgan golland Bakker hech qachon «kengash-may» uxlamaydi. Bakker bir vaqtlar rosa olifta yigit bo'lган, ingichka murti – o'sha po'rimlikdan qolgan yagona «meros». U qamoqxonaning eng «imtiyozli» bo'limi – oshxonada ishlaydi.

Aleks sekin ovoz berib chaqirganda ikkovlon darrov kelib uning so'risiga uzala tushdi. Bir-birining pinjiga tiqilib shivirlashib «kengash»ni boshladilar. Aytib bo'ladimi, mahbuslar orasida bir burda non yoki biron nima evaziga eshitganini oqizmay-tomiz-may fashistlarga yetkazadigan chaqimchilar bo'lishi mumkin.

– Shu ovqat masalasini bir nima qilishimiz kerak, – dedi Aleks uh tortib. – O’zbek birodarlar bu ketishda uzoqqa bormaydi. Axir necha kun bo’ldi ular och, bir tishlam non ham berishmadi ablahlar. Lekin nima qilamiz, qanday yordam beramiz?! Agar nemislar bilib qolsa, hech kimni ayab o’tirmaydi. Hammamizning boshimiz ketadi.

– Men ham qachondan beri shuni o’ylab yuribman, – dedi Bakker. – Sizlarga bir taklifim bor. Erta-ga payshanba, bu – fermer Yanson qamoqxonaga kartoshka olib keladigan kun degani. Menimcha, u bilan kelishsak bo’ladi. Oxirgi ikki-uch marta tamaki va pul masalasida bizni rosa qo’llagan edi, esingizdam?

## Yigirma beshinchchi bob

Shu kecha Martin ham ko’z yummadi. O’sha mudhish voqeani, mana, nechanchi marotaba xayolan jonlantirayotir: axir bahaybat daraxt uni bir soniyada ezib-majaqlab, yerga qapishtirib tashlardi-ku! Nega Martin havas qilib yurgan anavi ertakdagи pahlavonga o’xshagan baquvvat Frits qo’rroqlik qilib qochdi? Qaytanga eti ustuxoniga yopishgan osiyolik mahbus mard ekan, o’ylab o’tirmay ikki hatlab kelib Martinni qutqarib qoldi.

O'ylab hech o'yiga yetolmayapti: nega dadasi uning xaloskorini ayamay tepib kaltakladi? Nima-ga? Martinni qutqargani uchunmi?

Geynrix bugun ilk marta Berlindan kelgan topshiriqni bajarishni emas, o'g'lini – bugun ayrılib qolishi mumkin bo'lgan jigarporasini o'ylamoqda edi. U bilan ochiqchasiga gaplashib olishi, ba'zi narsalar ni tushuntirib qo'yishi lozim. Birozdan so'ng u bir qarorga keldi chog'i, o'g'lining yotog'i tomon yurdi.

Dadasi kirganda Martin qo'llarini boshi tagida chalishtirib shiftga tikilib yotgan edi.

– O'g'lim, kel, gaplashib olaylik, – dedi muloyim ohangda Geynrix.

– Nimani gaplashamiz, dada? Siz baribir mening gapimga ishonmaysiz. Mendan boshqa hammaga qulq solasiz, – dedi yig'lagudek bo'lib Martin.

Geynrix karavot chetiga o'tirib, o'g'lining boshi ni siladi. Martin araz qilgandek devorga qarab oldi.

– Bilaman, ba'zan qattiq turaman. Biroq, bu sening foydangga-ku, bolam. Axir men sening kelajagingni o'layapman, nega tushunmaysan? Sening haqiqiy, mard jangchi bo'lishingni istayman, xolos.

– Nima? Mard jangchi? Anavi qo'l ostingizdagilar mard jangchimi, shularga o'xshashimni xohlaysizmi? Bitta quolsiz odamga qurol bilan tashlanadigan o'nta askaringiz «mard»mi? Yoki bugun menga yordam berish o'rniga o'z jonini asrab qochib qolgan anavi devqomat Frits bilan yonidagi soqchiga

o'xshasam tuzukmi? Meni sizlar o'lgudek nafratlanadigan «odamsiyoq maxluq» qutqardi bugun, dada! Siz bo'lsangiz rahmat aytish o'miga uni tepkiladingiz, savaladingiz. Nega dada? Axir u...

Geynrix xuddi chayon chaqqandek joyidan sapchib turib ketdi.

– Nega deysanmi? Sen bizni shu hayvonsi fat maxluqqa tenglashtiryapsanmi? Yaxshi, senga bor haqiqatni aytay... O'sha osiyolik seni garovga olmoqchi bo'lganini hech xayolingga keltiryapsanmi? Agar seni qo'lga olsa, men uning hamma aytganiga rozi bo'lismimni biladi! Tasodifan daraxt yiqilgani uning barcha rejalarini chippakka chiqardi, xolos.

– Bo'limgan gap, dada! Yolg'on! Siz baribir men ga ishonmaysiz!

– Chakagingni yum, bola! Xudoga shukr qilki, ish bunaqasiga aylanib ketdi. O'sha pandavaqи odamsiyoqlar mardlikka qodir emas. Shunday ekan, o'zingcha to'qib-bichib undan qahramon yasama!

– Dada, ayting-chi, o'sha «jasur» askarlari ngizning velosipedimni o'g'irlab, meni kaltaklagan bezori qo'shni bolalardan farqi nimada? – dedi alam bilan kulib Martin. – O'shanda meni qo'rqoq, lapashang, nega ularning adabini berib qo'ymading deb urishgan edingiz, esingizdami? Men hali unutganim yo'q. Shunda ham mening gapimni eshitmagan edingiz. Men bitta o'zim sakkizta bolaga qarshi



chiqqan edim, bilsangiz! To'g'ri, rosa kaltak yeganman, biroq qo'rkoqlik qilib qochib qolmaganman!

– Bas qil, Martin, yetar! Ko'rib turibman, senga gapirgandan foyda yo'q! – dedi Geynrix. U o'g'lining gapini eshitmay xonadan chiqib ketdi.

Uni nigohi bilan kuzatib qolarkan, Martin o'yga toldi. Balki dadasi bejiz bunday o'ylamayotgandir. Rostdan ham biror arzirli sabab bo'lsha-chi? U chindan ham Hoshim Martinni garovga olmoqchi bo'ldi deb o'ylayotgandir? Lekin aslida nima bo'lganini Martin biladi-ku! Nima qilganda ham otasi osiyolik asirlargaadolatsizlik qilyapti. Shu o'y ham Martinga tinchlik bermayapti. Balki buni dadasingning o'zi ham bilar, bilaturib shunday qilishga majburmikan u? Xullas, qanday bo'lmasin, o'sha qo'rkoq askarlarini oqlamoqchi bo'lyapti, dushmanining qahramonlik qilishini-ku, aqliga sig'dirolmayapti!

Bola yuzini yostiqqa bosib alamdan o'kirib yubordi.

Bir vaqtlar uni yelkasiga mindirib o'ynatgan, saylgoohlarga olib borgan, doim «Odamlarga mehribon bo'l, jonivorlarga ozor berma», deb uqtiradigan dadasi qani endi? Unga nima bo'ldi? Bola ko'z-yoshini yengiga artib, o'pkasini bosishga urindi.

Nihoyat, u o'zini bosib oldi. Yo'q, bunaqasi ketmaydi, boyta dadasi bilan suhbatlari chala qoldi, yakuniga yetkazib qo'yish kerak. U yana biroz to'shakda cho'zilib yotdi, u yoqdan-bu yoqqa ag'anadi. Uxlay olmadi. O'rnidan turdi-da, ship-

pagini oyog'iga ilib xonadan chiqdi va dadasining yotog'iga kirdi. Yotoq bo'sh – hech kim yo'q. Martin qulqoq tutib g'o'ng'ir-g'o'ng'ir tovushlarni eshitdi: dadasi ish bo'lmasida, shekilli. Yotoqdan chiqib ish bo'lmasi tomon yurdi.

Yo'lak oxiridagi stol boshida o'tirgan dadasining yordamchisi mudrab qolibdi. Martin oyoq uchida yurib qiya ochiq eshik yoniga keldi va ichkari-ga mo'raladi. Valter Geynrix qo'l ostidagi ma'murlari bilan majlis o'tkazmoqda edi. Boshliqning o'ng tomonidan odatdagicha Iogann Shtyover bilan unter-zobit Ernst Alsher, chap yondan esa arbaytsfyurer Maks Ritter va qamoqxona shifokori, jarroh, gauptshturmfyurer Nikolas Van Niuenxeyzen joy olgan.

– Bugun menga Berlindan qo'ng'iroq bo'ldi! – dedi tantanavor ohangda dona-dona qilib Geynrix. A'yonlari esa undan ko'z uzmay og'zini poylab o'tirardi. – Bir necha kundan so'ng qamoqxonaga reyxsfyurer Gimmler bilan Maorif va targ'ibot vazirligi reyxsministri Gebbelsning odamlari kelar ekan. – U vaziyat qanchalik jiddiy ekanini yordamchilar tushunyaptimi-yo'qmi, ishonch hosil qilish uchun ularga bir-bir qarab chiqdi. – Ular kelishiga «namuna-hayvonlar» tap-tayyor bo'lishi shart! Shunday ekan, tarbiyaviy tartiblarni kuchaytirish lozim! – U biroz tin oldi. – Demak, ovqat-povqat berilmaydi, chidashar, o'lib qolmas!

– Herr obershurmfyurer, – dedi ikkilanibroq Alsher. – Bu «hayvonlar» yana bir necha kun ochlikka dosh bermaydimi deb qo’rqaman. Berlindan guruh kelguncha harom qotmasa bo’lgani bari. Keyin yana...

– Alsher, mijg’ovlikni bas qilsangiz-chi! – dedi zaharxandalik bilan Shtyover.

– Menga qarang, herr Alsher, juda qiyin vaziyatlarda vujudimiz ajoyib imkoniyatlarini namoyon etadi! – dedi mammun iljayib doktor Van Niuenxeyzen. – Ular yana bir necha kun ochlikka chiday oladi.

– Hech bo’lmasa, kartoshka po’chog’i berarmiz, nima deysizlar? – dedi Alsher.

– Undan ko’ra, po’choqni cho’chqalarga berganimiz tuzuk, ular harholda go’sht beradi, bu notavonlardan nima naf bizga? – deya e’tiroz bildirdi Shtyover. Komendant muovinining gapini ma’qullab bosh irg’adi.

– Bu hayvonlarga endi bir luqma ham narsa berilmaydi, tamom! – deb qat’iy «hukm» qildi u. – Bungunchalik shu! Bo’shsiz.

Martin shosha-pisha yotog’iga qaytdi. To’g’ri, u eshitgan gaplarining ma’nosini unchalik uqmadi. Ammo ich-ichida qandaydir sezgi ular hozir hayvonlar emas, odamlar haqida gapirdi demoqda edi.

## Yigirma oltinchi bob

Payshanba kuni, odatiga ko'ra, Yansonning tepe-sa-tebranmasroq mallatob baytali qo'shilgan arava erta tonglab qamoqxona oshxonasi eshigiga kelib to'xtadi. Fermer aravadan shoshilmay tushdi-da, otini qoziqqa bog'lab, to'ladan kelgan golland soqchiga xalal bermaslik uchun chekkaroqqa o'tib turdi. Soqchi aravani ko'zdan kechirib chiqdi. Qamoqxona darvozasida arava ostin-ustin qilib titib chiqiladi – u buni biladi, lekin shunday bo'lsa ham xizmatchilik, u ham o'z vazifasini bajarishi kerak. Aravadan biror taqiqlangan yoki ortiqcha narsa chiqmadi: bir necha xalta kartoshka, brezent yopinchiq bilan bir quchoq quruq pichandan bo'lak hech vaqo yo'q.

Oshxona eshigida boshini egib Bakker turibdi, ammo u ko'z qiri bilan soqchini ham, aravakashni ham kuzatyapti. Nihoyat, soqchi Bakkerga bosh silkidi: yukni tushiraver. O'zi esa imorat burchiga o'tib huzur qilib cheka boshladi. U tamakidan torta-torta osmonga tikildi. Ko'm-ko'k osmonning u yer-bu yerida parcha bulutlar suzib yuribdi. Demak, bugun kun ochiq bo'ladi, yomg'ir yog'maydi. Kartoshka solingan har bir xaltaning aravadan tushi-

rilishini kuzatishga uning vaqt ham, xohishi ham yo'q. Bakkerning zap ko'nglidagi ish bo'lди bu!

U Yanson turgan tarafdan arava yoniga keldi. Birinchi xaltaning quloqlaridan tutarkan, engashib-roq fermerga shivirladi:

– Iltimos, og'ayni, aravaga ozroq kartoshka to'kib qo'ysang, keyin soqchini chalg'itib tur.

Yanson ha ham, yo'q ham demadi. Og'ir xaltani yelkasiga ortmog'lab ketayotgan Bakkerni nigohi bilan kuzatib qo'ygach, arava yoniga kelib ikkinchi xaltaning og'zi bog'langan-bog'lanmaganini tek-shirgan kishi bo'lди. Soqchi hali ham uy burchida chekib turibdi.

Yanson xaltani egib og'zini yechdi va arava tubiga ozroq kartoshka to'kib, ustini pichan bilan yopdi, uning ustiga brezent yopinchiq ham tashlab qo'yidda, soqchi tomon yurdi.

Soqchiga qo'shilib Yanson ham osmonga tikildi.

– Bugun yomg'ir-pomg'ir yog'maydi chog'i, – dedi u. Soqchi bosh irg'adi. – Biroq bu yil havo ancha seryog'in keldi. – Soqchi yana bosh silkidi. – Biz, fermerlarga ham oson emas, – dedi arz qilgandek aravakash, soqchi esa nima deyishni bilmagandek yelka qisdi. – Sizlar – Buyuk Reyxning dushmanlarini qo'riqlovchi askarlarga ham qiyin – tinmay yomg'ir yoqqani-yoqqan...

Bu gal soqchi «To'g'ri aytasiz», degandek kulimsirab bosh silkidi: mana, hatto mana shu omi fermer

ham uning ishi qanchalik qiyin ekanining farqiga boribди.

Shu vaqt Bakker qaytib chiqdi. Fermer soqchini gapga solib turganini ko'rib, aravaning narigi tomoniga o'tdi – ularga orqa o'girib turgancha brezent tagiga qo'l tiqdi. Yumshoq pichan orasidagi kartoshkalarga qo'li tegdi. Ularni birin-sirin olib keng jomakori qo'yniga tiqdi va eski kamzulining tugmalarini taqdi. U ustkiyim o'mida kiyib olgani bu qopdek kamzuldan hech nima sezilmasdi. Bakker ikkinchi qopni yelkasiga ortib oshxonaga yo'naldi. Uchinchi qopni tashigani kelganida qolgan kartoshkalarni ham qo'yniga yashirdi.

Odatda ko'p ham vaysayvermaydigan bu golland bilan tuturiqsiz narsalarni gaplashish joniga tegdi, shekilli, soqchi arava tomon qaradi: bo'lay deb qoldimikan?

Bakker oxirgi qopni yelkasiga ortayotgan edi. Yansonga ko'zi tushgach, rahmat ma'nosida bilinarbilinmas bosh silkidi. Soqchi ham buni ko'rди, lekin buni ish bitdi deb tushundi. U hali ham ob-havo-yu, kelgusi yilgi hosil haqida ezmalanayotgan Yanson-ga shartta o'girilib:

– Bo'ldi, safsatangni yig'ishtir-da, daf bo'l! – dedi.

Bakker yelkasida qop bilan oshxona eshididan kirib ketganini ko'rgach, fermer gapdan to'xtab, aravasi tomon pildirab ketdi. Soqchi ham fermerning

ortidan yurdi. Ish ishkalsiz, silliq bitganidan xursand Yanson:

– Keyingi hafta karam olib kelaman, – dedi.

Soqchi bosh silkidi, biroq unga fermer nima olib kelishining zarracha qizig'i yo'q edi.

Yanson otini qoziqdan yechib, aravaga o'tirdi-da, uch-to'rt marta «chuh-chuh»lab otni yurishga undadi va darvoza tomon yo'naldi.

Bakker so'nggi qopni omborxonaga qo'ygach, oshxonadan tashqariga chiqadigan yo'lakka qarab chopdi. Burchakda – hojatxona eshigining chap tomonida to'nnkarib qo'yilgan yog'och quti bor edi. Atrofga bir alanglab olgach, Bakker uni ko'tardi va o'tirib qo'ynidagi kartoshkalarni yerga to'kdi. Yana yon-atrofga qarab, kartoshkani sanab ko'rди: ropa-rosa yigirma beshta ekan. Bitta kartoshka to'rtta asirga to'g'ri keladi va ozroq ortib qoladi. Juda oz-u, mayli-da, shu ham ularga yo'q edi-ku!

U kartoshkalarni to'p-to'p qilib ajratib, ustiga yana qutini to'nnkarib qo'ydi-da, o'rnidan turdi. Yengi bilan peshonasidan chiqqan terni artdi. O'zicha mamnun iljaydi: «o'lja» kam-ku, ammo, boshlanishiga yomon emas!

To'g'ri, eng qiyin ish oldinda turibdi – ertaga bu «bebaho» kartoshkalarni o'zbek birodarlarga berish kerak.

## Yigirma yettinchi bob

Oshxonada oshpaz kichkinagina o'choq ustiga ilingan uchta katta-katta qozonda yovg'on sho'rva qaynatmoqda edi. Qozon ichida onda-sonda karam barglari sužib yuribdi, kartoshkasi esa ezilib yo'q bo'lib ketgan. Sho'rvaga solinadigan kartoshkani bir kun avvaldan Bakker bilan yana bir mahbus artadi. Soqchi xona burchagidagi kursida o'tiribdi, ba'zan ulardan ko'z uzmaydi, ba'zan esa mutlaqo nazorat qilmaydi.

Bugun Bakker soqchidan uchinchi marta hujatga chiqishga ruxsat so'radi. Albatta, oxir-oqibat gardaniga miltiq qo'ndog'i bilan yengilgina zarba ham tushdi. Biroq u ustomonlik bilan yana qorni burab og'riyotgandek aftini burishtirib, tizzalab o'tirgancha qornini changallab olgach, soqchi unga jirkangandek qaradi-da, chiqishga ruxsat etdi. Ehtimol, soqchingning bunday, ya'ni sal tuzukroq munosabatiga sabab – Bakkerning boshqa mahbuslardan farqli o'laroq, vasserdoycher, ya'ni chala nemis: otasi – golland, onasi – nemis, ya'ni chin oriy ekanidir.

To'g'ri, oxirgi marta ruxsat bergach, soqchi uning ortidan achchiq aralash baqirdi:



– Tibbiy bo'limga o'tsang bo'lmaydimi? Bu yer dagilarga ham yuqtirib yurma tag'in!

Bakker ortiga o'girilib minnatdorona bosh silkidi:

– Rahmat, herr askar! Kechgacha yaxshi bo'lmasam, albatta tibbiy bo'limga o'taman. Sog' bo'ling, herr askar!

Harqalay, ovora bo'lishga arzigulik ish edi bu! Hojatga har ruxsat so'rab chiqqanida Bakker yog' och quti tagidan bir nechta kartoshka olib, unitazga oqizishga ulgurardi. Oxirgi gal chiqqanida u shu bugun qo'lga kiritilgan yigirma besh dona kartoshkadan oxirgi yettitasini «belgilangan yo'l bo'yicha» oqizib keldi.

Urushdan oldin Rotterdamdagи ta'mirlash korxonasida muhandis bo'lib ishlagan Bakker bunday «yashirish usuli»ni yo'l-yo'lakay emas, obdan o'ylab topgan edi. Soqchilarning doimiy tiyraknigoh kuzatuvidan yashirib, oshxonadan tashqari-ga biron nima olib chiqish amrimahol edi. Lekin oshxonanining oqova suvi oqiziladigan quvurlarni muntazam tozalab turish Bakkerning zimmasiga yuklangan edi. Shunisi qo'l keldi-yu, u mana shunday «yashirish usuli»dan foydalanishga qaror qildi.

Oqova suv chiqadigan quvur tarmog'i juda sodda qurilgan edi: hojatxona suvi quvur orqali o'raga oqib tushardi. Bu o'raga har xil chiqindi, hatto tibbiy bo'limdan chiqqan odam tana a'zosi qoldiqlari ham



tashlanardi. Nemislar axlatga to'lgan, ustidan pashsha arimay, mudom sasib yotadigan bu o'raka yaqin ham yo'lamasdi, aynan shunisi ham yahudiylar ishini yengillashtirdi.

Bakker bunday bir usul o'ylab topgan edi: avvaliga u hududdan keraksiz tikansim yig'di. Bir to'p sim yig'ilgach, bir necha tun ovora bo'lib undan kattagina savat to'qigan, ortib qolgan simdan uning og'ziga bukiladigan tutqich ham yasagan. Chiqindi quvuri to'lgach, tozalash bahona ana shu savatni o'raka joylab qo'ygan edi, mana endi, undan hamma suyuqlik oqib ketadi-yu, sal yirikroq narsalar, deylik, oshxonadan tuya qilish imkonni bo'lgan kartoshka va sholg'om kabi sabzavotlar hojatxonadan oqizilsa, savatga kelib tushardi. Savatning bukiladigan tutqichlarini o'raning chekkasiga mahkamlab, ustiga tuproq tortib qo'ygan edi, tutqich mutlaqo ko'zga tashlanmay qoldi. Kerak bo'lganda ana shu tutqichdan tutib savatni tortib ichidagi sabzavotlarni olish mumkin. Shu tarzda yahudiylar bir necha bor yemish qo'lga kiritgan. Endi bu «usul»ni qo'llab o'zbek birodarlariga yordam qilishmoqchi.

Qorong'i tushib, qamoqxona hududida siyrak chiroqlar yongan payt yahudiy Nunes tibbiy bo'limdan ikkita chelak ko'tarib chiqdi. Ularning usti qip-qizil qonga belangan eski latta bilan yopilgan edi. U chiqindi o'ra tomon yurdi. Doktorning jarrohlik amaliyotidan chiqqan va kech-

gacha tibbiy bo'limda yig'ilib qolgan qon, fasod, odam tanasining parcha-purchalarini o'sha o'ranga olib borib to'kish Nunesning kundalik vazifasi edi. Shu bois u hech kimda shubha uyg'otmasdi.

U odaticha chelaklarni o'ruga ag'dardi va atrof-ga alangladi. Hech kim kuzatmayotganiga amin bo'lgach, cho'kkalab o'tirib tuproqni surib savat das-tasini topdi va sassiq balchiqdan savatni tortib oldi. Suyuqlik butunlay oqib ketguncha kutib o'tirdi. Qara-sa, yarim savat kartoshka qolibdi. U kartoshkani ikki chelakka teng bo'lib soldi. Savatni joyiga – o'ruga o'rnatib, dastasini o'ra chetiga mahkamladi va ustini avvalgidek tuproq bilan ko'mib qo'ydi.

O'rada sal narida suv jo'mragi bor edi: hududda yong'in chiqsa foydalanish uchun ehtiyotdan o'rnatilgan. Odatda, bu yerda faqat o'ruga narsa tashiydigan asirlar qo'l yuvar edi. Nunes chelaklarni jo'mrak tagiga qo'yib, kartoshkalarni tez-tez yuvib oldi. So'ng chelakdag'i suvni sepib yuborib kartoshkani soldi va ustini odatdagicha latta bilan yopdi-da, tibbiy bo'limga qarab ketdi. Kechqurun kartoshkani cho'ntaklari va qo'yniga yashirib, beba ho bu boylikni ziyon-zahmatsiz barakka olib keldi va Aleks de Leuga topshirdi.

Aleks kartoshkani sanab chiqqach, «Ertalab kon-ga borganda menga qaytarib berasizlar» deb o'zi ishonadigan yigirma besh nafar yahudiy va golland mahbusiga bittadan tarqatdi.

## Yigirma sakkizinch bob

Mahbuslar g'ira-shira tongda har kungidek yo'l-yo'lakay turtki va so'yil yeb konga yetib keldi.

Aleks bilan Hoshim odaticha ikki dastali arrada xoda kesa' boshladi. Bugun negadir Aleksning ko'zлari o'zgacha yonib turardi, buni Hoshim darrov payqadi. Aleks do'stini uncha intiq qilmay, yangilikni aytdi:

– Biz sizlarga deb kartoshka «gum» qildik. Yigirma besh dona. To'g'ri, ko'p emas-ku...

– Qanday qilib? Sizlar... o'zingiz ham ochsizlar-ku?.. – dedi Hoshim ko'zida yosh qalqib, u hozir shunday xushxabar keltirgan do'stini mahkam quchoqlab olgan bo'lardi, lekin soqchilar e'tiborini tortmaslik uchun quruq rahmat aytish bilan cheklandi.

– Rahmat sizlarga, aka, – dedi u.

Aleks to kechgacha, atay shoshilmay, o'zinikilar dan kartoshkani bitta-bittalab olib, Hoshimga topshirdi.

U ham kartoshkani o'z yigitlariga bittadan tarqatib chiqdi.

– Bu – bitta o'zingga emas, hammaning tegishi. Qamoqxonaga borganda menga qaytarib berasan.

– Hoshimdan kartoshka olganlar ma'qul deya bosh irg'ab, go'yo bebaho javohirdek uni avaylab kissalari-yu, qo'yinlariga tiqishdi. Mahbuslar vaqtı-vaqtı bilan tushib qolmadimikan deb qo'yinlari-yu, kisalarini paypaslab qo'yishardi.

Qamoqxonaga qaytgach, kechasi yigitlar Hoshimga kartoshkani qaytarib berishdi. Asirlarning och nigohi ostida Hoshim yig'ilgan kartoshkani sanadi. Negadir bitta kam chiqdi. Bir necha bor sanadi, yo'q, adashmabdi: yana yigirma besh-ta emas, yigirma to'rt dona! Butun «qo'ra» bo'ylab g'azabnok shovqin ko'tarildi: kim o'g'irladi, kim bunga jur'at etdi?

Hammadan ham qiziqqon Shuhratning fig'oni falakka chiqib ketdi.

– O'sha kalamushni o'ldirsak kam! Qo'lim-ga tushsin, bo'g'ib o'ldiraman! – dedi u alamdan qizarib-bo'zarib.

– Shuhrat, o'zingni bos, hozir aniqlaymiz, – dedi bosiqlik bilan Hoshim. – Bir kami, shugina uchun bir-birimizni bo'g'izlashimiz qoluvdi!

Shu vaqt Umid sudralib, yo'talib Hoshimga yaqinlashdi. Doktor qo'lini «davolab» qo'ygani, ya'ni barmog'ini chopib tashlaganidan keyin u hali o'ziga kelolmagan edi. Hatto g'arib-bechora shu asirlar orasida-da u hammadan nochor ko'rinaridi – yuziga toshma toshgan, bo'ynida qon silqib turgan yara... U tinmay ko'zyoshini artib, g'udranar edi:

– Men, men o'sha... Hoshim aka, siz ishonib topshirgan kartoshkani... men yeb qo'ydim...

– Voy ablah-ey! – dedi Shuhrat uning nimjon gavdasini changallab. Biroq Hoshim shosha-pisha Shuhratning qo'liga bir tushirdi, u yigitni qo'yib yubordi.

– Shuhrat, men avval ham aytgan edim: hamma senga o'xshab kuchli, sabr-bardoshli emas.

– Hoshim aka, yigitlar, meni kechiringlar, yolvoraman. Men irodasizlik qildim, chiday olmadim... – derdi Umid yig'lab. – Qanday jazo bersangizlar ham mayli. Aybdorman...

Asirlar achchiqlanib, g'ala-g'ovur ko'tarishdi. Hoshim qo'lini dast ko'targan edi, hamma birdan jimb qoldi.

– Bo'ldi, bas! – dedi Hoshim va yigitlarga birbir qarab chiqdi: hammasining ko'zida nafrat, bari asabiy. – To'g'ri, u chiday olmay o'z tegishini yebdi. Boshqalar ham, deylik, siz ham, men ham shunday qilishimiz mumkin edi-ku. Menimcha, uni kechirsak bo'ladi!

– Iltimos, iloji bo'lsa, meni kechiringlar, og'aynilar, – derdi nuqul Umid ko'zini yerdan uzmay hiqillab.

Hech kim lom-mim demadi. Atrof suv quygandek tinchib qoldi. Birozdan so'ng Hoshim:

– Xo'sh, qani, Shuhrat, Ilhom, katroshkani teng taqsimlab hammaga tarqatib chiqinglar-chi!

Shuhrat qoshig'ining o'tkir uchi bilan har bir kartoshkani teppa-teng qilib to'rt bo'lakka bo'la boshladi, jangchilar undan ko'z uzmay turishibdi. Ilhom hammaga o'z tegishini tarqatdi. Ba'zilar kartoshka bo'lagini olasolib chaynamay yutib yubordi, boshqalar esa aksincha anchadan beri tuz totmay, mazasi esidan chiqay degan yemakdan ko'proq huzurlanmoqchi bo'lgandek uzoq chaynab so'ng yutdi.

Boshqa kunlarga qiyoslaganda shu bugun osh-qozonini sal-pal aldab olgan asirlar uqlashga yotarkan, shirin xayolga berildi: ular albatta «Amersfort kemp» atalmish bu jahannamdan qutulish yo'lini topadi.

## Yigirma to'qqizinchi bob

Ertasi kuni ham asirlar odatdagicha ur kaltaksur kaltak bilan uyg'otildi. Kaltak, tayoq yemaslik uchun uncha-muncha pishib ketgan «tajribali» asirlar «qo'ra»ga soqchilar so'yil ko'tarib kirmasidan avvalroq uyg'onishga odatlangan edi.

Barchani haydab chiqarishgach, asirlar safga tizilib, qamoqxona darvozasi tomon yurishga shay bo'lib turishgandi. Ilhomgina hali «qo'ra» ichida,

chiqishga ulgurmagan edi: kimdir ihrayotganini eshitib to'xtadi va qulq soldi. Negadir yana jim-jit.

– Menga shunday tuyuldi, chog'i, – deb o'yladi u. Biroq yana ingragan ovoz keldi, bu gal aniq eshitdi. U ortiga o'girilib ovoz kelgan tarafga qaradi.

«Qo'ra»ning quyi qismida, bir burchakda og'-riqdanmi afti burishib, g'ujanak bo'lib Umid yotibdi. Na asirlar, na fashistlar ko'ribdi uni. Ilhom shosha-pisha u tomon yurdi. Ilhomga ko'zi tushgan soqchilardan biri so'yilini hozirlab, ichkariga bostirib kirdi. Ivirsib yurgan asirning boplab ta'zirini beraman deb chog'langan edi, burchakda cho'zilib yotgan yana bir osiyolikni ko'rib qoldi.

– Tur o'rningdan! Nima bu cho'zilib yotish? – dedi Umidning tepasiga kelgan soqchi uning biqiniga bir tepib.

Umid battar ingradi, oyoqqa turishga holi yo'q edi uning. Soqchining ovozini eshitib Shtyover va boshqa asirlar ham ortiga o'girilib qaradi.

– Hoy, nima gap? – deb baqirdi Shtyover turgan yeridan.

– O'zini kasalga solib yotibdi! – dedi sovuq ishshayib soqchi.

Mahbuslar nima bo'lganini bilishga qiziqib orqaga qaytmoqchi edi, Shtyover shang'illab to'xtatdi:

– Bo'ldi, tomosha tugadi! Hamma ishga! – Soqchilar shu buyruqni kutib turgandek asirlarni qo'nadoq bilan urib katta darvoza tomon haydadi.



– Hoy, yahudiy! – «qo'ra»ga qarab borarkan Shtyover Aleks de Leuni chaqirdi. – Yur men bilan!

Soqchi Ilhomga imo qildi: manavi hayvonni turg'iz!

– Og'ayni, senga nima bo'ldi? – dedi Ilhom Umidning turishiga ko'maklasharkan.

– Qornim, qornim g'ijimlab og'riyapti... – dedi arang afti burishib, ihrab Umid.

– Qani, bir ilojini qilib tura qol, yo'qsa anavi ifloslar seni tibbiy bo'limga yuborishadi, – dedi Ilhom. Biroq Umid turadigan ahvolda emas edi.

Shu vaqt «qo'ra»ga Shtyover, Aleks va ikkita qurolli soqchi kirdi.

– Yana shumi? Bu gal nima jin uribdi? – dedi Shtyover ensasi qotib.

– Qorni burab og'riyapti, – dedi Ilhom Aleksga qarab, u esa buni nemischaga o'girib muovinga yetkazdi.

– Hm, – dedi miyig'ida kulib Shtyover, – yana tibbiy bo'limga borgisi kelib qolibdi-da, a? Aftidan, bitta barmog'i kesilgani kamlik qilgan ko'rindi.

– Qani, ko'tarib bo'lsa ham turg'izishga harakat qil, aks holda, tibbiy bo'limga olib ketishadi, – dedi Aleks Ilhomga ovozi qaltirab.

Ilhom Umidni suyab turg'izmoqchi bo'ldi, biroq befoyda – yigit hatto boshini ko'tarolmadi.

Shtyover g'azabdan titrab-ko'karib o'shqirdi:

– Ishlaging kelmay qoldimi, yaramas?! Tur o'rningdan! – u Umidning qorniga ayamay tepdi. Yigit

og'riqning zo'ridan o'kirib yubordi va yumalay bosh-ladi. – Senlar, – dedi Ilhom bilan Aleksga ko'zлari bat-tar ola-kula bo'lib Shtyover, – yo'qollaring, ko'zimga ko'rhma! Ishga bormay nima bor bu yerda!

Muovin jahl bilan tupurdi-da, soqchilardan birini «Sanitarlarni boshlab kel», deb tibbiy bo'limga yubordi. Umidning boshiga ikkita soqchi qo'yib, o'zi «qo'ra»dan chiqdi.

Ikki sanitari bilan doktor Nikolas Van Niuenxeyzen ham keldi.

– Darrov tibbiy bo'limga olib boringlar buni,  
– dedi u pinagini buzmay, – o'sha yerda ko'ramiz nima bo'lganini.

Ikki sanitari Umidning ikki qo'lidan ushlab sud-ragancha olib ketdi. Birin-ketin yigitning oyog'idan yog'och choriplari tushib qoldi, biroq hech kim bunga e'tibor bermadi.

Oradan ikki soatlar chamasi vaqt o'tib, doktor Nikolas Van Niuenxeyzen hisob bergani qamoqxon-a boshlig'inining ish bo'lmasiga keldi.

Valter Geynrix oromkursiga yastangancha ix-chamgina qadahdagi konyakdan ho'plab-ho'plab hujjatlarni ko'zdan kechirar, Shtyover esa tepasida turgancha nimadir haqda gapirardi. Doktor eshik-dan bosh suqqach, ikkalasi unga qaradi.

– Kirishga ruxsat eting, herr komendant.  
– Keling, doktor, marhamat, o'tiring, – dedi Geynrix ro'parasidagi kursiga ishora qilib. – Ana-



vi osiyolikning qorni nega og'ripti, nima qilgan ekan?

Doktor avvaliga stoldan joy olmoqchi bo'ldi-yu, keyin fikridan qaytdi: tik turib gapirish yaxhshireqdek tuyuldi. Keyin odaticha vazmin ohangda gap boshladi:

– Herr komendant, Alsher yordamida men o'sha osiyolikni so'roqqa tutganimda o'zim kutgan javobni olmadim. Nima yegan eding degan savolimga u qornim ochlikdan og'riyapti deb javob qildi. Alsher unga bosim o'tkazdi, qiyndi – foydasi bo'lindi: ingrab-ihrab o'sha gapida turib oldi. Shundan so'ng nima bo'lganini bilish uchun tezda jarrohlik amaliyotini o'tkazishga to'g'ri keldi...

– Xo'sh? – dedi ichi qizib komendant.  
– Shunchaki, ichaklari buralib qolgan ekan uning,  
– dedi doktor miyig'ida kulib.

– Biroq qanday qilib? Axir ularga urvoqdek narsa berilmayapti-ku? – dedi hayratdan ko'zlari qinidan chiqqudek olayib Shtyover.

– Hamma gap shunda-da. Lekin uning oshqozonidan kartoshka po'chog'i qoldiqlari chiqdi... – Doktor biroz tin oldi. Shtyover bilan Geynrix bir-biriga qarab qo'ydi. – Osiyoliklarga anchadan buyon ovqat va, ayniqsa, kartoshka berilmayotgani inobatga olinsa, – dedi doktor yana istehzo bilan, – qamoqxona rahbariyati bexabar bu yerda qandaydir maxfiy ish bo'lyapti deb taxmin qilish mumkin.



– Demak, kartoshka deng! Ammo bu harom qotgurga kim berdi ekan kartoshkani? – dedi Geynrix gezarib.

Shtyover hadik bilan komendantga nazar tashla-di-da, joyidan qo'zg'aldi.

– O'sha osiyolikni o'zim gapirtiraman! Qachon hushiga keladi? – deb so'radi u doktorga qarab.

– Buning iloji yo'q deb qo'rqaman, – dedi doktor yana nafasini rostlab olib.

– Nimaning iloji yo'q?

– Uni so'roq qila olmaysiz deb o'ylayman, – dedi doktor Van Niuenxeyzen vazmin ohangda. – Hali juda yosh bo'lishiga qaramay, og'riqqa chiday olmay, amaliyot stolining o'zida jon berdi. Eng qizig'i, – dedi doktor ovozi jonlanib, – uning qornini yorib ichagini tekshirayotganimda u hali tirik edi. To'g'ri, qo'rqqanidan yuragi yorilib ketayozdi, biroq joni uzilguncha o'sha kartoshkani o'zim topib oldim deb turib oldi! – Doktor Geynrixning afti burishib ketganini ko'rdi. – Ba'zan odam vujudi ana shunday g'aroyib xususiyatlarga ham qodir bo'ladi. Hay, mayli... Bu yog'i mening tajribalarimga bog'liq gaplar... – dedi u o'sha-o'sha sovuqqonlik bilan so'zini yakunlab.

– Herr komendant, – dedi Shtyover, – men bu cho'pchakka ishonmayman, kartoshkani o'zi topib olgan mish, bo'limgan gap.

– Gapingizga tamomila qo'shilaman, herr Shtyover, – dedi doktor.

## O'ttizinchi bob

Ertalab konda ular odatdagicha ishga kirishgan chog' Aleks Hoshim o'ziga nimadir demoqchi ekanini payqadi. Biroq bular yaqinida turgan soqchi xuddi nimanidir sezgandek bir soniya ulardan ko'z uzmasa deng. Shu tarzda ikki soatlar chamasa vaqt o'tdi. Nihoyat, bunchalik qulog'ini ding qilib turish soqchining ham joniga tegdi, shekilli, chekkaroqqa o'tib cheka boshladi.

Hoshim darrov shivirlab gap boshladi.

– Aleks, og'ayni, o'ylayverib kallam yorilib ketay deyapti: bu nemislar bizdan nima xohlaydi o'zi? Itdek xorlashyapti. Bu yerda bizdan boshqa bironta asirni bunchalik tahqirlashmayapti-ku. Bizga na ovqat, na suv berishadi. Shundayin sovuqda, muzdek yomg'ir ostida ochiq «qo'ra»da, zax yerda yotibmiz. Anavi qassob doktor bizning ustimizda tajriba o'tkazsa... Yigitlarim darmonsiz, kundan-kun kuch-quvvatdan qolyapti. Ahvol shu tarzda ketsa, yaqin kunlarda biz ishlash tugul, qimirlashga ham yaramay qolamiz. Xo'sh, bizni nima qilishmoqchi bular? Undan ko'ra, tinchgina otib tashlay qolishmaydimi – bitta-bittalabmi, baravarigami, farqi yo'q.

– Bilmadim, Hoshim, bilmadim. Nemislar umri bino bo'libdiki, biz – yahudiylarni ko'rarga ko'zi, otarga o'qi yo'q. Biroq aftidan, bizzdan ham ko'ra sizlardan ko'proq nafratlanishadi. Shuncha azob, qiyonoqqa qaramay, sizlar kurashyapsizlar, ham-mangiz bir bo'lib ularga qarshi chiqyapsizlar. Sizlarga qoyil qolyapman, rosti.

So'ng ikkalasi ham jimib qolishdi: har kim o'z o'y-xayoliga g'arq bo'lib ketdi.

– Og'ayni, sen hech qo'rqmaysanmi, a? – dedi birdan jimlikni buzib Aleks.

– Qo'rqaman, og'a, qo'rqaman. Men ham od-diy bir odamman. O'limdan emas, mana shunday – qo'lidan hech ish kelmaydigan notavondek o'lib ketishdan qo'rqaman. Bu gazandalarga qo'rquv yoki ojizligimni aslo ko'rsatmayman, bunga haqqim yo'q. Yigitlarim ham menga qarab, men-gagina ishonib chidab kelishmoqda bu azoblarga axir!

Ular mana shu «nemischa jumboq»ni muhoka-ma qilar ekan, Hoshim Aleksga yanada yaqin-roq engashib gap ochdi. U o'zlariga xayrixoh bu yahudiyaanchadan beri butunlay ishonar edi.

– Menga qara, og'ayni, sen bilan bu yerdan qochish mumkinmi-yo'qmi, shuni gaplashmoqchi bo'lib yurgan edim o'zi.

Aleks atrofga alanglab oldi-da, bosh chayqadi:

– Buning sira iloji yo'q deb o'ylayman, do'stim. Ba'zi asirlar harakat qilib ko'rgan. Lekin hammasi qo'lga tushgan, hammasini otib tashlashdi.

– Avval barini obdan o'ylab, pishitib-puxtalab rejalaشتirish kerak. Agar imkon topilsa, ularning qurol-yarog'ini olish kerak, keyin o'rmonga yashirinamiz, guruh tuzamiz, balki mahalliy xalqdan bizga qo'shiladiganlar topilar. O'sha yerdan, ya'ni o'rmonda turib bu ablahlarga hujum qilamiz, bosqin uyushtiramiz...

– Hoshim, rosti, bunga ko'zim yetmaydi...

– Aleks! Sen shu yerliksan-ku! Bu simto'siqdan chiqib olgach, qayga qochish, qayerga yashirinishni bilasan sen!..

Aleks bu «jahannam»dan qochib qutilish imkoni borligiga ishonmasdi, mabodo shunday bo'lган taqdirda ham qamoqdan tashqarida qayerga yashirinish, qayoqqa qochish mumkinligini rostdan ham bilmasdi. Biroq u qo'lidan kelganini va, hatto, undan ortig'ini qilishga hozir edi. Konda ishlayotganidan buyon u ko'p o'zbek yigitlar bilan gaplashdi. Uni qoyil qoldirgan narsa shu ediki, mana shu oyog'ini bazo'r ko'tarib bosayotgan och-yupun, sillasi qurigan odamlarning hammasi doim bir ovozdan fashistlarga qarshi kurashmoqchi ekanini ta'kidlaydi.

– Eh, qo'limizda biron-bir qurol bo'lganidami, – derdi ular, – Vatan uchun jonni qurbon qilish kerak bo'lsa, qilaverardik!



Ertasiga ish kuni juda qiyin kechdi, aslida-ku, hech bir kun oson o'tmas edi. Buning ustiga, och-nahor ishlash kundan-kun qiyinlashib bor-moqda edi.

Og'ir mehnatdan obdan tinka-madori qurigan o'zbeklarning fikri-yodida birgina o'y: tezroq o'sha «qo'ra»ga yetib olishsa-yu, o'zini yerga tappa tash-lashib, uslashsa.

Biroq aksiga olib, shu bugun nafaqat o'zbek asirlarni, qamoqxonadagi barcha mahbuslarni ish-dan qaytar-qaytmas maydonga olib chiqib safga tizib qo'yishdi.

Ularning qarshisida Shtyover bilan Aleks de Leu turardi.

– Bugun butun qamoqxona ahli och qoladi! – dedi Shtyover tantanavor ohangda. Uning gapini Aleks o'zbeklarga tarjima qilib berdi. Boshqalarga esa bu shundoq ham tushunarli edi.

– Nega endi ovqat bermaysiz? Aybimiz nima bizning? Kim ayb ish qilgan bo'lsa, o'shaning o'zi jazosini olsin! – derdi asirlar shovqin solib. Har tarafdan – nemischa, farangcha, gollandcha va, hat-to, yahudiycha e'tirozlar eshitila boshladи.

Aftidan, bu Shtyoverga xush yoqmoqda edi: «Mana, nihoyat, bu ahmoqlar o'zbeklarga achin-maydigan bo'ladi va ularga yordam berishdan oldin kallasini ishlatadi: to'g'ri-da, shularni deb och qolsinmi!»

Aleks de Leu, odatda, Shtyoverning gaplarini tarjima qilishdan oldin Alsher yo'qmikan deb u yoqbu yoqqa ko'z tashlab olardi. Bugun u ko'rinsmasdi, lekin Aleks ham o'zidan hech nima qo'shmay Shtyover nima degan bo'lsa shuni tarjima qildi.

– Sizlar hammangiz aybdorsiz! Orangizdan kimdir o'sha osiyolikka kartoshka bergan! Aybdor aybini bo'yniga olib iqror bo'lsa, boshqalarni qutqarardi!

Biroq hech kimdan sado chiqmadi. Hammasi og'ziga talqon solgandek jim. Hatto boyta baqirchaqir qilgan asirlar ham og'iz ochib lom-mim demadi.

Shtyover ularga birma-bir tikilib-tikilib qaradi.

– Demak, aytmaysizlar? Yaxshi, o'zlariningdan ko'rlaring, biz baribir aybdorni topamiz! Shubha qilmay qo'ya qollaring! – dedi u qat'iyat bilan gapi-ga yakun yasab.

Shu zahotiyoy o'zbeklarni urib-kaltaklab «qora»ga, qolgan asirlarni barakka haydadilar. Ular ham shu kecha och qolishdi: na bir tomchi suv, na bir kesim non berishdi.

Oshqozon surnay chalib turganda kimdir ugray olmadi, charchoq yengib kimdir yotishi bilan dong qotdi.

Shuhratning ko'ziga uyqu kelmadni.

Tabiatan sho'x bu yigit bugun kun bo'yli og'iz ochib gapirmadi, «Kecha shu bir dona kartoshka

uchun nega Umidga tashlandim» deb o'zini o'zini yedi. «Tibbiy bo'limga borganimda konda nemislar urib o'ldirgan sheriklarimizning kallasini katta qozonga solib qaynatishayotganini ko'rdirim» deb vahima bilan gapirib bergenida Umidga bitta Shuhrat ishonmagan edi. Hozir shularni o'ylab o'zidan o'zi jahli chiqayotir. To'g'ri, boshida u 'bularning barini barmog'i chopilgach, og'riqdan esankirab qolgan Umid to'qigan «cho'pchak»ka yo'ydi. Keyin o'ylab, mushohada qilib ko'rgach, ming aqlga sig'masa-da, vahshiyona, dahshatli tuyulsa-da, bu gaplar haqiqat ekanini tushundi: o'sha doktor hatto o'liklarni ham xo'rslashdan toymayapti.

– Shuhrat, nega uxmlamayapsan? – deb so'radi shivirlab Ilhom. U ham mijja qoqmay yotgan ekan.

– Ular bizni tirik qo'ymaydi. Bitta-bittalab o'ldiradi. Yoki tiriklayin anavi odamqassob doktorning qo'liga topshiradi, – dedi Ilhom tarafga o'girilmay, hatto boshini ham ko'tarmay Shuhrat.

– Hammani o'ldirisholmaydi, Shuhrat. Hoshim aka nima degani esingdami? Biz kuchli bo'lishimiz, bu azoblardan qutulib ketishimizga ishoni-shimiz...

Shuhrat jahl bilan qaddini rostladi va Ilhomning ko'zlariga tikilib qaradi:

– Ishonish kerak deysanmi? Qanday ishonasan? Bugun bular Umidni o'lirdi, ertaga gal menga keladi, keyin senga...

Shuhrat shivirlab gapirayotgan bo'lsa-da, hozir Ilhomga shang'illayotgandek tuyuldi. Shunga u yana ham sekin gapishtiga urindi:

– Mana men, tirik qolishimizga ishonaman.

– Ishonasan? Hoshim aka aytgani uchun, shundaymi? – dedi ensasi qotganini yashirmay Shuhrat.

– Ha, darvoqe, sen doim birovning gapiga qulqoq tutib kelgansan. Kamsuqum, itoatgo'y, yuvosh bolakay! Hech qachon mustaqil fikring bo'limgan. O'zing mustaqil biror qaror qabul qilolmagansan. Shuncha yil shug'ullanib, odamga o'xshab haykal yasashni-da o'r ganolmagansan. E, ochig'ini aytganda, sen, aslida, haykaltarosh bo'lmoqchi ham emas eding. Sen uchun boshqalar qaror qilgan, shunga ko'na qolgansan, tamom!

– Shuhrat, og'ayni, nega unday deysan? Bu gaplarni achchiq ustida aytyapsan, to'g'rimi?! Men bolaligimdan rassom, haykaltarosh bo'lishni orzu qilganman, buni o'zing ham yaxshi bilasan! Faqat bu ish o'ylaganimdan ancha-muncha qiyin bo'lib chiqdi. Ammo men baribir niyatimga yetaman, mana ko'rasan!

– Ya'ni, tirik qolishingga, bu yerdan qutulib ketishingga ishonching komil, shundaymi?

– Xuddi shunday, ishonchim komil!

– Lekin sen bir narsani tushunmayapsan, – dedi Shuhrat. – Hoshim akaning o'zi nima qilishni bilmayapti-ku hali. Bu yerdan qutulishning biror yo'li-

ni topaman deb va'da bergani qachon edi? Qani, topdimi yo'l? Yo'q! Shuning uchun bizga doim ishonish kerak, ishonish kerak deydi, xolos.

– To'g'ri-da, ishonch bo'lmasa, bari bekor. Esingdami, ikki yil avval, ikki-uch bezori uying yonidagi do'konda sotuvchini kaltaklab, tamaki o'g'irlab ketganda, sening aybsiz ekaningga, o'sha o'g'rilarغا sherik emasligingga bitta Hoshim aka ishongan edi...

– E, u – boshqa gap...

– Hecham boshqa gap emas. Ishonch shunaqa bo'ladi. Boks to'garagidan haydalganiningda-chi? Kim sening tarafingni olgan, kim kafillikka olgan edi? Hoshim aka emasmi? Eh, seni qara-yu... Men ham ishonganman senga... Sen bo'lsang...

– O'v, yigitlar, qani ikkalang ham chakagingni yum-chi! – dedi birdan jahl bilan Hoshim. – Menga qara, Shuhrat, to'g'ri, sen haqsan. Men rostdan ham hali biror yo'l-chora topolmadim. Biroq biz birgashib bir ilojini qilamiz, xotirjam bo'l. Yana shu gap: bir-birimizga ishonaylik, ishonchni yo'qotmaylik. To'g'ri aytding, ertaga har birimiz ajal bilan yuzma-yuz kelishimiz hech gap emas. Ammo fashistlar bizni sindirishiga yo'l qo'ymaylik. Buning uchun barchamiz bir bo'lib ularga qarshi turishimiz kerak. Bizning kuchimiz shunda! Endi esa uxlanglar, yigitlar! Bu – buyruq!



## O'ttiz birinchi bob

Hovuzcha joylashgan yerdan na harbiy maydon, na qamoqxona baraklari va na oxirgi vaqtlar Valter Geynrixning qonini qaynatayotgan osiyoliklar yotgan «qo'ra» ko'zga tashlanar edi. Bir oycha avval u hovuz bo'yiga qamoqxona devoriga orqa qilib xarrak o'rnattirgan edi. Bu yerda o'tirib u o'zini qamoqxona hududida emas, allaqayerda, uzoqda – suvi sokin, sohili serqamish bir ko'l bo'yidaman deb tasavvur qilishi mumkin. «Tabiiyki, bunday ko'lda o'rdaklar suzib yuradi», deya xayolidan o'tkazdi Valter. Xuddi shu chog' osmondan o'rdaklar galasi uchib o'tsa deng. Hoynahoy issiq o'lkalarga uchib ketishayotir. Ular izidan kuzatib qolarkan Geynrix istar-istamas yana o'zini qiynatayotgan, joniga tekkan o'y-xayollariga g'arq bo'ldi.

Bugun kun bo'yi kartoshka bilan bog'liq mojaroni o'yladi. Butun boshli ma'muriyat, shaxsan o'zining doimiy, qat'iy nazoratiga qaramay, qamoqxonada shunday noma'qul ishlar sodir bo'lsa-ya. Shunisiga kuyiblar ketadi u. Anavi osiyolik o'limi oldidan o'sha la'nati kartoshkani o'zim topib oldim, deb qayta-qayta ta'kidlaganmish! Yolg'on bu! Shu

gapga ishonadigan anoyiga o'xshaymanmi men? Axir osiyoliklarning birortasi oshxonaga yaqin yo'latilmaydi, o'g'irlab olish haqida gap ham bo'lishi mumkin emas. Bu barakdagi mahbuslarning ishiga o'xshayapti. Ulardan ba'zilari oshxonada ishlaydi, aftidan, shular «mehribonlik» qilgan. G'azabdan Valterning tishlari g'ichirlab ketdi.

Bugun qamoqxonadagi mahbuslarning barini och qoldirish haqida buyruq berib to'g'ri qildi. Bu ish berishi tayin. Tabiiyki, bunday jazodan norozilar topiladi. Ana shular bulbuldek sayrab beradi: darrovgina haqiqatni aytadi-qo'yadi. Qarabsizki, aybdorning nomi oshkor bo'ladi. Komendantning o'zi, bu – Bakker bilan Aleksning qilmishi degan fikrda. Bakker har safar fermerlar aravasidagi yukni tushiradi, barakdagi mahbuslardan faqat Aleks osiyoliklarning boshchisi – anavi yaramas bilan osh-qatiq. Oti nima edi? Ha-ya, Hoshim, shekilli... O'zi o'lgudek nafratlanadigan, bilgisi ham kelmaydigan bu ism darrov esiga tushganini qarang! Shuni o'ylab Geynrix battar tutaqib ketdi, asabiylashganidan ko'zi ucha boshladi, miyasiga og'riq kirdi – go'yo o'ta yoqimsiz, tutganini qo'ymaydigan bir odamcha boshiga kirib olgan-u ichidan tinmay urib taqillatayotgandek. U asablarini tinchlanirmoqchi bo'lgandek kaftini ko'zi ustiga qo'ydi. Ko'zi uchiishi rostdan ham biroz kamaydi, lekin turib-turib o'zidan yozg'irdi – kimsan, qamoqsona boshlig'i,

obershturmfyurer, buning ustiga, oriy irqiga man-sub odam sariq chaqaga arzimaydigan qayoqdag-i bir osiyolik haqida o'ylab o'tirsa. «Hoshim!» Go'yo o'lganning ustiga chiqib tepgandek o'sha go'rso'xtaning ismi esida qolgani-chi!

Geynrix Shtyoverning fikriga qo'shilishi, shu bugunoq bu badbaxt Hoshimni otib o'ldirish-ga buyruq berishi mumkin. Lekin shunchaki otib o'ldirsa, uni barcha azobdan biryo'la qutqargan, eng yomoni, anavi molsifat qavmi ko'z o'ngida qahra-monga aylantirgan bo'ladi. Yo'q, Hoshim janoblari! Bunday qilsak, sizni mukofotlagandek bo'lamiz! Geynrix bu borada allaqachon qat'iy bir to'xtam-ga kelgan. Shtyoverga ham bu haqda bot-bot gapirib keladi: o'sha Hoshimni boshqa mahbuslar ko'z o'ngida iloji boricha ko'proq tahqirlash, ruhan ezish, odam bo'lib tug'ilganiga pushaymon qildi-rish, ojiz bir notavon, tirik murdaga aylantirish kerak. U shunga loyiq. «Ha, darvoqe, – dedi o'ziga o'zi Geynrix, – bularning barini Martin o'z ko'zi bilan ko'rishi kerak. Dushmanni qanday ezishni, ayamay-achinmay xo'rslashni o'rgansin bola, ko'zi pishisin!» Shu kunlarda o'g'li o'sha odamsiyoq maxluq o'zini qutqarganini juda yuragiga yaqin olib, unga achinib yuribdi. O'sha kungi asabiy suhbatdan so'ng otabola deyarli gaplashmay qo'yishdi, bir-biriga ertalab «Xayrli tong», kechqurun «Xayrli tun» tilashdan ortishmayapti.

Martin sirtdan haliyam itoatkor o'g'il bo'lib ko'rinsa-da, avvalgidek kun tartibiga og'ishmay rioya qilsa-da, Geynrix «Yakka-yu yolg'iz o'g'lini qamoqxonaga olib kelib xato qildimmi» deb o'ylab qoldi. U kutgan natija bo'lindi, o'g'li dushman-ga shafqatsiz, berahm, qat'iyatli bo'lish o'rniga o'sha odamsiyoq maxluqlarga achinib, rahm qilib o'tiribdi. Bular Geynrixning aqliga sig'mayapti hech. Bu ham kamdek, Martin qamoqxona mahbuslari, ayniqsa, o'sha badbaxt o'zbeklar haqidagi so'raganida so'z ohangidan, har bir savolidan nafaqat qiziqish, balki aniq-tiniq ta'na, gina sezilib turadi. Uning nazarida, osiyoliklargaadolatsizlik qilinayotir.

Nega Martin bunchalik yumshoqfe'l? Nega bunchalik rahmdil? Shu o'y Geynrixga hech tinchlik bermayapti. Bu haqda o'ylasa, fig'oni falakka chiqyapti. Miyasidagi qattiq og'riq sabab qovog'i yanada asabiy ucha boshladi. U ko'zlarini yumib boshini xarrak suyanchig'iga qo'ydi, hech nimani o'ylamaslikka harakat qildi.

## O'ttiz ikkinchi bob

Bugun Aleks konga kelmadı, xavotirdan Hoshim ich-etini yedi. Umid bilan bog'liq mojaro sabab qamoqxonə rahbariyati kecha kechasi bilan g'azab otiga mindi, quturdi: hamma baraklarni ostin-ustin qilib tekshirdi, Umidga kartoshka berishi mumkin deya taxmin qilingan o'nlab mahbuslar siquvga olindi, so'roq qilindi. Hoshim Aleks bilan uning hammaslak do'stlaridan qattiq xavotirda: ishqilib fashistlar ularni fosh etmasin-da! Biroq negadir ich-ichidan Aleksga hech nima bo'lmaydi degan ishonch bor, shu unga taskin berardi.

...Bu vaqtida qo'llari orqasida – kishanlangan Aleks Shtyoverning bo'lmasida engashibroq kursida o'tirardi. Uning qarshisidan joy olgan xona egasi stol lampasining chirog'ini Aleksning ko'ziga to'g'rilab, o'rnidan turdi va uning orqasi o'tdi.

– O'sha badbaxt o'zbekka kartoshkani sen berdingmi, turqi sovuq yahudiy? Gapir! Yana kimlarga kartoshka ulashding? – derdi bir gapni qayta-qayta takrorlab Shtyover.

Aleks «Yo'q, men emas» deyishga ulgurmadı, Shtyover o'ng qo'li bilan uning ko'ziga musht

tushirdi, chap qo'li bilan qulq-chakkasiga shapaloq tortib yubordi. Aleksning ko'z o'ngi qorong'ilashib, qulog'i shang'llab ketdi. Shang'llab turgan qulog'iga Shtyoverning dag'dag'ali ovozi kirdi:

– Bilaman, bu – sen va yahudiyvachcha oshnalaringning ishi, iqror bo'l!

Keyingi zarba yana chakkasiga kelib tushdi.

– Bakkermi shering, gapir!

Aleks lom-mim demadi. Shtyover ketmondek mushti bilan bu gal uning jag'iga soldi. Aleksning ko'zlarini tinib stuldan ag'darilib tushdi va hushidan ketdi.

Shtyover «chirt» etkazib tupurdi va jahl bilan:

– Xah, notavon, bir musht yegulik holing bor ekan-ku! – dedi u kuchli zarbdan og'rib qolgan mushtini sermab.

Shtyoverning bo'lmasidan bitta xona narida Alsher bilan Frits Bakkerni so'roq qilmoqda. Uning ham qo'llari Aleksniki singari orqasiga bog'langan. Alsherlarning tergov usuli avvaliga boshqacha edi. Shtyoverdan farqli o'laroq Alsher mutlaqo xotirjam, baqirmasdan mahbusning ko'ziga muloyim tikilib:

– Janob Bakker, aytинг-chi, siz qachon, qayerda va kimga qancha kartoshka berdingiz? Ozmidi yoki ko'proqmidi? – deb so'radi. To'g'ri, uning gap ohan-gidan ozroq istehzo sezilib turardi.

Bakker yelka qisib:



– Herr unter-zobit, men hech kimga hech nima bermadim, – dedi.

Alsher yanada vazmin ohangda:

– Inkor etishdan foyda yo'q, Bakker. Biz bari ni bilib olamiz. Aleks de Leuni ham so'roq qildik. Hamkoringiz hammasini tan oldi, mana endi joni omon qoladi. Xo'sh, siz ham bo'yningizga olasizmi yoki bekorga o'lib ketmoqchimisiz?

– Men nimani bo'ynimga olishim kerak?! – dedi Bakker o'jarlik bilan go'yo gap nima haqda ekanini tushunmagandek. Shunda bir chekkada mum tishlab turgan Frits «gapga qo'shildi». Uning pashanaxadek mushti jag'iga tushgan Bakker kursi bilan birga orqasiga ag'darildi va qimirlayolmay qoldi.

Frits uning tepasiga keldi-da, zarb bilan qorniga ikki-uch marta tepdi. Bakkerning nafasi tiqilib qoldi. Bir ondan so'ng nihoyat og'zini kappa-kappa ochib zo'rg'a nafas oldi va og'riqdan dodlab yubordi.

– Frits, bu nimasi? – dedi koyigandek Alsher. – Bas qil-e, bu bemazagarchilikni! – dedi yana tergov ishlarida ko'pdan qo'llab kelinadigan yaxshi va yomon mirshab ishtirokidagi «tergov o'yini»ni o'ynab. Ayni chog'da, u yaxshi mirshab rolida edi. Alsher Bakkerga qo'llini uzatdi:

– Janob Bakker, keling, sizga ko'maklashay.

Birining tajovuzkorligi-yu ikkinchisining mehribonligidan esankirab qolgan Bakker Alsherga

ishonib qo'lidan tutdi. U golland asirga o'rnidan turishga yordamlashibgina qolmay, kursisini qo'yib ham berdi.

— Marhamat, o'tiring. Afsuski, janob Bakker, sizni manavi davangir Fritsdan himoya qilishga kuchim yetmaydimi deb qo'rqaman.

Xona burchagiga o'tib qaytayotgan Frits mam-nun iljayib qo'ydi.

— Siz bizga anavi o'zbekka kim, qanday qilib, qancha kartoshka berdi, shuni ayting, tamom – bu azoblardan qutulasiz!

— Rost aytyapman, herr unter-zobit, men hech nima bilmayman. Nima, u kartoshka yebdimi?..

Bakkerning gapi og'zida chala qoldi, Frits uning naq ensasiga musht tushirdi.

Bakker ih dedi-yu yiqildi. Frits so'laqmon-dek etigi bilan yana uning ensasiga ayamay tepdi.

— Nima qilyapsan, ahmoq? – deb baqirdi Alsher. Biroq, aftidan, endi kech edi...

Bakkerning og'zidan oppoq ko'pik oqib, butun tanasi akashak tortib titray boshladi. Bu – o'limol-di talvasasi edi. Ikki daqiqa o'tar-o'tmas u jim bo'lib qoldi. Golland Bakkerning joni uzilgan edi. Alsher nafrat bilan Fritsga o'qraydi:

— Ahmoq! Nega o'ldirding uni?! Biz hech qanday ma'lumot olganimiz yo'q edi-ku hali. Yo'qol bu yer-dan!



Shtyover soqchi olib kelgan bir chelak suvni shaloplatib Aleksga sepib yubordi. Aleks muzdek suv ta'sir qilmagandek qimirlamay yotaverdi. Muovin ayyor yahudiy allaqachon o'ziga kelgani-yu o'zini hushidan ketganga solib yotganini payqamadi ham. Aslida Aleksning «ziyrak» qulog'i Bakker-ning baqirig'ini ham eshitgan edi: «Demak, u shu yaqin atrofda ekan-da», deb o'yladi.

Shu chog' eshik shartta ochilib, xonaga Geynrix kirib keldi:

– Shtyover, u bo'yniga oldimi?

– Yo'q, herr komendant, – dedi qaddini rostlab untershturmfyurer.

– Unday bo'lsa, tergovni to'xtatib turasiz, asosiy tadbir o'tgandan so'ng davom ettiraverarsiz. Hozircha u menga kerak.

«Qamoqxonada qandaydir tadbir bo'lsa kerak», deb o'yladi Aleks.

Geynrixning orqasida, eshik og'zida Alsherning qorasi ko'rindi. U ichkari kirishga botinmay, ostona turgancha:

– Herr komendant, taassufki, Frits sal oshirib yubordi. Golland o'ldi. Biz undan gap ololmay qoldik, – dedi.



## O'ttiz uchinchi bob

Qoq tush mahali jala quya boshladi. Sharros yomg'ir ostida ishlashning iloji yo'q edi – mahbuslar qamoqxonaga qaytarildi.

To'xtamay yog'ayotgan yomg'ir tomchilari deraza oynalarini shunday savalar ediki, Martin beixtiyor o'rnidan turib deraza yoniga bordi. «Qani endi, jala ostida sayr qilsang», deb o'yladi u. Biroq hozir buning iloji yo'q, Martin buni biladi.

U derazaning bir qanotini qiya ochdi, shamol epkini yuziga muzdek tomchilarni urdi. Martinga bu juda yoqdi. U derazadan oldin bir qo'lini, keyin ikkinchisini chiqardi, qo'llari bir zumda shalabbo bo'ldi. Endi boshini ham chiqarmoqchi bo'lib turgan edi, darvozadan kirayotgan mahbuslarga ko'zi tushdi.

Bola o'girilib devordagi soatga qaradi: tush mahali bo'libdi – o'n uch, ish tugashiga hali vaqtli edi-ku?

Kiyim-boshi shalabbo bo'lib ketgan asirlar shosha-pisha baraklariga kirib ketdi. Faqat osiyolik mahbuslargina bir-birini suyab sudralgancha «qo'ra» tomon borayotir. Bu yerda turdi nima, «qo'ra»ga kirdi nima – baribir emasmi, sharros

jaladan pana joy bo'lmagach, qayga ham shoshilishsin?!

Bola ularga qarab turib beixtiyor barmoq bukib pichirlab sanay boshladi. Birozdan so'ng u yengil tin oldi va o'zicha mammun iljaydi – bugun kondan hammasi qaytibdi!

Martin otasining ish stoliga borib o'tirdi va muk tushib dars tayyorlashga kirishdi. Dadasi tushlikka kelmadi, u yolg'iz o'zi ovqatlandi. Uxlatadigan havo emasmi, Martin o'tirgan yerida pinakka ketdi.

Soat kunduzgi uchlarda xuddi tepadan buyruq berilgandek yomg'ir taqqa to'xtadi, hatto osmonda quyosh ko'rindi. Ich-ichigacha shalabbo bo'lib, ivib ketgan o'zbeklarning tanasiga oz bo'lsa-da, issiq yugurdi.

Qamoqxona bugun negadir juda sokin edi, bu asirlarni hatto biroz xavotirga ham soldi.

Aleks Hoshim bilan ko'rishib, unga o'zining tergov qilingani, Bakkerning o'limi haqida gapirib bergisi kelar edi. Biroq buning iloji yo'q, faqat ertaga konda u bilan gaplashishi mumkin.

Hozircha u barak darchasidan «qo'ra»ni kuza-tish bilan kifoyalandi. Asirlar orasida, ana, nihoyat Hoshim ko'rindi. Yerga chordona qurib o'tirib olib-di, yog'och chorig'ini yechib, shishib ketgan oyog'ini uqalayotir.

Hoshimdan sal narida Ilhom cho'kkalab o'tirib-di. U ko'rsatkich barmog'i bilan yomg'irdan keyin



ko'pchib qolgan sernam tuproqqa aylana chizmoqda. Birdan xayoliga muhim bir fikr kelgandek u o'ng kafti bilan o'sha doira ichiga tuproq yig'di – do'ppidek uyum paydo bo'ldi. Ishga kirishib ketgan Ilhom endi ikki qo'llab tuproq uya boshladi. Yumshoq, nam tuproq deyarli uch yashar bolaning tizzasigacha keladigan uyum bo'ldi. Yigit shu yumshoq tuproqdan chaqqon harakatlar bilan berilib nimadir yasay boshladi. Birozdan so'ng bu yerda mo'jazgina minora paydo bo'ldi. To'plagan tuprog'ini ishlatib bo'lgan Ilhom yonidagi sheriklaridan sal nari surilib turishni so'radi, u yana tuproq yig'ib, minorachaning kam-ko'stini yasamoqchi edi. Issiq joyinisovutgisi kelmagan ba'zi asirlar norozi to'ng'illab nari ketdi, lekin aksar ko'pchilik indamay joy bo'shatib Ilhomning ishini qiziqish bilan kuzata boshladi.

Shuhrat Ilhomning boshiga keldi. Me'mor yigitcha bir zum to'xtab, do'stiga bir qarab oldi-da, mamnun iljaygancha yana ishini qilaverdi. Shuhrat ham bir uyum nam tuproqni kaftlari bilan yig'ib Ilhom tomon surib keldi. Qolgan yigitlar ham Ilhomning atrofini o'rab oldi, u nima yasayapti ekan deya qiziqish bilan kuzata boshladi. Barak eshigi hali tambalanmagani uchun Aleks ostonada turgancha «qo'ra»dan ko'z uzmas edi. Sal narida soqchi u yoqdan-bu yoqqa borib-kelib turgan bo'lishiga qaramay, Aleks endi bino yoniga o'tib oldi – shu yerdan «qo'ra» ichi kaftdagidek aniq ko'zga tashlanardi.

«Qo'ra»da g'aroyib bir voqea bo'layotgan edi.

Birozdan so'ng «qo'ra» markazida haqiqiy minora qad rostladi – Ilhom chinakam haykaltarosh, mohir usta ekanini namoyish qildi.

– Qaranglar, bu axir minoraku! – deb baqirib yubordi hayratini yashirolmagan biri.

Shuhrat darrov barmog'ini labiga bosdi va ko'zi bilan mudrab o'tirgan Hoshimga ishora qildi. Ilhomga o'zining eng qimmatli buyumi – das-tasining uchi pichoqdek keskir qoshig'ini berdi. Shuhrat har ishda asqotadigan shu qoshiqdan vaqt kelsa qurol sifatida ham foydalanishni ko'zlar edi.

Ilhom Shuhratning qoshig'i bilan avval minoraning poydevorlarini, so'ng qubbasini ehtiyotkorlik bilan tekislab chiqdi. Keyin qubbadan pastroqqa kichik-kichik darchalar chizdi. Ana endi loy minora chinakam mo'jazaga aylandi-qoldi.

Hoshim ko'zini ochib o'rnidan turdi.

– Qaranglar, bu axir Samarqandning Registon maydonidagi Sherdor madrasasi minorasi-ku! – dedi ko'zlari yonib o'ttiz yasharlar chamasi bir asir tizzalagan ko'yil minoratomon yaqinlasharkan.

– Yo'g'-e, Ulug'bek madrasasining minorasi emasmi! – deb e'tiroz bildirdi yoshgina yigitcha. – Men urushga kelish oldidan Registonga borganman.

– Hecham Ulug’bek madrasasi minorasi emasda, – deb gapga qo’shildi yana bir asir. – Bu Go'r Amir maqbarasidagi minora!

Ilhom esa lom-mim demay ayyorona jilmaygancha minoraga pardoz berib, so’nggi ikir-chikirlari ustida ishladi-da, qoshiqni egasiga qaytarib berdi. «Qo’ra» ichi suv quygandek jimjit bo’lib qoldi.

Shuhrat minoraga tikilib turdi-turdi, so’ng bu mo’jizani yaratgan do’stiga qaradi, keyin yana minoraga tikilib qoldi. Ko’zidan dumalab tushgan yosh tomchilarini kaftining orqasi bilan sidirdi.

Ilhom esa o’zi yasagan minoradan ko’z uzmay, dabdurustdan o’zbekcha sho’x bir qo’shiqni xirgoyi qila boshladi. Bu qo’shiq go’yo mudom Amersfort qamoqxonasi ustida to’planib turadigan rutubatli qora bulutlarni to’zg’itib yubordi – motamsaro sukunatni buzdi.

Avvaliga asirlar qulqlariga ishonmay, bir-biriga ma’noli qarab, indamay qo’shiq tingladi. Keyin kimdir ohangga moslab barmoq shiqillata boshladi, unga yana bir necha asir qarsak chalib jo’r bo’ldi. Yana uch-to’rt yigit Ilhomga qo’shilib oldin sekinkin, keyin esa tobora ovozini balandlatib, baralla kuylab yuborishdi.

Shuhrat shartta o’rtaga chiqib, minora atrofida raqs tusha ketdi. U qo’l-oyoqlarini yengil ko’tarib, bu nozik inshoot atrofini ehtiyyot bo’lib aylanib obdan to’kilib o’ynadi. Shuhratning ortidan yana bir

necha yigit o'rtaga tushib, uning qaynoq raqsiga hamrohlik qildi.

Birozdan so'ng «qo'ra»da shunday bir o'yinkulgi avj oldiki, biron-bir o'zbekona bayram yoki to'y bo'lyaptimi deb o'ylash mumkin edi. Qo'shiq tobora balandlab, raqs ham sho'x tus olmoqda edi.

Hoshim mamnun jilmaydi: mayli, bechora yigitlar ozroq ko'ngil yozsin. Boshdan kechirgan azob-uqubatlarni sal bo'lqa-da esdan chiqarsin! Xudo bilsin, peshonada yana qanday kunlar bor ekan...

Shuhrat raqs o'zisiz ham davom etishini sezib sekin chetga chiqdi va Ilhomning yoniga keldi.

—Baraka top, oshna, sen qo'li gul ustasan! Haqiqiy haykaltarosh! — dedi u og'zi qulog'ida do'stini mahkam quchoqlab. — Xuddi Samarqandda yurgandek bo'ldim...

## O'ttiz to'rtinchi bob

Roppa-rosa soat o'n oltida Shtyover bilan Alsher Geynrixning ish bo'lmasiga kirdi. Ular shoshilinch yig'ilishga chaqirilgan edi. Majlis boshlanmay turib yig'ilganlar bir-biriga ajablanib qarab qolishdi: qamoqxonasi, to'g'rirog'i, o'zbeklar yotadigan «qo'ra» tomondan g'alati-g'alati tovushlar kelayotir.

Geynrix joyidan sapchib turdi-da, ikki hatlab deraza oldiga keldi. Orqasidan shosha-pisha ikki yordamchisi ergashdi. Komendant derazaning bir qanotini ochdi. Chindan ham osiyoliklar yotadigan «qo'ra»dan qo'shiqqa o'xshash bir maromdag'i alla-qanday ovozlar eshitilayotir. Geynrix tomog'iga xuddi allanima tiqilgandek nafas ololmay qoldi. U ko'zlari qinidan chiqqudek olayib, o'sha yoqqa tikilib qoldi. So'ng:

– Nima bu?! Nima bo'lyapti o'zi? – deb baqirdi asabdan dag'-dag' titrab.

Osiyoliklar «qo'ra»sida ajab bir tomosha bo'la-yotir: asirlar raqs tushib, qo'shiq aytib xursandchilik qilishyapti, obdan haddidan oshibdi bular. Birovlari qo'shiq kuylab, ohangga moslab barmoq shiqillatsa, boshqalari xumordan chiqib raqs tushayotir, qolganlar davra bo'lib baralla kulib, qarsak chalib ularni olqishlayotir. Anavi Hoshimning ovozi hammanikini bosib ketyapti... Mana, u ham qo'llarini ikki yonga yoyib, oyoqlarini kuyga mos ko'tarib, boshqalar qatori raqs tusha boshladi. Uni o'rtaga oldilar, Hoshim shunaqangi yengil, qo'shiqqa mos raqs tushmoqda ediki, asirlar uni nafaqat qarsak chalib olqishladi, balki baqirib, hushtak chalib ofarinlar yog'dirishdi.

Geynrix ko'zlariga ishonmadi – itdek och, ozib sillasi qurigan, oyog'ini arang ko'tarib bosib yur-gan shu odamsiyoqlar yosh boladek xursandchilik qilayotirlar. Go'yo shuncha azob chekib qiynalma-



gan, aksincha, kuch-g'ayrati toshgan, hayotidan mammun odamlardek o'yin-kulgi qilishini qarang.

Geynrix atrofga alangladi: qorovul-u soqchilar ham qiziqishini yashirolmay «qo'ra»da kechayotgan tomoshaga beixtiyor qarab qolishgan. Boshqa mahbuslar ham baraklaridan galalashib chiqib osiyoliklarning o'yin-kulgisini maftun bo'lib kuzatayotir. Aleks de Leu bo'lsa og'aynisi Hoshimga qo'shilib o'zi ham raqs tushayotgandek og'zi qu-log'ida, o'z-o'zidan qarsak chala boshladi. Birin-ke-tin unga boshqa mahbuslar: yahudiylar, farangilar, belgiyaliklar, gollandlar – hamma-hammasi ergashib, osiyoliklarni olqishlay boshlashdi. Ular yuzidagi mammunlikni hatto shu uzoqdan turib ham payqash qiyin emas edi.

Komendant qovog'i yana asabiy uchayotgani-ni sezdi. U shu yerdan – deraza ortidan baqirmoq-chi edi, negadir tili tanglayiga yopishib qolgandek ovozi chiqmadi.

Geynrixdan farqli o'laroq, Shtyover o'zi ham kutmagan holda qo'lidagi qamchi dastasini o'zbeklarning qo'shiq ohangiga moslab kaftiga ura boshladi.

Boshliq bu tovushni eshitib orqasiga o'girildi va ko'zları kosasidan chiqqudek bo'lib yordamchisiga o'shqirdi:

- Bu nima qiliq?!
- Herr komend-dant...



– Ahmoq! – deb qichqirdi Geynrix. – Ketdik!  
Ikkalangiz yuring men bilan!

Komendant, uning ortidan Shtyover bilan Alsher shahd bilan tashqariga chiqishdi va «qo'ra» tomon oshiqishdi.

O'zbeklar o'yin-kulgiga shunchalik berilib ketganidan Geynrix boshchiligidagi Shtyover, Alsher va yo'l-yo'lakay ularga qo'shilgan Maks Ritter-u o'nlab qurollangan soqchilar «qo'ra»ga bostirib kiganini payqashmadi ham. Ular orasida davangir Frits devdek bo'lib ajralib turibdi.

Bu to's-to'polonda komendant shotirlari qatorida Martin ham borligini birov payqamadi. Otasining ortidan u ham «qo'ra»ga chopib kelgan edi.

Soqchilar odatdagicha so'yil-u qo'ndoq bilan raqs tushayotgan asirlarni urib-turtib qamoqxona boshlig'iga yo'l ochdi – u shahd bilan maydon o'rta-siga bordi. Mana, u o'zi o'lgudek nafratlanadigan osiyolik asirlarga vatanini eslatib, ularga shuncha shodlik ato etgan mo'jaz minora tepasida turibdi. Tomosha sekin-asta poyoniga yetdi. U yog'i hammasi tushmisol tez kechdi.

Birozdan so'ng Martin otasi kattakon etigi bilan Ilhom qurgan minorani ayamay toptayotganini ko'rди. Jahldan gezarib ketgan Geynrix jajji imoratni yer bilan bitta qilib tekislab tashladi, minoradan asar ham qolmadi.



Qo'llari beixtiyor musht bo'lib tugilgan Hoshim arang o'zini tiydi. Uning yonida Shuhrat – ringga tushmoqchi bo'lgan bokschidek qo'llari musht tushirishga shay turibdi. U chuqur-chuqur nafas olar, Hoshim va o'ziga yelkama-elka turgan boshqa yigitlar singari Geynrixga tashlanib, uni burda-burda qilib tashlagisi kelar edi: bu ablak shu kichik xursandchilikni ham ko'p ko'rdi, vatanini, uyini bir on yodga solgan ajib minorani bir zumda moldek toptadi-tashladi.

Zobitlar ortidan yarim aylana bo'lib joy olgan soqchilar asirlarga miltiq o'qtalib turibdi. Shtyover bir-ikki qadam oldinga yurib o'ng-so'liga qaramay qamchisini kuch bilan sermay boshladi. Unga yaqin turgan Ilhom qamchi yeb oldi. U ikki qo'llab o'zini himoya qilib ortga tisarilgan edi, qoqilib ketib chalqanchasiga yiqlidi.

Geynrix nafrat to'la ko'zini Hoshimdan uzmay turibdi. Birdan odatdagicha qovog'i qattiq ucha boshladi. Bundan o'zini noqulay sezib battar xunobi oshar edi. Harsillab nafas olishidan xuddi toreador qarshisidagi buqa kabi burun kataklari katta-katta ochilib-yopilar edi.

Hoshim bilan Geynrix bir-birini ko'zlar bilan yeb qo'ygudek bo'lib turishganida Ilhom bor kuchini to'plab o'midan turdi-da, qulqoqni qomatga keltirib qichqirib loy qo'llari bilan komendantning yaltillab turgan etigiga yopishdi. Geynrix Ilhomning chan-

galidan qutulish uchun beixtiyor oyoqlarini siltay boshladi. Biroq yigit uning oyog'iga yopishib qolgandek qo'yib yubormasdi. Hatto Shtyover yelkasiiga ketma-ket zarb bilan urganida, hatto gimnastyorkasida qamchi izi qolib qon sizib chiqqanda ham Ilhom komendantning oyog'ini bo'shatmadi. Shunda barzangi Frits kelib miltiq qo'ndog'i bilan boshiga ayamay tushirdi, yigitning qo'llari bo'shashib o'zi yerga cho'zilib qoldi.

Qoni qaynab, o'zini arang tutib turgan Shuhrat to'ppa-to'g'ri Geynrixning ustiga xezlandi.

– Shuhrat, to'xta! – dedi jon holatda Hoshim uning qo'liga yopishib.

Shtyover qamchi sermab Shuhratning oldini to'sdi. Yigitni qamchilashga ulgurmay jag'idan musht yedi: Shuhrat bokschi emasmi, zarbasi kuchi dan muovin yerga uchib tushdi.

Yonbosh tomonidan kelgan davangir Frits Shuhratning yelkasiga qulochkashlab qo'ndoq bilan soldi. Aftidan, yigit endi og'riqni sezmadni. U naynov Frits tomon o'girildi va shimi kissasidan das tasi uchi pichoqdek keskir qoshig'ini olib, bor kuchi bilan uning chap ko'ziga sanchdi. Frits avvaliga tizzalab qoldi, so'ng qon oqayotgan ko'zini changallangancha sherdek o'kirib yerda yumalay boshladi. Shuhratning ustiga o'ntacha soqchi baravar yopirilib, duch kelgan yeriga so'yil-u qo'ndoq bilan savalay boshladi. U avvaliga o'zini sal-pal himoya

qilgan bo'ldi-yu, ammo keyin qarshilik ko'rsatish foydasiz ekanligini bilib tek qoldi.

Nemis o'qchilar o'zbek asirlari boshi uzra ketma-ket o'q uzdi, Geynrix ularning barini yerga yotqizishni buyurdi.

Alsher quloqni teshib yuborgudek qichqirdi:

– Yerga yotlaring hammang! Yotlaring! Hoziroq!

«Qo'ra» bir zumda suv quygandek jimjit bo'lib qoldi. Faqat Fritsning hayvondek bo'kirgani tinchlikni buzmoqda edi. Ikki askar uni turg'izib «qo'ra»dan olib chiqib, tibbiy bo'lim tomon yurdilalar. Ulardan oldinroqda to'rtta soqchi musht yeb haliyam o'ziga kelmagan Shtyoverni ko'tarib tibbiy bo'limga olib ketayotir.

Geynrix o'g'li shu yerda ekanini endi payqadi, ammo ayni chog'da uning ta'nali nigohiga chidaydigan ahvolda emas edi.

– Manavini ko'zdan yo'qotlaring! – dedi u yerda qonga belanib yotgan Shuhratga imo qilib.

Ikki soqchi chopib kelib Shuhratni gimnastyorkasi yoqasidan tutib sudragancha «qo'ra»dan olib chiqqa boshladi. Yigit arang boshini ko'tardi va do'stlariga:

– Onamga aytmanglar! – dedi xirillab.

Hoshim ularning yo'lini to'saman deb xezlangan edi, soqchilardan ikkitasi baravar ko'ksiga miltiq tirab uni to'xtatdi.

– Janob komendant! Yigitni qo'yib yuboring!  
O'rniga meni olib chiqing! Meni jazolang uning  
o'rniga! – deb baqirardi Hoshim tinmay.

Alsher Hoshimning gaplarini Geynrixga tarjima  
qilib berdi.

Ammo komendant unga e'tibor ham qilmay, or-  
tiga burildi-yu, «qo'ra»dan chiqib ketdi. Alsher bi-  
lan Ritter ham shosha-pisha unga ergashdi.

– Shuhratni qo'yib yubor, ablah! Meni olib ket!  
Meni olib ket deyapman! – deb ko'ksiga mushtla-  
gancha baqirib qoldi Hoshim.

Geynrix orqasiga o'girilish tugul, go'yo hech  
nima eshitmagandek pinagini buzmay ketaver-  
di. Alsher yana Hoshimning gaplarini nemischaga  
o'gira boshlagan edi, komendant qo'l siltadi: «Kerak  
emas» degandek.

Martinning yonidan o'tayotib, uning yuziga ham  
qaramay:

– Yur men bilan! – dedi sovuqqina.



## O'ttiz beshinchi bob

Doktor Van Niuenxeyzen o'kirib yotgan Fritsning yarasini obdan ko'zdan kechirdi.

— Ko'zingni-ku, Frits, endihechnimaqilib bo'lmaydi. Rostini aytganda, ko'z degulik yeri qolmabdi — oqib tushibdi. Anavi notavonning shuncha kuchi bor deb kim o'yabdi deysan! — dedi doktor xo'rsinib, o'zini achingandek ko'rsatib.

Frits dodlashdan to'xtamasdi.

— Sabr qil, hozir yengil tortib qolasan, — dedi doktor. U paxta bo'lagiga allaqanday malham surkab, Fritsning ko'z chanog'iga bosdi va doka tasma bilan o'rabi, chandib bog'lab qo'ydi.

Doktorning vahshiyona tibbiy tajribalar o'tkazishiga moslab jihozlangan qo'shni xonada qamoq-xona boshlig'i Valter Geynrix o'tiribdi. Yonidagi kursidan esa o'g'li omonatgina joy olgan. Uni komendant atay chaqirgan: quturgan dushmanning ahvoli nima kechajagini bir ko'rib qo'ysin o'g'li.

Shuhratdan musht yeb endigina o'ziga kelgan Shtyover, shuningdek, Alsher bilan Ritter ham shu yerda — devorga suyanib turibdi.

Bu gal hatto asirlarga zarracha shafqat qilmaydigan Shtyover ham ikkilanmoqda: «Hozir ro'y be-

rajak dahshatlarga bola guvoh bo'lishi shartmikan?» Biroq qamoqxona boshlig'i Geynrix fikrida sobit: «Martin nihoyat ulg'ayishi, peshonasiga yozilgan qismatdan qochib qutulolmasligini tushunib yetishi lozim».

Shuhrat xona o'rtasida – yerda xirillab yotibdi. U boshini ko'tarib Martinga qaradi. Butun vujudi dag'-dag' titrayotgan bolakay qo'rqa-pisa unga qarab qo'ydi. .

– Bolani bu yerdan olib chiqib ketlaring, ablahlar! Opchiqib ketlaring! – deb baqirdi Shuhrat bo'g'ilib.

– Nima deyapti u, Alsher? – deb so'radi Geynrix.

– Herr komendant, u o'g'lingizni bu yerdan olib chiqib keting deyapti.

– Nima? Sen hali menga buyruq ham berasanmi, mol?! – deb qichqirdi esidan og'ayozgan Geynrix.

– U sening itdek o'lishingni o'z ko'zi bilan ko'radi! Qani, boshlalaring!

Maks Ritter Shuhratning qo'llarini orqasiga qayirib bog'ladi. Shtyover esa uning oyoqlarini arqon bilan chandib bog'lay boshladi. G'ujanak bo'lib yotgan Shuhrat qutulish uchun bor kuchini to'plab chirranardi.

– Bolani chiqarib yuboringlar bu yerdan, nima qilyapsizlar axir?! – deb baqirardi u tinmay.

«Quturgan» o'zbekning oyoq-qo'lini bir amallab bog'lab bo'lgan Ritter, Shtyover va Alsher zildek etigi bilan uning duch kelgan yeri – biqin-



lari, oyog'i, boshiga ayamay tepe boshlashdi. Ular go'yo futbol maydonida mashq qilib koptok te-payotgandek edi.

Shuhrat og'riqdan to'lq'anib-buralib yotsa-da, og'ziga yaqin kelgan etikni tishlab olishga urindi.

– O'ldiraman, yaramaslar, hammangini o'ldiraman! Senlarni ko'rarga ko'zim yo'q! – deb baqirdi u kuchi boricha. So'ng og'riqdan ingab-ihrab yotdi-yu birdan tinchib qoldi.

Biroq quturgan uch fashist butun alamini olmoq-chidek bor kuchi bilan uni tepaverdi-tepaverdi. Yigitning tanasi u yoqdan-bu yoqqa koptokdek yumalayverdi-yumalayverdi. Uning og'zidan laxta-laxta qon oqar, polda, har yer-har yerda qoramtil-qizil dog' quyqalanib qolar edi. Zolimlarning etigi ham allaqachon qop-qora qonga belangan, ammo ular allaqachon joni uzilgan yigitni tinmay tepar edi.

Bu dahshatli manzarani ko'rib ko'zlari qinid dan chiqib ketgudek bo'lib o'tirgan Martin birdan o'qchib qusib yubordi.

– Bo'ldi, bas! – deb qichqirdi Geynrix.

Martin xonadan otolib chiqib ketdi. Alsher orqasidan chiqmoqchi edi, Geynrix to'xtatdi.

– Qo'yavering, Alsher! Men o'zim! – dedi komendant joyidan sapchib turib o'g'lining ortidan yugurarkan.

## O'ttiz oltinchi bob

Shuhratni tibbiy bo'limga sudrab ketishganidan buyon ikki soatcha vaqt kechdi. O'zbeklar tikansim ortida qotib turibdi, birontasi bir og'iz so'z aytmaydi, hammasining ko'zida ojiz bir umid – qani endi hozir mo'jiza ro'y bersa-yu Shuhrat o'z oyog'i bilan yurib «qo'ra»ga qaytib kelsa! Albatta, ular yigitning qaytishi, ayniqsa, tibbiy bo'limdan tirik chiqishini kutish behuda ekanini bilishadi, lekin shunda ham bu mard o'g'lon, mayli, o'lgudek kaltak yegan, oyog'imi-qo'li singan bo'lsa-da, tirik qolishini ko'zлari to'rt bo'lib kutishayotir.

Ayniqsa, Ilhom do'stining yo'liga mushtoq. Yarim soatdan buyon cho'kkalagancha tizzalarini quchoqlab, ko'zlarini yumib tebranib o'tiribdi – duo o'qirdi u.

Shu payt tibbiy bo'lim eshigi ochilib Martin otilib chiqdi. U «qo'ra» yonidan o'qdek uchib o'tib, darvoza tomon yugurdi, bola o'pkasini bosolmay o'kirib yig'lar edi. Uning ortidan otasi ham chopib chiqdi...

Oradan yana o'n besh daqiqa kechdi – atrof yana suv quygandek tinchib qoldi. O'zbeklar hamon Shuhratni kutmoqda.



Nihoyat tibbiy bo'limdan Shtyover, Alsher va Ritter chiqdi. Ular eshik tagida turib tamaki tutabit nimadir qizg'in bahs qila boshladi. Oradan ikki daqiqalar o'tar-o'tmas yana ikki soqchi kimnidir sudrab chiqdi. Ular «qo'ra» yaqiniga – tikanli sim-to'siqdan uncha uzoq bo'limgan yerga qop-qora qonga belangan murdani olib kelib tashladi. Go'yo odam emas, harom qotgan hayvonni sudrab kelgandek soqchilar yuz-ko'zida zarracha shafqat, ayanch sezilmas, aksincha sovuqqonlik, befarqlik aks etib turar edi.

Asirlar ko'zlariga ishonmay angrayib qoldi. Bu Shuhrat edi – vahshiylarcha urib-kaltaklangan, oyoq-qo'li, burni singan, ko'zlari ko'kargan, labi yorilgan. Ular yerda qimirlamay yotgan bu sho'rpeshona mardi maydon, sho'x-olov Shuhrat ekaniga sira ishonolmasdi. Shunday pahlavon yigitni ne ahvolga solishibdi – azoblab, qiyab o'ldirishibdi. Shuhratni bu ahvolda ko'rib hatto Hoshim ham o'zini tutib turolmadi. Bu ayanch manzaradan esankirab, angrayib turgan yigitlar ko'z o'ngida irodasizlik qilib jahldan baqirib yubormaslik uchun Hoshim shosha-pisha orqasiga o'girildi va mushtumini qattiq tishladi. Biroq o'zini bosolmadi, ich-ichidan kuyib, titrab-qaqshab yig'ladi.

– Bu ablahlar yigitni ne ko'yga solishibdi, – deb baqirdi bir asir.

– Urib o'ldirishibdi... – dedi boshqasi.

– Shuhratdan ham ayrildik... – dedi uchinchi mahbus.

Yer changallab o'tirgan Ilhom:

– Shuhrat o'lмаган! Ishonmayman bunga! Tur, tur о'rningdan, jo'ra! – deb asabiy qichqira boshladi.

So'ng chopib kelib o'zini, to'siqqa urdi, tikanli simni changallab oldi, kaftiga sim kirib qon oqqaniga ham e'tibor qilmadi. – Tur о'rningdan deyapman, Shuhrat! Sen shunday o'lib ketolmaysan!

Ilhom Shuhratdan ko'z uzmay izillab yig'lardi. Yonidagi asirlar uni arang tikanto'siqtan ajratib olishdi.

Ilhom battar jazavaga tushdi:

– Ablahlar! Senlarni ko'rarga ko'zim yo'q!

Ilhomning ovozi Hoshimning hushini joyiga keltirdi. U ortiga o'girilib yigitlariga qaradi. Uning ko'zlari to'la yosh edi, ammo kuch bilan bazo'r o'zini tutib turardi. Hoshim qo'llarini baland ko'tardi, g'ala-g'ovur tinib, asirlar unga qaradi.

– Inilarim, – dedi past tovushda va iloji boricha xotirjam ohangda Hoshim. – Bugun biz yana bir yaqinimiz, haqiqiy mard o'g'lon, qahramonimizdan ayrildik. Men Shuhratni bolalik chog'idan bilaman, u oddiy oiladan chiqqan halol, or-nomusli yigit edi. U ham siz-u biz kabi O'zbekistonga, vatanga, uyiga qaytishni orzu qilardi. Onasi bilan diydlashishni, ota-bobolari o'tgan yurtni qo'msar edi.



Ba'zi qo'r quoqlar kabi fashistlarga bo'ysunganida, ularning malayiga aylanganda ehtimol hozir tirik bo'lardi. – Hoshimning ovozi borgan sari dadillasib, qat'iylashib bormoqda edi. – Lekin u bizning Shuhrat bo'lmasdi! Bizning Shuhrat tap tortmay bir o'zi nemis tanklariga qarshi chiqib, ularni yakson qildi, muqaddas zaminimizga dushman jirkanch qadamini bosmasligi uchun u, kerak bo'lsa, har kun fashist gazandalarni o'ldirishga tayyor edi! U mardlarcha yashab, mardlarcha o'ldi! – Asirlar Hoshimning gaplarini nafaslarini chiqarmay, quloqlari ding bo'lib tinglashayotir. – Shuhrat oxirgi nafasigacha dushmanga bosh egmadi! Fashistlarga o'zbeklarning qandayin mard jangchi ekanini ko'rsatib qo'ydi! Shuhrat jisman ham, ruhan ham bahodir yigit edi, ajalga ham tik boqdi, bahodirona o'ldi! – Hoshim bir zum tin olib, yigitlariga bir-bir qarab chiqdi. Barchasining ko'zida alam, dushmanga nisbatan nafrat o'ti yonib turibdi, hatto qaddilarini ham tik tutib olishganga o'xshaydi. – Hozir esa, kelinglar, inilarim, birgalikda ont ichamiz: bu yerda biz qanchalik azob-uqubat tortmaylik, bu ablahlar bizni qanchalik xo'rlamasin, Yaratgan in'om etgan har bir kuni nimizni, soatimizni munosib yashaymiz, inson bo'lib qolamiz, o'zligimizni yo'qotmaymiz! Vaqt-soatimiz yetsa, Shuhrat kabi ajalga-da mardlarcha tik boqamiz! Yurt haqqi, tuqqan-tug'ishganlarimiz haqqi, ota-bobolarimiz haqqi-hurmati, Shuhrat va

halok bo'lgan boshqa do'stlarimiz xotirasi haqqi ont ichamiz!

– Ont ichamiz! – deb unga jo'r bo'ldi asirlar.

– Qayerda bo'lmaylik, oxirgi tomchi qonimiz qolguncha dushmanga qarshi kurashamiz! Bu yerdan ozod bo'lish nasib etsa, qanday bo'lmasin, fashistlarni ona zaminimizga kirdizmaslikka, tuqqan-tug'ish-ganlarimiz yaqiniga yo'latmaslikka ont ichamiz!

«Ont ichamiz!» – deb takrorlashdi och-yupun, tinka-madori qurigan, ammo ruhan bardam asirlar.

Qo'radan kelayotgan ovozlarni eshitib tibbiy bo'lim eshigi tagida turgan Shtyover, Alsher va Ritter baravar o'sha tomonga qaradi: «Yana nimani boshladi ekan bu yalangoyoqlar», deya kuzata boshlashdi ular. Hoshimning gapi aniq eshitilmasa-da, Alsher uning nima haqda gapirganini tushundi va Shtyoverga yetkazdi.

Valter Geynrix ham ish bo'lmasi derazasidan «qo'ra»ni, asirlarni kuzatib turgan edi. U-ku, o'zbeklarning bir og'iz ham gapiga tushunmadni, albatta. Zotan, bunga hojat yo'q edi. Asirlarning o'zini tutishidan hammasi ma'lum: anavi o'zbilarmon to'dasini yana allaqanday g'alamislikka qayrayotir.

– Qanchalik jonimga tekkaningni bilsayding, sen ablah! – deya vishilladi Geynrix. U jahl bilan tokchaga musht urdi.

Shu zahoti Iogann Shtyoverni bo'lmasiga chaqirtidi.



– Untershturmfyurer Shtyover, – dedi u ro'para-sida bosh egib, qo'l qovushtirib turgan muovi-niga afti gezarib. – Qamoqxonada nimalar yuz berayotganining farqiga boryapsizmi o'zi? Siz o'sha qalang'i-qasang'ilarni mutlaqo eplay olmayapsiz! Bizning deyarli vaqtimiz qolmadi! Hoziroq anavi o'zbilarmon ablahnini kartserga tashlang! Sherikla-rining ish hajmini ikki baravar oshiring! Suvni kam bering, bir kunda bir mahal ichishsin, o'lib qolmay-di!

– Xo'p, janob komendant! – dedi rangi oqarib ketgan Shtyover qo'lini bosh kiyimi ayvoniga tirab.

Geynrix biroz tin olib, sal o'ziga kelgach, xotir-jamroq, lekin qat'iy ohangda:

– Iogann, bizning tavakkal qilishga haqqimiz yo'q! Bu shaxsan fyurerning buyrug'i ekanini bila-siz! – dedi.

Komendantning sovuq nigohini ko'rib, beixtiyor muovinning eti junjikib ketdi.

## O'ttiz yettinchi bob

Hoshimning kartserda o'tirganiga ikki kun bo'ldi. Tabiiyki, Martin bundan xabardor. U avval-lari ham bu kichkina, ensiz, tomi tagida bittagina panjarali darchasi bor uycha oldidan necha marta



o'tgan. Hech aqliga sig'dira olmayapti: «Eni yarim metr, bo'yi katta odamning bo'yicha keladigan bu beton qutiga mahbus qanday sig'ar ekan-a?» Kartser unga tobutni eslatardi.

Uyga kelgach, u «Kartserga tushgan odam o'zini qanday his etar ekan» deya sinab ko'rmoqchi bo'ldi. Yotog'iga kirarkan, ostonada to'xtadi, eshik bilan devor o'rtasidagi ensiz joyda xuddi siqilib turgandek qo'llarini eshikka tiradi.

Shu alfozda atigi yigirma daqiqa turdi: butun tanasi uvishib, ich-ichidan qaltiroq turdi. Sabri yetmay eshikni qo'yib yubordi. U endi kartserdagi asir o'zini qanday his etishini sal-pal bilgandek bo'ldi.

Bola xaloskori Hoshimga yordam bergisi kelardi. Biroq qo'lidan nima ham kelardi uning? Balki unga bir-ikki kesim non berishga urinib ko'rар.

Shu fikr Martinning tinchini o'g'irladi. Kartserning tuynugiga bo'yi yetmasligi aniq. Ma'muriy binoga yaqin joydan uzun tayoq topdi-da, uning uchiga kuchi yetgancha mahkamlab mix urdi.

Kechga yaqin sovuq shamol turganiga qaramay, otasi bilan Shtyoverning qamoqxonada emasligidan foydalanib, kartser tomon yo'l oldi. Asirlar hali kon-dan qaytmagan – Alsher bilan Ritter, tabiiyki, ularning boshida. Shunday ekan, hozircha xavotirga o'rinn yo'q. Martin shimi cho'ntagidagi ikki kesim nonni ushlab qo'ydi.



O'ylaganidek, qamoqxona hududiga kiraverishda uni bir soqchi to'xtatdi. Yog'och kaltakka tayanimib, bir qo'li bilan qornini changallab turgan Martin, «Qornim og'riyapti, doktorga ko'rinoqchiman», dedi aftini burishtirib.

Soqchi qorovulxonaga kirib, navbatchiga qo'ng'iroq qildi va sharfyurer – qo'riqlash bo'limi zabitini chaqirdi. Darvoza yoniga chiqqan zabit «Tinchimni buzgan kim ekan?» degandek soqchiga norozi qaradi, uni hojatxonada o'tirgan yeridan chaqirib olishgan edi-da. Ammo gap komendantning o'g'li haqida borayotgani, uni doktorga olib kirish kerakligini bilgach, u chuqur xo'rsinib itoatkorlik bilan vazifasini ado etishga kirishdi.

Tibbiy bo'limga borishda ular o'zbeklar yotadigan bo'sh «qo'ra», baraklar va kartser yonidan o'tishdi. Martin to'xtab zabitga qaradi va:

– Herr sharfyurer, hozir bu yerda dushmanlardan biror kimsa yo'q. Shunday ekan, menga hech kim xavf solmaydi, to'g'rimi? Siz ishingizga bora-vering, mendan xavotir olmang, – dedi. Biroq zabit bolaning gapiga e'tibor bermay tibbiy bo'limgacha uni kuzatib bordi.

Tibbiy bo'limga kirgach, Martinni yo'lakda qoldirib, zabit doktorning ish bo'lmasiga bosh suqdi, xona bo'm-bo'sh – hech kim yo'q. Yonidagi xona – tajribaxonadan allaqanday tiqillagan tovush ke-

layotir – demak, doktor o'sha yerda. Rostdan ham doktor tajribasi bilan band ekan.

– Herr doktor, – dedi xonaga bosh tiqib sharfyurer. – Sizning yoningizga komendantning o'g'lini olib keldim. Qorni og'rib qolibdi.

Doktor bir on ishidan bosh ko'tarib qaradi-da, doka og'izbog'ichini yechmay:

– Bir daqiqa! Birozdan keyin chiqaman! – dedi.

Martinning yoniga, yo'lakka qaytgan zobit:

– Doktor hozir chiqadi. Ikki daqiqa kutib turing, faqat ketib qolmang, men hozir kelaman, – dedi-da yo'lak oxiridagi hojatxonaga yugurdi.

Bola tibbiy bo'lim eshigidan bosh chiqarib, atrof-ga alangladi. To'g'ri, minorada qorovullar turibdi. Biroq ayni chog'da qamoqxonada mahbuslar yo'qligi sabab ular birmuncha bemalol. Buning ustiga, sovuq shamoldan panada turishibdi, hududni deyarli kuzatishayotgani yo'q. Shu bois, sharfyurer hojatxona eshigini yopishi bilan Martin shosha-pisha tashqariga chiqdi, atrofda biror kimsa yo'qligiga amin bo'lгach, kartser tomon yugurdi.

Kartser yoniga kelib, cho'ntagidan bir bo'lak non oldi-da, tayoq uchidagi mixga tiqdi. Keyin tuynuk to'g'risiga kelib oyoq uchida turgancha bir amallab tayoqdagi nonni tuynukning panjarasi orasidan ichkariga kiritishga harakat qildi.

– Hoschim, Hoschim! Brot für dich! («Senga non olib keldim!»)



Birozdan keyin ichkaridan Hoshimning ovozi eshitildi:

– Martin! Senmisan? Bu yerda nima qilyapsan? Qaydan kelib qolding?

Hoshim bilib turibdi, Martin uning gapiga tushunmaydi. Biroq bola ismini eshitib, asir uni taniganini bildi. Bazo'r nonni ichkariga kiritdi. U:

– Brot für dich! – derdi tinmay.

Tayoq uchidagi mix mahkamlab qoqilmagani uchun tuynuk panjarasi orasiga tiqilib qoldi, Martin tayoqni qattiq siltagan edi, non tiqilgan mix ichkariga tushib ketdi.

Birpasdan keyin tuynukdan bir nima otilib chiqdi va Martinning oyog'i ostiga tushdi. Gildan yasalgan qushcha ekan.

Martin atrofga alanglab olgach, qushchani cho'ntagiga yashirdi. U ikkinchi bo'lak nonni tayoq uchiga tiqdi va oyoq uchida turdi-da tuynukka kiritishga obdan urindi.

Shu vaqt kartser yonida osmondan tushgandek doktor paydo bo'ldi.

Bolaning yuragi qo'rquvdan dukillab urib ketdi, peshonasidan muzdek ter chiqdi, biroq sir boy bermadi, qo'rqqanini sezdirmadi.

– Bu yerda nima ishing bor, Martin? Menga se ning qorning og'riyapti deb aytishgan edi.

– To'g'ri, qornim og'ridi, keyin o'z-o'zidan o'tib ketdi. Shunga sizga xalal bermay deb keta qoldim.

Doktor bilib turibdi: bola vaziyatdan chiqishga urinyapti.

– Nega bir o'zingsan? Seni kuzatib kelgan sharfyurer qayerda qoldi?

Ayni shu chog' tibbiy bo'limdan o'sha zabit chopib chiqdi va Martin bilan doktor tomon oshiqdi. Ko'riniq turibdi, bola yo'qolib qoldi deb esxonasi chiqib ketayozgan bechoraning.

Darvoza tomondan shoshilgancha soqchilar bo'linmasi qo'mondoni keldi. Uni minoradagi qorovul chaqirgan: o'sha qorovul kartser yonida bo'layotgan «ish»ga beixtiyor guvoh bo'lib qolgan va undershturmfyurerga aytgan edi.

– Siz bu yerda nima qilyapsiz? – dedi soqchilar bo'linmasi qo'mondoni Martinga qarab.

– Menmi... – dedi bola birdan nima bahona aytishni bilmay tili tutilib.

– Herr undershturmfyurer, – dedi gapga aralashib doktor, – Martin mening qabulimga kelgan edi, men band bo'lGANIM uchun unga biroz kutib tur degandim. Bola emasmi, zerikkanidan tash-qariga chiqibdi, keyin adashib qolibdi, shekilli. Shundaymi, Martin? – dedi u boshliqning o'g'liga qarab.

– Ha, shunday, – dedi rangi oqarib ketgan bolakay.

– Biroq u mahbusga nimadir bermoqchi bo'ldiku? – dedi doktorning gapiga ishonqiramay uchiga non tiqilgan tayoqqa ishora qilib undershturmfyurer.



– E, bu nonni unga men yeb turarsan, deb ber-gandim, – dedi kulib doktor.

Untershturmfyurerning qarashidan kimga ishonishni bilmay ikkilangani sezildi: qorovulning gapi rostmi yoki doktorning? Biroq har holda «Doktor meni aldamasa kerak» degan to'xtamga keldi.

– Herr untershturmfyurer, – dedi doktor shosha-yotgan odamdek betoqatlanib. – Xo'p desangiz men endi Martinni kuzatib qo'ysam.

– Albatta, herr doktor, albatta.

Van Niuenxeyzen Martinni yetaklab qamoqxona darvozasi tomon yurdi.

– Rahmat sizga, herr doktor. Dadamga ham hech nima aytmang, iltimos, – dedi bola.

Doktor indamadi. Faqat komendant yashaydigan binoga kelgach:

– Ko'rishguncha, Martin, – dedi.

Martin doktor dadasiga bugungi ishlar haqida lom-mim demasligiga, xuddi kartser yonida qutqar-ganidek unga ham sotib qo'ymasligiga qattiq ishongan edi. Muhimi, bir bo'lak bo'lsa-da, Hoshimga non berdi-ku, shunga xursand edi u.

Geynrix qamoqxonaga qosh qorayganda keldi. Ish bo'lmasiga yolg'iz emas, doktor hamrohligida kirdi. Dadasining avzoini ko'riboq Martin gap nimadaligini tushundi: demak, doktor bari-ni oqizmay-tomizmay aytibdi. Dadasi, ehtimol, doktor adashgandir degan umidda o'g'lini savol-

ga tutdi: bor gapni o'zining og'zidan eshitmoqchi edi.

– Shu rostmi, Martin? Herr Niuenxeyzen menga aytgan gap rostmi?

Martin chuqur xo'rsinib, qovog'ini uyib doktor ga tikildi.

– Nega menga bunaqa qarayapsan, Martin? – dedi doktor yuzaki muloyimlik bilan.

– Siz dadangga aytmayman deb, menga so'z bergen edingiz! – dedi alam bilan Martin.

– Nahotki? – dedi doktor istehzoli jilmayib.

– Herr Niuenxeyzen, bizni yolg'iz qoldirsangiz, iltimos, – dedi komendant. Uning ko'zi yana xoinlarcha ucha boshladi. Doktor qilgan ishidan mam-nun, indamay chiqib ketdi.

Geynrix o'g'liga shunchalik yaqin keldiki, Martin go'yo uning yurak urishini eshitgandek bo'ldi.

– Bu nima degan gap axir, Martin? Kimsan, komendantning o'g'li butun qamoqxona ko'z o'ngida otasiga bildirmay bir ishlar qilsa. Tag'in buni undan yashirish payida bo'lsa? – deya tamomila bosiqlik bilan gap boshladi Geynrix. – Sen faqat otanga qulq solmadinggina emas, qamoqxona boshlig'ining buyrug'ini ham nazarga ilmading! – Uning ovozi ko'tarilib bora-bora qichqiriqqa do'ndi: – Sen o'zingcha meni bu gaplardan xabar topmaydi deb o'ylagansan-da, a? Nima tomoshalar ko'rsatib yuribsan yaramas bola!



– Men unga faqat bir bo'lak non bermoqchi edim...

– Biroq uddalay olmading, non tayoqning uchiga tiqilganicha qoldi... Shundaymi?

Martin birdaniga nima deb javob qilishni bil-may kalovlanib qoldi. U bir bo'lak nonni amallab ichkariga tushirdim deb aytishga cho'chidi, buni bilsa dadasi Hoshimni yana qay ko'y larga solar ekan...

– Ha, berolmadim. Dada, axir unga bir tishlam ham non berishmayapti-ku. Shunga juda rahmim kelib ketdi.

– Yetar, Martin, biz sen bilan bu haqda necha marta gaplashdik! Hadeb bitta narsa haqida javray-verishga majbur etma meni!

– Biroq, men o'ylashimcha...

– Sening fikring meni qiziqtirmaydi! Aslida-ku, men seni jazolashim kerak! – deya Geynrix bir soniya tin oldi va chuqur xo'rsindi. – Ammo... Buning o'miga men uni jazolayman!

Martin nigohini olib qochmadi, aksincha, otasing ko'ziga tik boqdi: Geynrix o'g'li o'zidan cho'chimay qo'yanini sezdi.

– Nima, uni yana kaltaklaysizmi? – dedi Martin.

– Yo'q. Sening sharofating bilan u kartserda ko'proq vaqt qoladi! Bu esa ur kaltakdan ko'ra dahshatliroq, qiyinroq jazo!

– Biroq, dada...

Geynrix qo'lini ko'tardi:

– Bas, yetar, gap tamom.

Martin xuddi uni eshitmagandek:

– Unaqada, hech bo'lmasa, ovqat beringlar

Hoshimga! – dedi.

– Sen unga non berding, shekilli?! – dedi dadasi istehzo bilan.

– Dada, u ham odam-ku! Qolaversa, u – mening xaloskorim...

– Odam?!

Geynrix o'g'lining bilagidan tutib kattakon toshoyna turgan oshxonaga yetaklab chiqdi.

– Oynaga qara, Martin, qara deyapman!

Martin yengi bilan ko'zyoshini artib, toshoynaga

– otasi bilan o'zining aksiga qaradi.

– Sen biz bilan o'sha odamsiyoq maxluqlarning tashqi qiyofasidagi farqni ko'ra bilishing kerak. Xo'sh, ko'ryapsanmi?

– Men xuddi o'shalarga o'xshagan odamlarni ko'ryapman.

Geynrixning jon-poni chiqib ketdi. Lekin jahlini bosib:

– Men, Valter Geynrix, SS zobiti, o'zimni chin oriy deb hisoblayman, o'z shajaramni 1750-yildan boshlab bilaman! Geynrixlar sulolasি, ya'ni sening bobolaringning obro'sи, Martin, benuqson! Buyuk fyurer, biz – oriyarni ilohiy, sara inson deb e'lon qilgan. Dunyodagi boshqa xalqlarning bari past irqqa

mansub, odamsiyoq maxluqlardir! – dedi Geynrix Martinning bilagini battar siqib.

– Demak, «Oriy emassan – odam ham emassan». Shundaymi?!

– Xuddi shunday! Oriy emassanmi, odam ham emassan! Dohiyimiz Adolf Gitler aytganidek, har yetti yuz yilda odamzot yangi maqomga ko'tariladi. Hozir aynan yangi, yaratganning barkamol farzandlari yaratiladigan davr kelgan. Ularning imkoniyati cheksiz bo'lajak. Aynan ana shunda biz, oriylar past irqlardan qutulamiz va dunyoga biz hukmron bo'lamiz. Xo'sh, endi ayt-chi, seningcha, men bu dunyoda yashashga ham haqqi yo'q odamsiyoq maxluqlarga qanday muomala qilishim kerak edi? Tez orada o'zing ularning qo'rkoq, nochor, bechora bir maxluq ekaniga guvoh bo'lasan!

Geynrix nihoyat Martinning bilagini qo'yib yubordi va og'ir-og'ir qadam bosib eshikka yurdi. Ammo daf'atan to'xtadi va ortiga o'girilmay, o'g'liga qaramay:

– Biz sen bilan bu haqda necha marta gaplashdik, shunga qaramay, ochiq-oydin ko'rinish turgan oddiy haqiqatni ko'ra olmayapsan, afsus! – dedi. Biroruz kutib turdi, Martin indamagach, xonadan chiqib ketdi.

## O'ttiz sakkizinchi bob

Ko'p kunlik ochlik izsiz ketmadi. O'zbek asirlar ishlash u yodqa tursin, oyoqda tik turishga-da madori kelmaydigan bir ahvolga tushdi.

Amersfort konslageriga kelganidan buyon o'tgan kunlar mobaynida o'zbeklar shu qadar ozib-to'zib, eti ustuxoniga yopishib ketdiki, ular kiyib yurgan golland askarlarining eski gimnastyorkasi besh-olti o'lcham katta kelib qolgan edi.

Hoshimning kartserda yotganiga ham uch kun bo'ldi. O'zbek asirlar kondan «qo'ra»ga sudralib bazo'r kelishayotir. To'g'ri, bu – necha kunlik ochlikning oqibati, biroq mavhumlik ham o'zbeklar ruhini sindirgandek, ular Hoshimning holidan bexabar: qo'mondonlari tirikmi-o'likmi bilishmaydi.

Holdan toygan ba'zi asirlar yo'l-yo'lakay bir necha marta hushidan ketib yiqildi, lekin yonidagi sheriklari o'zlarining ham tinka-madori qurigan bo'lishiga qaramay, ularni «qo'ra»gacha suyab keldi. Asirlar agar bironiasi biroz to'xtab dam olsa yoki yiqilib qolsa, soqchilar shu zahoti otib tashlashini bilishadi. «Qo'ra»ga sudrala-sudrala yetib kelgan asirlar odatdagicha so'yil yegach, zax yerga tappa-tappa tashlab, qimirlashga ham holi kelmay yotadi – har kun ahvol shu.

Ilhomning yonida qo'llarini boshi ostida chalishdirib yotgan yoshi boshqa yigitlardan nisbatan kattaroq bir asir:

- Ilhomjon, Hoshim akadan biror xabar bormi? Sen Aleks de Leu bilan gaplashib turasan-ku, u hech nima demayaptimi? – deb so'radi.
- Tashvishlanmang, Hoshim aka sog'-omon. Haliyam kartserda.
- Har xil gaplar yuribdi-da, shunga so'rayapman.
- Qanaqa gap ekan?
- Aytishlaricha, u allaqachon o'lganmish.
- Aka, – dedi Ilhom unga qarab, – jasadini ko'rмагuncha, har xil gap-so'zlarga ishonmanglar.
- To'g'ri aytasan, Hoshim akaga eldan burun aza ochmaylik.

«Qo'ra»ga yaqinroq o'sgan bir daraxtning ingichka shoxchasi tikansim yoniga osilib tushgan bo'lib, unda yarmi sarg'aygan bir dona barg titrab turardi. Asirlardan biri shu bargni ko'rib tikansim orasidan qo'lini chiqardi. Uchli sim qo'liga qadalgani, tirnab qonatganiga qaramay, u tirishib-tirmashib bargga qo'lini uzatdi, shuni yeb ochligini biroz qondirmoqchi bo'lди.

Ko'p kunlik ochlik, mashaqqatli mehnat asirlarning butkul sillasini quritdi – deyarli barchasi osh-qozon og'rig'idan azob chekishar, boshlari aylanib, ko'ngillari behuzur bo'lmoqda edi.

Ilhom ham shu kunlarda ochlik azobini aniq his etdi: uning ham doim boshi aylanadigan bo'lib

qoldi, og'zi qurib lablari yopishib qoladi, biron-bir narsa haqida o'ylab, fikrini bir yerga jamlay olmaydi. Asirlarning nainki qimirlashga, gapirish va, hatto, bir-biriga qarashga-da chog'i kelmay qoldi. Ular shu ahvolga tushishdiki, agar yeishning iloji bo'lganda tosh yoki tuproqni ham yeishgan bo'lishardi.

«Bu azoblarga yana qancha chidashimiz kerak ekan? Yana qanchaga bardoshimiz yetarkan?» deb o'yldi Ilhom.

### O'ttiz to'qqizinchi bob

Hoshimning kartserga tashlanganiga roppa-ro-sa to'rt kun bo'lgan edi. Ertalab soat yettilarda bir necha yukmashinasida qamoqxonaga kelgan odamlar bilan gaplashib olgach, Geynrix bilan Shtyover to'g'ri kartser tomon yo'l oldi. Ular ortidan uch soqchi qurshovida sanitarlar zambilini ko'targan Nunes va Aleks de Leu ergashdi.

Qachon qarasang qovog'idan qor yog'ib turadi-gan komendantning negadir og'zi qulog'ida, xur-sandligini yashira olmasdi.

Geynrixni anchadan buyon birov bu ahvolda ko'rmagan. Hoshim kartserda o'tkazgan to'rt kun

davomida navbatchi zobit uning ahvolidan boshliqni xabardor etib turdi va natija uni tamomila qoniqtirdi. Xursandligining boisi shu edi.

Aleksning qulog'i ding, qani endi komendant Shtyover bilan ikki og'iz gaplashsa-yu nimadan bunchalik og'zi qulog'ida ekanini bilib olsa. Biroq ular og'ziga talqon solgandek miq etmay ketishayotir. Shunday bo'lgach, Aleks nima qilardi, o'zicha bir taxminlarga bordi-da.

Nihoyat, kartser yoniga kelishdi, Geynrix soqchilardan biriga beton qutining eshigini ochishni buyurdi.

Hoshim bukchaygan ko'yи dumg'azasini bu qo'rqinchli tor «tobut»ning orqa devoriga bazo'r suyagan, bukilgan tizzalarini esa oldingi devor, ya'ni eshikka tirab turar edi. Uning devordek oqarib ketgan yuzida bir tuki qilt etmas edi.

Bu «tobut»ning ichida faqat tik turish mumkin, degan o'ydan Aleks de Leuni ter bosdi. Kartserda to'rt kunni tik oyoqda o'tkazgan Hoshim hozir qay ahvolda ekanini u hatto tasavvur ham qilolmasdi. Yahudiy asir ayni chog'da do'stini tezroq bu «go'r»dan chiqarib olishni o'ylardi. Geynrixning ovozi uning xayolini to'zg'itib yubordi.

– Hoy, sen! – dedi u. Hoshim qilt etmadi. Shtyover bilan Geynrix bir-biriga qarab oldi. Muovin qamchisining dastasi bilan Hoshimning yelkasiiga turtdi. Asirning shalpayib, o'ziga bo'ysunmay

qolgan tanasi ochiq eshiqdan shilq etib tashqariga tushdi.

Hoshimning vujudida tiriklik alomati sezilmadi. Atrofida bo'layotgan hodisalarni sezmayotgan, ko'rmayotgandek edi u.

«Balki allaqachon joni uzilgandir» deb o'yladi Aleks, biroq shu payt Hoshim yorilib, bir-biriga yopishib qolgan lablarini arang qimirlatib ingradi. Aleks yengil tin oldi.

Geynrix mutlaq g'oliblik tuyg'usini ko'z-ko'z etib Shtyoverga qaradi.

– Kartserga tashlash haqidagi qaroringiz butkul o'zini oqladi, herr komendant, – dedi yaldoqlanib muovin. – Siz uni ruhan mahv etdingiz.

Yahudiy Geynrixning orqasidan nafrat bilan tikilib turardi. Qani endi, imkoni bo'lganda Aleks bu ablahnini shu yerning o'zida bo'g'ib o'ldirardi. Uning qo'llari beixtiyor musht bo'lib tugildi. Komendant nihoyat yerda cho'zilib yotgan Hoshimdan nigohini uzib kartser ichini kuzata boshladi, darrov devorga o'yib yozilgan allaqanday matnga ko'zi tushdi.

Keyin u panjarali tuynukka qaradi va tokchada mixga tiqilgan bir bo'lak nonni ko'rди.

– Demak, Martin bir bo'lak non kiritgan ekan-da... – dedi tishlarini g'ijirlatib Geynrix.

– Nima deysiz, herr komendant? – dedi taajjub bilan Shtyover.

– Bu haqda gapirishga yuzim chidamayapti-ku, Iogann, lekin o'g'lim azbaroyi rahmi kelib shu yovvoyi maxluqqa non bermoqchi bo'libdi.

– Bola-da, qilayotgan ishining yaxshi-yomonligini qayoqdan bilsin, – dedi Martinning yonini olgan bo'lib Shtyover. – Buning ustiga u, – dedi untershturmfyurer Hoshimni bepisand tepib, – nonga yeta olmabdi.

– Yo'q, Iogann, gap boshqa yoqda, – dedi komendant. Uning ko'zi yana ucha boshladи. – Ana, mix bilan devorga allanimalarni qing'ir-qiyshiq qilib yozibdi-ku, nonga esa qo'l ham tekkizmagan.

– Nega?! – dedi Shtyover hayron bo'lib.

– Tomog'idan o'tmagan. Chunki u yoqda askarlari och... Uni o'lgudek yomon ko'rsam-da, tan olmay ilojim yo'q, u bizga munosib raqib ekan. Nima ham derdik, bu yog'i qiziqtirib qo'ydi odamni. Hoy, yahudiy, bu yoqqa qara, – dedi u Aleks de Leuga yuzlanib, – devorga nima deb yozibdi, o'qib ber-chi!

Aleks eshik og'zida cho'zilib yotgan Hoshimning ustidan ehtiyyot bo'lib hatlab ichkari kirdi-da, devorga o'yib yozilgan bitikka ko'z tashladi.

– Herr komendant, bu yozuvni men tushunmadim, balki o'zbekchadir. Biroq, chamamda, she'r bo'lsa kerak, – dedi Aleks.

– Ular hali she'r ham yozishadi degin? – deb masxaraomuz tirjaydi Shtyover.

– Hoy yahudiy, u senga urushgacha nima ish bilan shug'ullangani haqida gapirganmi? – dedi Geynrix Hoshimga imo qilib.

– Ha, u oddiy maktab muallimi bo'lgan. Ona tili va adabiyotdan dars bergan.

– Kim bo'lganidan qat'i nazar, biz o'z ishimizni qildik! – dedi tantanavor ohangda Shtyover. – Har-qalay, endi birmuncha vaqt u bizga xalaqit ber-maydigan bo'ldi. Hoy, yahudiy, – dedi Shtyover Aleksning yelkasiga qamchi bilan bir urib, – ayt buningga, uyiga – tikansimli «shinam koshona»si-ga qaytishi mumkin. Kartserdan keyin zax yer ham unga yumshoq, oromijon to'shakdek tuyulsa ajab-mas, – dedi ovozi boricha xoxolab Shtyover.

Geynrix shunchaki miyig'ida kulib qo'ya qoldi.

Aleks muovinning gaplarini Hoshimga «tarji-ma» qildi:

– Bu ablah nima deganini senga aytib o'tirmay-man. Sen bardam bo'l, og'ayni, hammasi iziga tu-shadi! – Aleks Shtyoverga qarab bosh irg'adi: barini aytdim degandek.

– Buni «qo'ra»ga elting! – deb buyurdi Geynrix yahudiylarga. – Herr Shtyover, hoziroq devordagi mana buni... «nazm namunasi»ni o'chirtirib tashlang.

– Hoy yahudiyvachcha! Manavini «qo'ra»ga el-tib tashla-da, qaytib kelib do'stingning aji-bujisini artasammi, bo'yaysanmi, ishqilib ko'zimdan yo'qot! – dedi do'q urib Shtyover Aleksga.

## Qirqinchи bob

Bugun Martin ko'chadan eshitilayotgan shovqin-surondan uyg'onib ketdi. Ertalabdan Amersfortga allaqanday yukmashinalar kelyaptimi-ey.

Dadasini kecha ertalab ko'rgani, ha, aytgancha, tushlik chog'i ham birga edilar. Ota-bola bir-biriga lom-mim demay ovqatlandi, so'ng dadasi Shtyover bilan shaharga jo'nab ketdi – nufuzli mehmonlar ke-layotgan mish, shularni kutib olgani chiqishdi.

Otasi yordamchisi bilan gaplashganda Martin-ning qulog'iga chalindi: o'sha «nufuzli mehmonlar» Amersfort shahrining markazidagi bir mehmonxonada qolarmish, qamoqxonaga keyinroq kelisharmish.

Ularning nufuzli odamlar ekanini kecha kuni bilan zabitlar oyog'i kuygan tovuqdek tinim bilmay komendantning topshiriqlarini bajarganidan ham bilish mumkin edi.

Martin o'rnidan tura solib boshmog'ining o'ng poyidan gil qushchani oldi – kecha kechqurun yashirib qo'ygan edi uni. Hoshim sovg'a qilgan qushchani u yoq-bu yog'ini aylantirib, obdan tomosha qilgach, derazadan tashqariga qaradi. U dada-

si bilan tortishib qolgan kundan beri o'z bo'lmasidan chiqmayotgan edi. Dadasining ish bo'lmasiga faqat u qamoqxonada yo'q ekanida, o'zbeklarning «qo'ra»siga qarash uchungina kirardi: qani, Hoshimni chiqaribdilarmi-yo'qmi deb.

Ma'muriyat binosining hovlisida bir necha yuk va yengil mashina turibdi, atrofida harbiy va harbiy bo'limgan libosdagi odamlar kuymalanib yuribdi. Zobitlar bilan haligi odamlar davra bo'lib olib, qo'llarini paxsa qilib nimalarningdir ustida qizg'in bahslashayotir, askarlar esa yuk mashinadan temir qutilar tushirayotir. Bu qutilarning ba'zilari jomadondek keladi, boshqalari bo'yiga uch, eniga bir metrlar chiqadi chamasi. Martin turli o'lchamdag'i o'ttizta quti sanadi.

Tabiiyki, bola yuk mashinasida nima borligi va bu qutilar nimaga kerak ekaniga qiziqdi, lekin soatga qarab jismoniy mashq qilishi va dars tayyorlashi lozimligini esladi...

Keyinroq, chamasi soat o'n birlarda Martin yana mashinalar ovozini eshitdi. Aftidan, bular yengil mashina edi. Qiziquvchan bolakay odaticha derazadan qaradi, davra bo'lib turgan bir to'p zabitga ko'zi tushdi va ularni sinchiklab kuzata boshladi. Ular orasida dadasi, sochlari oppoq, baland bo'yli SS generali va och tusli yarimharbiy libos kiygan bir baqaloq kishi ham bor. Martin shu baqaloqni avval qayerdadir ko'rgan edi.

Tokchaga tizzalab olgan Martin deraza darchasini qiya ochdi va baqaloqning dasasiga chiyildoq tovushda buyruq ohangida nimalardir deb uqtirayotganini eshitdi. Chiyillagan tovushda buyruq berish Martinga kulgili tuyuldi va necha kundan buyon yuzi yorishmagan bolakay jilmayib qo'ydi. Ha, bu baqaloqni qayerda ko'rgani esiga tushdi. Kyolndagi «ritsarlar» qarorgohida majlis o'tkazgan odam-ku bu. Ha, aynan ona shahri – Gannoverdan Amersfortga yo'l olgan kunlari dadasi shu baqaloqning kengashida qatnashish uchun Kyolnga kirib o'tgan edi. Martin o'sha kun bo'lgan voqealarni eslashga urindi...

1941-yil 27-sentabr kuni edi. Qora «Opel-olimpiya» avtomobili ravon yo'ldan Kyolnga qarab yelayotir. Dadasining muhim ishi bor edi – roppa-rosa soat o'nda u o'ta muhim bir majlisga yetib borishi lozim. Bu yig'ilishni Imperiya xalq maorifi va targ'iboti vazirligining ikkinchi bo'limidagi bir amaldor o'tkazmoqda edi. Gap-so'zlarga qaraganda, kattakonlardan ekan.

Dadasi haydovchining yonidagi o'rindiqda, yo'ldan ko'z uzmay o'tiribdi.

Martin esa orqa o'rindiqqa chiqib olgan, oynadan ko'z uzmay lip-lip o'tayotgan telegraf ustunlari ni, onda-sonda uchrab turgan cherkovlarni sanab ketayotir. Lekin har gal sanoqdan adashib ketyapti, chunki boshi osilib pinakka ketib qolyapti. Har

safar boshi mashina oynasiga qattiqroq urilganda uyg'onib ketadi. Kuz bo'lishiga qaramay oynadan tushayotgan quyosh nuri bolaning yuzini qizdirayotir.

Sayohat qiziq edi-yu, yo'l bolani biroz charchatib qo'ydi. Geynrixning mashinasi rosa vaqtida ikki qavatli eski qo'rg'on darvozasi tagiga kelib to'xtadi. G'ayrigotika uslubida qurilgan bu imorat kichikroq bir bog' ichida joylashgan edi.

Valter Geynrixni xushmuomala hamda o'ta batartib bir ober-leytenant qarshi oldi va taassuf bilan majlis soat o'n ikkiga qoldirilganini xabar qildi.

– Muhim ish chiqib qoldi, – dedi u vazmin ohangda. – Herr obershturmfyurer, majlis boshlanguncha siz o'g'lingiz bilan nonushta qilib, bemalol dam olib tursangizlar bo'ladi. Uch yuz kilometr yo'l bosib bola ham charchagan bo'lsa kerak. – Geynrix sovuqqina bosh silkib qo'ydi.

Derazasining chap tarafidagi devor ritsarlik qurol-aslahalari bilan yasatilgan keng-mo'l oshxonada to'yib nonushta qilishgach, ober-leytenant ota-bolani kattakon kamin-o'choqli, bronza qandilli mehmonxonaga boshlab bordi. Martinning nazarida, bu kamining ichiga o'ziga o'xshagan yetti-sakkiz chog'li bola yashirinib olsa bo'ladi.

Xona o'rtasida kattakon uzun stol, ustiga qadimgi shamdonlarni eslatadigan baland lampalar, guldonlar qo'yilgan. Guldonlardagi anvoyi gullar ifori

xonani tutib ketgan. To'g'ri, lampalarga shamchalar emas, uchi nayzasimon oddiy elektr chiroqchalar o'rnatilgan.

Stol girdiga klassik uslubda yasalgan baland-baland naqshinkor kursilar bir tekis terib qo'yilgan. Martin darrov sanab ulgurdi: yigirma to'rt dona ekan.

Mehmonxonadan yana ikkita eshik bo'lib, biri yotoqqa, ikkinchisi ish bo'lmasiga olib chiqadi.

Polda turgan tilla siferblatli, og'ir temirtoshli kattakon soat o'ndan o'ttiz daqiqa o'tganini bildirib zang urdi. Geynrix charchoqdan ko'zлari yumilib-yumilib ketayotgan Martinni yotoqqa olib kirdi.

– Bolam, sen yotib dampingni ol. Nima bo'lgan taqdirda ham, o'zim yoningga kirmaguncha bu yer dan chiqmaysan! Tushundingmi? – Bola xo'p deb bosh silkidi.

...Martin kimningdir yoqimsiz chiyillagan baland ovozidan uyg'onib ketdi. Bu tovush eshigi zichlab yopilgan mehmonxonadan kelayotgan edi.

Dadasi bu xonadan chiqma, deb qattiq tayinlagani Martinning esida, lekin qiziquvchanlik ustun kelib, u itoatgo'yilikni ham unutdi-da, oyoq uchida yurib mehmonxona eshigi tagiga keldi. Qulf teshigidan hech vaqo ko'rinnadi, shunda bola sekin, ehtiyyotkorlik bilan eshikni o'ziga tortdi: osonlik bilan, g'iyqillamay ochilsa bo'ladimi. Endi panalabroq turib ichkarini kuzatish mumkin.

Ulkan stol atrofidagi yigirma to'rt kursining hammasini turli-tuman harbiy libos kiygan zabitlar band etgan: qo'shindagilar, mirshablar, eseschilar va yana allaqanday Martinga noma'lum harbiy kiymdag'i odamlar. Ayniqsa, och mallatus, pogonsiz libos kiygan semiz amaki qanday harbiy ekanini Martin bila olmadi. U stol boshida, kaminga orqa qilib o'tiribdi. Haligi chiyillagan yoqimsiz tovush shuniki ekan. Mana endi zalvorli eman eshik ortidan emas, yaqindan eshitganda, ma'lum bo'ldiki, bu amaki risoladagi odamlardek gapirmas ekan. Vaqt-i-vaqt bilan nafasi tiqilib, entikib, jazavaga tushib baqirayotganga o'xsharkan.

– Ikki kun avval katta kengash bo'ldi, Adolf Gitlerning shaxsan o'zi o'tkazdi! – dedi chiyildoq baqaloq. U sakrab o'rnidan turib ketay dedi-yu, keyin negadir fikridan qaytdi, ovozi esa battar chiyilab chiqdi: – Nega bizning qo'shin Moskvani bosib olishga kelganda, sustlashib qoldi, deb Fyurerning fig'oni falakka chiqdi. Biz shu kuzda Moskvani zabit etamiz deb o'ylagan edik, lekin mana, ko'rib turibsiz ikki oydirki Smolenskda depsinib turibmiz. Na general Guderanga qarashli «Markaz» qo'shining ikkinchi tankchilar guruhi, na general fon Gotning uchinchi tankchilar guruhi bir qadam olg'a siljiyolgani yo'q! – Baqaloq bir on so'lish olib, tepakaliga dastro'mol bosdi. – «Barbarossa» rejasi harakati muvaffaqiyatsizlikka yuz tutayo-

tir! Yashin tezligidagi bosqin rejasi barbod bo'ldi! Nemis askarlarining jangovar ruhi sindi! – U yana bir soniya tin oldi va o'zini biroz bosib oldi chog'i, birmuncha bosiq ovozda gap boshladi: – Smolensk ostonasidagi sho'ro askarlari vatanini qahramonlarcha himoya qilayotir, buni tan olmay ilojimiz yo'q. Biz Polshani o'ttiz olti kunda, Gollandiyani besh kunda, Farangistonni qirq uch kunda, Yugoslaviyani o'n ikki kunda qo'lga kiritgan edik! Rossiyada esa uch oy ichida atigi yetti yuz kilometr ichkari kiribmiz! Yetti yuz! Qo'shining ruhi batamom singan! Zudlik bilan nemis askarlarining jangovar ruhini ko'tarish lozim! Fyurer shaxsan reyxsministr Gebbels bilan reyxsfyurer Gimmler-ga bu masalani hal etishni buyurdi! – Baqaloq yana tepakalini dastro'mol bilan artib, o'tirganlarga bir-bir nazar tashlab chiqdi. – Sizlarni bu yerga chaqirishimdan maqsad, janoblar, qisqa vaqt mobaynida asirlar orasidan sovet askarlarini maxsus bir ish uchun tanlab olish kerak. – Baqaloq chuqur uh tortdi. – Biroq ular biz, oriylargal mutlaqo o'xshamasligi kerak. Umuman boshqa, yovvoyi irqqa mansub bo'lishi lozim. Buning ustiga, ularni butkul haqir, moldek bir ahvolga solish kerakki, bizning jasur askarlarimiz aslida kim bilan kurashayotganini bir ko'rsin! Ha, ko'rishsin! Biz frontda askarlarga namoyish etish uchun targ'ibot film suratga olamiz. Toki askarlarimiz shu filmni tomosha qilib,

nafaqat jangchi, odamsiyoq maxluq o'laroq ham bir pulga qimmat tovuqfahm, irodasiz kimsalar bilan kurashayotganini anglab yetsin. – U yana stol tegrasiga o'tirgan harbiylarga nigoh tashlab chiqdi. – Men ertagayoq ma'lumot to'plash uchun Sharqiy frontga jo'nab ketaman. Suratga olish uchun Amersfort konslageri tanlab olingan! Film suratga olish uchun mo'ljallangan odamsiyoq maxluqlarni biz maxfiy tutish uchun «hayvoniy material» deb ataymiz. Janoblar, unutmanglar, mazkur amaliyot maxfiy va muhim ahamiyat kasb etadi. Biz siz bilan bugun tarix yaratayotirmiz va... – uning och moviy ko'zлari birdan qontalash bo'lib qizarib ketdi, – ehtimol, aynan biz tufayli mana shu la'natи «sho'rolar» bilan urushda burilish yuz berar!..

## **Qirq birinchi bob**

O'sha kun qoq tush mahali qamoqxonaning markaziy ko'chasi – Lagershtrassega to'rt g'ildirakli temir tirkama-uycha sudragan yuk mashinasi kelib to'xtadi. Tirkama-uchchaning tomida uzun mo'ri bo'lib, undan pag'a-pag'a oq tutun osmonga o'rلamoqda. Yuk mashina tirkama-uchchani o'zbek asirlar yotadigan «qo'ra»dan besh metrlar beriga

sudrab bordi va ortga burildi. Askarlar darrov tirkama-uychani yuk mashinadan ajratdi. Yuk mashina Lagershtrasse bo'ylab yurib sal uzoqroqqa borib yo'l chekkasida to'xtadi.

Bir necha golland asir qurollangan soqchilar nazorati ostida ma'muriyat binosidan o'rtacha kattalikdagi to'garak stol va kursilar tashib chiqishdi va ularni «qo'ra» yoniga avvaldan qurilgan ikki metr balandlikdagi supachaga qo'yishdi. Bu Berlindan keladigan nufuzli mehmonlar uchun hozirlangan joy edi.

«Qo'ra» atrofiga o'rnatilgan yoritqichlardan o'n metrlar uzunlikdagi yo'g'on simlar cho'zilib yotibdi. Yog'och minbarlarga kinokameralar o'rnatilgan, u yerdan harbiycha kiyinmagan odamlar joy olgan.

«Qo'ra»ning har to'rt tarafida qurollangan harbiylar tizilgan. Ular o'zbeklar shu kungacha urushda va qamoqxonada ko'rgan harbiylardan ancha-muncha farq qilar edi. Hammasi xuddi tanlab olingandek novcha, och malladan kelgan, moviyko'z, oppoq tishlari bir tekis, oyog'ida yaltillagan etik, harbiy liboslari qomatiga qolipdek tushgan po'rim yigitlar. Beixtiyor ular shundoqqina moda jurnalidan chiqib keldimi deb o'ylab qolasiz.

Behol, sillasi qurigan o'zbeklar qamoqxonada tasodifiy hodisalar ro'y berib turishiga ko'nikib qolgan, shu bois ertalabdan buyon bu yerda bo'layotgan ishlarga deyarli e'tibor berishmayapti. Kimdir o'tirib,

kimdir yonboshlab yotgancha bu yugur-yugurlarni befarq kuzatmoqda. Ular necha-necha kunlik ochlik va ityotishlar sabab kundan-kun tanasini tark eta-yotgan kuch-quvvatni ayayaptimikan deb o'ylash mumkin.

Ilhom bilan yana bir necha asir Hoshimning boshida o'tiribdi. Bir necha soat avval uni «qo'ra»ga deyarli hushsiz ahvolga olib kelishgan edi, ammo haliyam o'ziga kelmadi. Yigitlar timmay uning qo'l va oyoqlarini uqalamoqda. Vaqtı-vaqtı bilan u ko'zini ochib, yigitlarga rahmat degandek bilinar-bilinmas boshini qimirlatib qo'yardi.

Aleks bir necha soatdan buyon barak derazasidan «qo'ra» atrofida bo'layotgan g'imir-g'imirlarni kuzatib turibdi. O'zbek mahbuslardan farqli o'lar-oq, u – bir vaqtlar Niderlandiya kompartiyasi rabbari bo'lgan kishi sifatida jurnalistlarga ham, kinematografistlarga ham ko'p bor yuzma-yuz kelgan. Shu bois bugun bu yerga kinokamera va chiroqlar bejiz o'rnatilmaganini sezdi u.

Tabiiyki, Martinga bu chopacha-choplar qiziq edi, lekin «qo'ra»ga borishga dadasi ruxsat bermadi. U, odaticha, dadasining ish bo'lmasi derazasidan tashqarini kuzata boshladi. Mana, bir gala zobit qurshovida Valter Geynrix, haligi och malla yarim-harbiy libos kiygan baqaloq va sochi oq eseschi general, Targ'ibot vazirligi amaldorlari, shuningdek, Shtyover, Alsher va Ritter «qo'ra»ga keldi.

Qomati raso oqsoch eseschi general bilan Geynrix ikki metrli supaga qiyalmay bir zumda chiqib oldi. Baqaloq targ'ibotchining esa omadi chopmadi – baland zinapoyadan tepaga chiqishi oson kechmadi: kattakon qorni-yu kalta oyoqlari xalaqit berdi. Alsher bilan Ritterning yordamiga tayanishiga to'g'ri keldi – ular baqaloqni suyab olib chiqishdi. Agarda Shtyover vaqtida kalla ishlatib, anavi ikkisini yordamga jo'natmaganida, kim bilsin, baqaloq zinapoyalar o'rtaida yana qancha «osilib» turardi.

Nihoyat, mehmonlar to'garak stol atrofiga kelib o'tirgach, eseschi general charm portfel ko'targan bir eseschi zabitga imlab nimadir dedi. Zabit generalni darrov tushundi: birozdan so'ng stol ustida konyak solingan mo'jaz flyaga bilan uchta temir qadahcha paydo bo'ldi.

Konyakdan bir-ikki ho'plab oqsoch general Geynrixga engashdi va uning ko'ziga tik boqib:

– Obershturmfyurer, bugun hammasi xamirdan qil sug'urgandek silliq kechadi, shundaymi? – dedi.  
– Yo'qsa, boshingiz ketadi, bilasiz-a?

– Shuhbaga aslo o'rin yo'q, brigadefyurer. Siz shu odamsiyoqlarning ahvolini bir ko'ring. Biz qo'limizdan kelgan-kelmagan hammasini qildik, – dedi o'zini oqlagandek qamoqxona boshlig'i.

– Ha, durust, durust, – deb qo'ydi general.

Shu vaqt Valter Geynrix va mehmonlar yoniga baland bo'yli, oqquvadan kelgan qirq yoshlardagi odam yaqinlashdi. Generalga engashib odob bilan so'radi:

– Brigadefyurer, boshlayversak bo'ladimi?

General baqaloqqa qaradi, u bosh irg'adi. Brigadefyurer ham haligi odamga bosh silkidi «boshlayvering» degan ma'noda.

Osiyoliklar «qo'ra»siga Shtyover, Alsher va o'nlab qurolli soqchilar kirdi.

– Aufshteyn! – dedi baqirib Shtyover.

– Turlaring! – deb tarjima qildi Alsher.

O'zbeklar imillab o'rnidan qo'zg'ala boshladi. Ilhom va Hoshimning boshida o'tirgan uch-to'rt yigit ham turdi.

– Obershturmfyurer, – dedi Geynrixga qarab eseschi general qo'lidagi asosi bilan Hoshimga ishora qilib, – anavi nega turmadi?

– Brigadefyurer, – dedi Geynrix negadir ovozi biroz titrab, – u jazo tariqasida to'rt kun kartserda yotdi. «Qo'ra»ga qaytganiga ikki soatlar bo'ldi. Haliyam hushsiz yotibdi chog'i.

General bosh silkidi-yu, hech nima demadi.

O'zbeklarni o'rnidan turg'izishgach, Shtyover, Alsher va soqchilar «qo'ra»dan chiqishdi.

Oqquva rejissyor qo'l silkitdi.

– Diqqat! Kamera! Motor! – deb qichqirdi bor ovozda. – «Chirq-chirq» etib uchta kamera baravar ishga tushdi.

Nimasi bilandir o'ziga «qadrdon» bo'lib qolgan «Maksim» zambaragi tovushini eslatib yuborgan bu «chirq-chirq»lar Hoshimni hushiga keltirdi, ko'zlarini ochishga majbur etdi. Avvaliga u qayerda yotibdi, nimalar bo'lyapti, farqiga bormadi, keyin astasekin shuuri tiniqlashdi.

Hoshimning ko'zi yigitlarga tushdi: hammasi unga orqa qilib tik turibdi, oldinda nimadir bo'lyapti. Hozircha Hoshim – qo'mondon bu yerda nima bo'layotganining farqiga bormadi. Lekin bir narsaga amin – ayni chog'da u yigitlarining yonida bo'lishi kerak!

Hoshim tirishib-tirmashib ikki qo'llab tikansimli to'siqni changalladi va sekin-asta, inqillab o'rni-dan tura boshladi. Tikansim uning ozg'in kafti va barmoqlariga sanchilib qonatib yubordi. Uvishib, bir qop go'shtdek bo'lib qolgan tanasini eplash oson kechmadi. Hoshim, nihoyat, bor kuchini yig'ib o'rnidan turdi.

Hoshimning «qayta tirilishi»ni kuzatib turgan Geynrixni yengil titroq tutdi, peshonasini muzdek ter bosdi. Ko'zlariga ishonolmay asabiy yutindi. U «qo'ra»dagi boshqa asirlarga deyarli qaramas, Hoshimdan ko'z uzmas, undan o'zga hech nima e'tiborini tortolmas edi hozir.

Lekin na baqaloq, na oqsoch eseschi general arvohdek o'rnidan turgan asimi ko'rди, chunki bu vaqt oqquva nemis askari qo'l to'lg'ab, «nonvoy-

lar» bo'linmasining oddiy askariga ishora qildi. Shu bois, ayni chog'da, barchaning diqqat-e'tibori ularga qaratilgan edi.

Mallasoch askar o'ttiz ikki tishini ko'rsatib iljaygancha tirkama-uychaning eshigini namoyishkorona lang ochdi. Yangi yopilgan nonning ishtahani qitiqlovchi xush isi chor atrofni tutib ketdi. Askar yigit iljaygan ko'yi non yopiladigan o'choqning ochiq turgan og'ziga uzun das-tali yog'och belchani tiqib kattakon – yarim kilolar chiqadigan oppoq, bo'rsildoq buxanka nonni oldi.

Non isidan hatto Berlindan kelgan baqaloqning ham so'lagi oqib ketdi. Och-nochor o'zbek asirlarining-ku, ahvolini tasavvur qilavering: necha kunlik ochlikdan so'ng ilk marotaba yangi yopilgan non isini tuyayotgan edi ular!

Ssenariyda yozilganidek, shu chog' nonvoy askar qoshiga shaxdam qadamlar bilan «verxmat» (nemischada «qurolli kuchlar») askari libosidagi yana bir novcha, qaddi-basti raso, moviyko'z yigit keldi. Uning avval obdan mashq qilgani ko'rinish turibdi: qora charm qo'lqopli qo'llarini namoyishkorona uzatib buxanka nonni oldi va oppoq tishlarini ko'rsatib nonvoyga jilmaydi.

O'zbeklar o'zлari tomon yaqinlashib kelayotgan askarga va uning qo'lidagi nonga sehrlangandek tikilib turibdi.

«Qo'ra»ga ikki metrlar chamasi qolganda kelishgan askar yigit nonni ikki qo'llab o'zbek asirlarga qarata irg'itdi. Issiq non tinkasi qurigan och-nochor mahbuslarning dimog'ini qitiqlab «qo'ra» o'rtasiga borib tushdi.

Oqquva rejissyorning nigohi va har uchala kameraning «ko'z»i bir nuqtaga tikilgan: hozir ro'y berajak voqeani kutayotir. Ha, bu shubhasiz yaratilajak filmning avj nuqtasi bo'ladi!

Oqsoch general, baqaloq va komendant Geynrix o'rnidan turib ketdi va «qo'ra»ga ko'zi to'rt bo'lib tikildi: mana, hozir, tomoshaning zo'ri boshlanadi, shuncha tadorik, chopachaoplarning natijasini mana hozir ko'radilar!

Fashistlar nazarida, odam siyog'ini yo'qotgan bu hayvonlar hozir bir-birini g'ajib, tilkalab, jon-jahdi bilan nonga yopishadi. Ular shuni betoqat kutmoqda.

Ammo nima bo'ldi deng! Och-nochor o'zbeklar dan birontasi nonga yopishmadi. Hatto joyidan jilmadi. Bir necha soniya o'tibgina asirlardan eng yoshi shoshilmay, bir-bir bosib non yotgan yerga bordi va uni ehtiyyotlab olib, o'pib peshonasiga surtdi – uch marta shunday qilgach, nonni bag'rige bosib atrof ga alangladi – o'zbekona odat: oralarida eng yoshi katta odamga bermoqchi. Birdan chehrasi yorishib oldinga yurdi:

– Hoshim aka! Hoshim aka! – dedi xursandligini yashirolmay.

Asirlarning bari baravar o'sha yoqqa o'girildi: ularning ortida jilmayib qo'mondonlari turibdi. Yigitlar u tomon oshiqqan edi, Hoshim odaticha qo'l ko'tarib ularni to'xtatdi.

— O'tiringlar, inilarim! — dedi u va o'zi ham zo'rg'a yerga cho'kkaladi.

O'zbeklar indamay davra bo'lib, chordana qurib o'tirdi. Hoshimning chap yonidan yoshi kattalar, o'ng yog'idan yoshroqlar joy oldi. Boyagi yigitcha buxanka nonni Hoshimga olib keldi.

U yigitning qo'lidan nonni olib:

— Rahmat, — dedi.

Hoshim qaynoq nondan jimitdek uzib o'ng yonida o'tirgan sheri giga uzatdi, u ham uzoq ushlab o'tirmay yonidagi o'tkazdi. Shu tarzda non bo'lagi qo'lidan qo'lga o'tib, davradagi eng yoshi kichik yigitga yetib bordi. Hoshim nondan yana bir bo'lak uzdi va u ham qo'lma-qo'l o'tib kattalardan kichiklarga borib yetdi. Shu davra bo'y lab uchinchchi, to'rtinchi, beshinchchi va qolgan bo'laklar ayni tarzda qo'lma-qo'l o'tdi.

Eng so'nggi bo'lakni Hoshim o'ziga olib qoldi. Asirlar qo'liga tekkan non bo'lagini darrov og'ziga tiqishmadi, avval xuddi isinayotgan kabi kaftida ushlab turishdi, keyin uni obdan hidlashdi va shundan so'nggina shoshilmay, go'yo tansiq bir shirinlik-dek necha kunlab biror luqma kirmagan og'izlariga solishdi.

Hoshim davradagi yigitlarga bir-bir qarab chiqdi. Ular jimitdek non bo'lagini yegach, qo'mondon kaftini ochib qisqagina duo o'qidi va:

– Ollohu akbar! – deb yuziga fotiha tortdi.

Boshqalar ham «Ollohu akbar!» deya kaftlarini yuziga surtdi.

Hoshim o'rnidan qo'zg'aldi, yigitlar ham uning ortidan o'rnidan turdi.

Kameralar chirqillab bularni hamon tasvirga olmoqda edi, atrofda o'lik sukunat...

Tinchlikni birdan baqaloqning chiyilloq tovushi buzdi:

– Geynrix, bu qanaqa tomosha?! Gapiring! Men sizning peshonangizdan otaman! Sizni urush o'chog'iga jo'nataman, ha! – derdi g'azabdan ko'karib u. – General, siz va shotirlaringiz shunday muhim amaliyotni yo'qqa chiqardingiz! Endi reyxsfyurer Gimmlerning ish bo'lmasida ko'rishamiz siz bilan!

Geynrix qo'rqqanidan baqaloqning qarshisida alifdek tek qotdi, ko'zi pir-pir ucha boshladi.

– Baqaloq pildirab supa zinapoyasiga bordi:

– Birortangiz menga tushishga yordamlashing!

– Zinapoya poyida turgan o'nlab zabit yordamga oshiqdi.

Pastga tushgach devdek gavdasiga qaramay, baqaloq chaqqon yurib darvozaga yo'naldi. Uning ortidan oqsoch general-u boshqa mehmonlar chopdi.

Mehmonlar darvozaga yetib ulgurmay Geynrixning o'kirgani eshitildi:

– Shtyover, «qo'ra»ga kiring! Ularning aqlini kiritib qo'ying!

Muovin o'nlab soqchilarni ergashtirib «qo'ra»ga bostirib kirdi. Ular g'azabdan quturib, so'yil, miltiq qo'ndog'i bilan o'ng-so'liga qaramay o'zbeklarni ayamay savalay, do'pposlay ketishdi, obdan tepkilashdi.

Asirlar quruq qo'l bilan baqadrihol himoyalandi. Nemislar bunday dadil qarshilikni sira kutmagan edi, shu bois boshda bir-ikki qadam ortga tisarilishdi ham. Biroq ichkariga yana o'nlab soqchilar bostirib kirishdi va bu «surbet» o'zbeklarning ta'zirini berishdi boplab.

Holdan toygan, qonga belangan asirlar birin ketin yerga cho'zilib qolmaguncha quturgan soqchilar ularni og'ir nag'alli etigi bilan tepkilayverishdi-tepkilayverishdi...

Shunda ham alamdan chiqmagan Geynrixning o'zi ham «qo'ra»ga kirdi. To's-to'polon olomon oralab u to'ppa-to'g'ri Hoshimning oldiga bordi va yuziga musht tushirdi. Hoshim yiqlmadi, aksinchcha, qamoqxona boshlig'ining yuziga shapaloq tortib yubordi.

Buni kutmagan Geynrix yana bir musht tushirishga oshiqdi, ammo ulgurmadi. Hoshim bir qo'llab uning musht tushirishga chog'langan qo'li-

ni qayirdi, nafrat bilan ko'ziga boqqancha ikkinchi qo'li bilan uning tomog'iga chang soldi va jon-jahdi bilan bo'g'a boshladi. Valter Geynrix og'zini ochib kappa-kappa nafas olarkan, «Bu osiyolik hali ham buqadek kuchli ekan» deb o'yldi. U bir amallab to'pponchasini qinidan chiqardi va Hoshimning yuragiga tirab naq uch marta o'q uzdi. O'q tovushidan «qo'ra»dagilar qotib qoldi. Ular qo'mondonining yiqlayotganiga angraygancha qarab turishardi...

## **Qirq ikkinchi bob**

Martin hikoyasini yakunladi, ammo bosh ko'tarib Temur akaga qarashga botinmadi. U allaqachon sovib qolgan choydan bir ho'plagachgina tomog'i qaqrab qolganini sezdi. Cholni yo'tal tutdi, o'rtaga cho'kkani jimlikni buzishdan cho'chigandek u kaftalarini og'ziga bosdi.

Martin bo'sh piyolani xontaxtaga qo'ydi, biroq uning piyolasi bexos Temur akaning piyolasiga tegib ketdi. Sukunat qo'ynida chinnining jaranglagani baralla eshitildi.

Temur aka bir og'iz gapirmay o'midan qo'zg'aldi.

– Bobojon, qayoqqa? – dedi uning ortidan Lola sakrab turib.



Biroq chol qo'li bilan imo qilib nevarasini to'xtatdi va uy orqasiga o'tib ketdi.

Panaga o'tar-o'tmas chol cho'ntagidan dastro'-mol olib og'ziga bosdi-yu yosh boladek ho'ngrab yubordi. Yuragi ezilib-ezilib yig'ladi. U kaftlarni baland ko'tarib:

– Ey Xudoyim, nega, ne gunoh qilgan ediki, otamga bunday achchiq qismatni ravo ko'rning! Undan ko'ra, ilk jangdayoq o'q yeb o'lsa bo'lmasmi-di... – dedi.

Martin, Ervin, Alisher va Lola Temur akaning qaytishini kutib miq etmay o'tirishibdi.

Lola bobosiga qaray deb endi joyidan qo'zg'algan edi, uning o'zi bir-bir bosib bu yoqqa kelayotganini ko'rdi.

– Qolgan o'zbek yigitlarning holi ne kechdi, bundan xabaringiz bormi? – deb so'radi biroz o'ziga keilib olgan Temur aka supaga o'tiar ekan.

Martin bosh silkidi va birozdan so'ng qayg'uli «hisobot»ining davomini so'zlashga tutindi:

– O'zbek asirlar yana bir muddat Amersfort qamoqxonasida yotdi. Fashistlarning film suratga olish rejasini buzgach ular bilan birovning ishi bo'lmay qoldi. Keyinroq ularni «qo'ra»dan barakka ko'chirishdi. To'g'ri, u yer ham ko'chadan battar sovuq, isitilmas edi. O'sha yerda qishladilar... Xullas, – dedi Martin bir on tin olib, – bahorga chiqib bir ming to'qqiz yuz qirq birinchi yil yigirma yettinchi sentabr-



da Amersfort qamoqxonasi olib kelingan bir yuz bir o'zbekistonlik askardan yetmish yetti kishi qoldi. Yigirma bir nafar askar qiyab, azoblab o'ldirildi, ba'zilari doimiy ochlik va kasallikdan o'ldi. Ammo bu qo'rqinchli hikoya shu bilan tugagani yo'q...

...1942-yili 9-aprel kuni erta tong, chamasi, olti-larda qamoqxona darvozasidan yukxonasi chodirli ikki mashina kirdi. Ularning har ikkalasida qurol-langan askarlar o'tirgan edi.

Yuk mashinalar o'zbeklar yotadigan barakka kelib ortga burilib to'xtadi. Mashinadan sakrab tushgan askarlar uning orqa devor-bortini tushirdi. O'zlari esa miltiqlarini shaylab yuk mashinadan to barak eshigigacha bo'lgan yo'lakning ikki tomoniga tizilib turdi.

Barakka unter-zobit Alsher hamrohligida kirgan untershturmfyurer Shtyoverni asirlar toqatsiz jimlik bilan qarshi oldi. Biroq u bunga e'tibor ham qilmay, shang'illab buyruq berdi:

– Hamma o'rnidan tursin! Darrov! Mashinaga chiqlaring! Osiyolik to'ng'izlar, omading chopdi! Senlarni – bundan yaxshiroq joyga – Fransiyadagi sokin bir qamoqxonaga o'tkazishyapti! Qani, tez, tezroq qimirlalaring!

Alsher boshlig'ining gapini undan-da o'tkazib shang'illab tarjima qildi.

Asirlar bir-biri bilan ko'z urishtirib olgach, qiynalib so'ridan tushdi va oyog'ini sudrab eshikka

yurdi. Ular bir-birini suyab mashinaga chiqishdi. Qurolli askarlar mashinaning orqa devor-bortini ko'tarib mahkamlagach, o'zлari ham sakrab yukxonaga tushdi: asirlarni burchakka siqib qo'ydi.

Yigirma daqiqadan so'ng o'zbek asirlar va soqchilar o'tirgan har ikkala yuk mashinasi Amersfort qamoqxonasi darvozasidan chiqib, tezlikni oshirdi va «Olmazor» degan ko'cha bo'ylab yeldek uchib ketdi.

Mashinadagilar jim: obdan tinkasi qurib adoyi tamom bo'lgan o'zbeklar bir-biri bilan gaplashishga-da holi kelmasdi, soqchilar ham lom-mim demay ketmoqda.

Ehtimol, asirlarning xayolida bir o'y kezardi: bu yovuz qismat ularga yana qanday ko'rguliklar hozirlab qo'ydi ekan...

Oradan besh-olti daqiqalar chamasi vaqt o'tib, mashinalar assosiy yo'l qolib, o'rmonga burildi va Kudrist degan joyga kelib to'xtadi.

Askarlar mashinadan sakrab tushib orqa devor-bortni ochdi va o'zлari miltiq shaylab mashinalar atrofini o'rabi oldi.

Alsher birinchi mashina oldiga kelib:

– Hoy, sen, sen, sen, sen va sen, – dedi yaqinroqda turgan o'zbeklarga barmoq nuqtab, – mashinadan tushib ortimdan yurlaring, imillama, tezroq! – Xuddi askarlar kabi uning ham qo'lida miltiq.



Besh asir bir-birini suyab ehtiyotkorlik bilan yuk mashinadan tushdi va atrofga alanglab qator bo'lib turdi. Mashinadagi asirlar ular ortidan xavotir-la tikilib qoldi.

Alsher yo'l boshladi; ortidan asirlarni to'rt tarafдан qurshagan askarlar ularni odaticha miltiq qo'ndog'i bilan turtib-haydab ketdi. O'zbeklarni so'qmoq bo'y lab o'rmon ichkarisiga olib kirishdi. So'qmoq yo'lning ikki tarafida qalin buta-yu daraxtlar o'sgan bo'lib, ularning shoxlari yurishga xalaqit berar, kiyim-boshga ilinib, yuz-ko'zlarni tilmoqda edi. Biroq bunga birov e'tibor bermadi.

Yana yuz metrlar yurib o'rmon cheti – kaftdek maydonchaga chiqishdi.

Bu yerda ularni yarim aylana bo'lib tizilgancha Valter Geynrix, Logann Shtyover, Maks Ritter, Nikolas Van Niuenxeyzen va qamoqxona boshlig'inинг yangi tayinlangan muovini obershurmiflyurer Berg kutib turgan ekan. Hammasing qo'lida miltiq, go'yo kutilmagan jangga hozirlik ko'rgandek turishibdi.

Qamoqxona rahbarlari turgan yerdan o'n metrlar chapda yangi kavlangan chuqur o'ra ko'zga tashlanadi. Uning uzunligi besh, eni uch metrlar chamasi, o'ra tepasida sarg'imtir tuproq uyilgan.

Yurakni ziq qiladigan tonggi sokinlikni endi-endi uyg'onayotgan qushlarning har-har zamonda chug'urlab qo'yishigina buzayotir.



Alsher miltig'i og'zi bilan asirlarga o'ra yoqasiga borib turlaring deya ishora qildi. O'zi to'rtta soqchisi bilan ortga – yuk mashinaga qaytdi.

Mashinada qolgan asirlar bir-birining pinjiga tiqilib olgan, nega bu yerda to'xtashdi, sheriklaridan besh kishini qayerga olib ketishdi – bilolmay boshi qotgan.

Nogahon ketma-ket otilgan o'q tovushi eshitildi: bir, ikki, uch – go'yo o'rmon chetida jang ketayotgandek.

Asirlar xuddi uyqudan uyg'ongandek bir-biriga alang-jalang qaradi, hatto shivir-shivir boshlandi.

Aynan shu chog' to'rt soqchi bilan o'rmon tomondan kelayotgan Alsher ko'rindi. U birinchi mashina oldiga kelib:

– Endi navbatdagilar! Bu yoqqa tushlaring! – dedi.

Alsher boshchiligidagi to'rt soqchi qurshovida yana to'rt asir o'rmon tomon yurib ko'zdan g'oyib bo'ldi. Ikki daqiqa o'tar-o'tmas o'sha yoqdan yana ketma-ket o'q ovozi eshitildi.

Har ikkala mashinadagi o'zbeklar joyida o'tira olmay qoldi. Soqchilarning baqir-chaqiriga qaramay, ular oyoqqa qalqdi, bir-biriga ma'noli tikilib, qattiq-qattiq gaplasha boshladи.

Birinchi yuk mashinasining o'rtarog'ida turgan o'rtabo'y bir odam baland ovozda gap boshladи. G'ala-g'ovur to'xtadi, hamma u turgan tomonga



qaradi. Endigina o'ttizdan oshgan bu yigit ikkinchi mashinadagilarga ham eshittirib:

– Aka-ukalar! Aftidan, ajalimiz yetgan ko'rindi!  
 Ular bizni otib o'ldirish uchun bu yerga olib kelishgan! Bu palidlar bizni istagancha kamsitdi, itdek xo'rлади, бироқ ҳеч нишга еришолмади, бизнинг иродамизни синдира олмади! Оғайнilar, Hoshim akaning gaplari yodingizdam? U doim «Inson o'zligini yo'qotmasligi va vaqtisi-yetganda mardlarcha ajalga yuzlanishi kerak» der edi. «Dushmanlar o'zbeklarning kim ekanini bilib qo'ysin» der edi. Agarda kun kelib tuqqan-tug'ishganlarimiz bizning qanday halok bo'lganimizni eshitsa, agar shunday bo'lishi qismatda bo'lsa, ular albatta bizdan faxr-iftixor tuyajak! Biz yurt uchun vijdonan, oxirgi tomchi qonimiz qolguncha kurashdik! – dedi.

Alsher soqchilar bilan kelib yana to'rtta asirni olib ketdi. Bu to'rtlik ichida boyagi «voiz» ham bor edi. Bir necha daqiqa o'tib yana qatorasiga o'q uzildi. Yana jimlik cho'kdi. Yana to'rt yigitni otishga olib ketishdi. Ular orasida Ilhom bor edi. U ortiga o'girilib bor ovozda qichqirdi:

– Diydor qiyomatga qoldi, akalar!

U boshini baland ko'tarib, qaddini tik tutib, o'zbekcha qo'shiq xirgoyi qilgancha dadil qadam tashlab ketdi. Birozdan so'ng yana bir necha yigit unga jo'r bo'ldi. Keyin esa har ikkala mashinada-gi asirlar baralla kuylay boshladi. Uch-to'rt yigit

pichirlab kalimayi shahodatni o'qib, yuziga fotiha tortdi, juda yosh ikki yigitninggina ko'zlarida yosh miltilladi...

## **Qirq uchinchi bob**

Martin hikoyasini tamomlab kissasidan ro'molcha oldi va ter bosgan peshonasini artdi.

Quyoshning tafti ancha qaytgan, biroz shabada esib turganiga qaramay Martin issiqdan lohas bo'lib o'tiribdi. Lekin kamzulini, hatto bo'yinbog'ini yechmagan, vaqtı-vaqtı bilan uni to'g'irlab qo'yadi. Hatto bo'yinbog'ning bo'g'izini siqib turgan tugunini ham bo'shatmadı. Aftidan, bobosiga qarab, Ervin ham isib ketsa-da, kamzul-u bo'yinbog'da o'tiribdi.

Temur aka qo'lida piyola, yerdan ko'z uzmaydi. Iyagining bilinar-bilinmas titrayotganidan ma'lum: yig'layapti.

Yig'layotgan faqat u emas. Martin hikoya qilgan voqeа o'tirgan barchani larzaga soldi. Lola ko'z-yoshini tiyolmay hiqillab yig'layotir. Alisher bilan Ervinnинг ham mijjalari yoshlandi.

Temur akaning hovlisi birmuncha vaqt o'lik sukunat qo'ynida qoldi. Bir vaqt Lola Martinga qarab:



– Dadangiz-chi, uning taqdiri nima bo'ldi? – deb so'radi.

Aftidan, Martin shu savolni kutayotgan edi.

– Valter Geynrixni men so'nggi marta qirq ikkinchi yilning yozida, u uyga kelganda ko'rganman. Bir haftalar uyda turdi, so'ng jomadonini ko'tardi-yu bir og'iz gapirmay jo'nab qoldi. Qaytib uni hech yerda ko'rmadim. Berlin uchun bo'lган jangda o'lган bo'lishi mumkin deb eshitdim. Lekin Hoshim aka o'lган kuni men uchun otam ham o'lган edi.

Temur aka kaftining orqasi bilan ko'zyoshini artdi va, nihoyat, Martinga qaradi.

– Biroq, nega ularni bu ahvolga solishgan? Nega?  
– deb so'radi u.

– Aslida, bu dahshatli voqeа avval-boshdan sir saqlangan – shunday qilish rejalashtirilgan. O'ta rasmiyatchi nemislar «Bir yuz bir o'zbek asiри» bilan bog'liq barcha hujatlarni va, hatto, ularni ko'rgan-bilgan guvohlarni ham yo'q qilish payidan bo'lган. Men sizga aytgan Aleks de Leuning kundaligi saqlanib qolganining o'zi bir mo'jiza. Oradan ko'p yillar o'tib kundalik bir jurnalistning qo'liga tushib qoladi. Menga kundalikni o'sha jurnalist bergen. Undagi ma'lumotlarni o'zim Amersfort qamoqxonasida guvoh bo'lган, ko'rgan voqealar bilan solishtirdim, birlashtirdim... Keyin ma'lum bo'lishi-chi, o'sha o'zbek jangchilari fashistlar Germaniyasining ulkan «targ'ibot tajribasi» qurbaniga aylan-

gan. – Martin choydan bir ho'plab oldi. – Shaxsan Adolf Gitler reyxsministr Gebbels bilan reyxsfurer Gimmler idorasiga nihoyatda qattiq sir tutgan holda Qizil Armiya askarlari haqida targ'ibot filmi suratga olishni buyurgan. Bu filmda sovet askarlari ojiz, insonlik siyog'idan mahrum, ibridoiy, omi maxluq qilib ko'rsatilishi ko'zda tutilgan. Bularning hammasi Ikkinchiji jahon urushidagi eng katta jang – Moskva uchun kurash oldidan nemis askarlarining «tushkun ruhi»ni ko'tarish uchun qilingan tadbir edi. – Martin yana bir soniya tin oldi. O'tirganlarga bir-bir nazar tashlab olgach, davom etdi. – Bu filmni suratga olish fyurer tomonidan eng muhim vazifa sifatida topshirilgan. U 1941-yil noyabr oyi boshida ekranlarga chiqishi rejelashtirilgan. Tasvirga olish guruhiga reyxning eng yetakchi kinematograflari jalb qilingan. Amersfort qamoqxonasi esa «material» tayyorlab berishi lozim edi. Hammasi o'ylagandek bo'lishi mumkin edi, Gebbels bilan Gimmler amaliyot muvaffaqiyatli o'tgani haqida fyurerga ma'lumot berishga shay bo'lib turgandi, ammo ish chappasiga ketdi! – Martinning ovozi o'z-o'zidan balandlasha bordi. – O'zbeklar haqiqiy mardlik, birdamlik, yuksak intizom, o'zbekona madaniyatni ko'rsatib, Gitlerning rejasini butkul barbod etdi! Bu bir yuz bir jangchi haqiqiy qahramon edi! Nemis askarlari g'oyaviy qo'llov olmadi, ularning «tushkun ruhi» ko'tarilmadi. Fashistlar Germaniyasi na-

faqat Moskvani zabit etoldi, balki o'sha yerda bir millionga yaqin jangchi va zabitlaridan ayrildi. Siz ham, biz ham bilamiz, mabodo Germaniya g'alaba qozonganda tarix g'ildiragi butkul boshqa tomoniga aylanib ketardi. Dunyo xalqlari yalpi mutelikka duchor etilishi yoki butkul yo'q bo'lib ketishi mumkin edi. Moskva uchun kurashdagi g'alabaga sizning vatandoshlaringiz qo'shgan hissa beqiyosdir. Bir yuz bir o'zbek jangchisining jasorati dunyo xalqlari qalbida abadiy yashab qolajak! Men bunga ishonaman!

### **Qirq to'rtinchi bob**

Martin titroq qo'llari bilan yostiqqa suyanib o'rni dan turdi. Alisher cholga ko'maklashishga oshiqdi.

So'ridan tushgach, Martin ortiga o'girilib, Temur akaga qaradi.

– Muhtaram Temur aka! – dedi u g'amgin, biroq tantanavor ohangda. – Men bu yerga Hoshim aka bilan safdoshlarining mardlig-u jasorati haqida gapirib berish uchungina kelmadim. Mendek bir qariya bir necha ming kilometrlar yo'l bosib O'zbekistonga kelganimning asosiy sababi – sizdan, sizning oilangiz va, qolaversa, o'zbek xalqidan kechirim

so'ramoqchiman. O'z nomimdan, oilam nomidan o'tinib kechirishlaringizni so'rayman sizlardan.

Gapini tugatgach, Martin boshini eggancha sekin-sekin Temur akaning oldida tiz cho'ka boshladi. Biroq Temur aka yoshiga yarashmagan epchilik bilan asosini bir chekkaga uloqtirib, sapchib turdi-da, Martinning qo'lting'idan tutdi.

– Bu nima qilganingiz, muhtaram Martin?! Turing, iltimos! Sizning hech bir aybingiz yo'q! – dedi u nemis tengdoshining bilagidan tutib o'rnidan turg'izar ekan. – Shaxsan siz o'zingiz otamga qilgan yaxshilikni biz aslo unutmaymiz!

Martin Temur aka va yordamga shoshilgan Alisherning ko'magida qaddini tikdi.

Qariyalar yuzma-yuz turib bir-birini bag'riga bosdi. Ular shu tariqa bir necha daqiqacha turdi. Dahshatli urush nafaqat bolaligini, otasini ham o'g'irlagan bolalar edi ular. Ikkala qariyaning ko'z-yoshlari yuzlarini yuvdi.

Martin Temur akani quchog'idan bo'shatib, cho'ntagidan kichkina bir narsa oldi va uni Temur akaning kaftiga qo'ydi.

– Chamasi, bu sizniki, – dedi shivirlab.

Temur aka kaftini ochib gil qushcharni ko'rdi. Qushcha bir vaqtlardagi yorqin ranglarini yo'qotgan, xira tortib qolgan, lekin bu o'sha – yetmish yetti yil ilgari – dadasi urushga jo'nagan kun Temur unga bergen o'yinchoq qushcha edi.

Temur aka o'ziga aziz bo'lgan bu o'yinchoqni yaxshilab ko'zdan kechirdi:

- Otam boshdan o'tkazgan barcha savdolarga mana shu qushcha guvoh, – dedi chol ovozi titrab.
- Zaboni bo'lganida u yana qancha gaplarni menga aytgan bo'lardi... Rahmat sizga, Martin aka, uni ehitiyotlab saqlabsiz, kam bo'lmang.

Martin yuzidan oqib tushgan ko'zyoshini sidirdi.

– Ha, darvoqe, muhtaram Temur aka, Aleks de Leuning kundaligida Hoshim aka yotgan kartser devoridan u ko'chirib olgan she'rni o'qib qoldim. Uni otangiz yozgan. Mana, oling, men uni so'zmaso'z ko'chirib oldim, – dedi Martin Temur akaga bir parcha qog'oz uzatib.

Uy sohibi to'rt buklangan qog'ozni ochib, she'rni ovoz chiqarib o'qidi:

*Ona yurtdan olis-olisda  
Yuraklarim qondir sog'inch-la.  
Diydor nasib etarmikan-a  
Bulbulmakon ona yurtimga?*

*Tog' boshida oftob kulgan yurt,  
Shafaqlari lolagun tonglar.  
O'g'lonlari sharaf quchgan yurt,  
Mehring dilda iftixor qo'zg'ar.*

Temur aka qog'ozni avaylab to'rt bukladi va ko'krak cho'ntagiga soldi.

– Ijozat beringlar, – dedi u. – Men hozir kelaman... Lola, qizim, choyingni yangilab kel.

Temur aka yana Ervin unga uzatgan hassaga tayanib uy tomon yurdi.

Martin bo'yinbog'ini bo'shatib yengil nafas oldi. Shuncha yillardan buyon u endi o'zini erkin va baxtiyor his etgandek bo'ldi.

Temur aka ostona hatlab to'g'ri mehmonxona-ga kirdi. Bu xonaning to'rida Hoshimning portreti ilingan. U urushdan oldin tushgan rasmidan kat-talashtirib ishlangan. Yuz ifodasi, qosh-ko'zlari biroz chaplanganroq, go'yo boshqa zamondan kelib qolganga o'xshaydi. Dadasining nigohi muloyim, ochiq, labida esa tabassum.

Portretning tagiga ixchamgina raf qoqilgan. Unda otasidan meros qolgan bor-yo'q narsa – uning she'rlari yozilgan yondaftar va urushdan o'g'li bilan xotiniga jo'natgan sarg'ayib ketgan yagona maktubi turardi.

Chol rafdan dadasining yondaftarini oldi va uning ichiga boyagi to'rt buklangan qog'ozni, ya'ni oxirgi she'rini soldi-da, joyiga qo'yib qo'ydi.

Keyin u jajji gil qushchani o'mdi va ehtiyyotlab uni ham rafga qo'ydi.

– Assalomu alaykum, dada, – dedi Temur aka shivirlab. – Mana, nihoyat, uyga keldingiz...




# **Amersfort konslageri rassomining kundaligidan**

*Kitob mualliflari o'quvchilarga xalqimiz tarixiga oid inson qalbini larzaga soluvchi sahifalarni aks ettirgan rasmlar to'plamini taqdim etadi.*

*Grafik usulda ishlangan bu rasmlar maj-mui golland me'mor-chizmakashi, Amersfort qamoqxonasi asiri Herrite de Vilde sharofati bilan dunyo yuzini ko'rgan. Do'zaxmisol qamoqxonada yuz bergen dahshatli voqealarga shaxsan guvoh bo'l mish bu rassom asarimiz qahramonlaridan bir nechasinggina suratini chizishga ulgurgan. Uning o'zi 1941-yil 25-iyunda hibsga olingan. Shosha-pisha qorallangan bu xomaki chizmalarda hamdardlik, vahima, ilojsizlik alami ham sezildi...*


































## MUNDARIJA

Birinchi bob.....	5
Ikkinchi bob.....	10
Uchinchi bob.....	12
To'rtinchi bob .....	15
Beshinchi bob.....	20
Oltinchi bob.....	33
Yettinchi bob .....	36
Sakkizinchi bob.....	39
To'qqizinchi bob.....	42
O'ninchi bob.....	44
O'n birinchi bob.....	50
O'n ikkinchi bob .....	53
O'n uchinchi bob.....	60
O'n to'rtinchi bob.....	68
O'n beshinchi bob.....	77
O'n oltinchi bob.....	82
O'n yettinchi bob.....	88
O'n sakkizinchi bob.....	92
O'n to'qqizinchi bob .....	98
Yigirmanchi bob.....	101
Yigirma birinchi bob .....	104

Yigirma ikkinchi bob.....	112
Yigirma uchinchi bob .....	118
Yigirma to'rtinchi bob .....	124
Yigirma beshinchi bob .....	127
Yigirma oltinchi bob .....	133
Yigirma yettinchi bob .....	137
Yigirma sakkizinchi bob .....	141
Yigirma to'qqizinchi bob.....	144
O'ttizinchi bob.....	150
O'ttiz birinchi bob.....	158
O'ttiz ikkinchi bob.....	162
O'ttiz uchinchi bob.....	167
O'ttiz to'rtinchi bob.....	172
O'ttiz beshinchi bob .....	180
O'ttiz oltinchi bob .....	183
O'ttiz yettinchi bob .....	188
O'ttiz sakkizinchi bob .....	199
O'ttiz to'qqizinchi bob.....	201
Qirqinchi bob .....	206
Qirq birinchi bob .....	213
Qirq ikkinchi bob .....	224
Qirq uchinchi bob .....	231
Qirq to'rtinchi bob .....	234
Amersfort konslageri rassomining kundaligidan .....	238

*Adabiy-badiiy nashr*

ANVAR IRGASHEV  
YULIYA MEDVEDOVSKAYA

## BIR YUZ BIR

Roman

*Muharrir Saidmurod Xolbekov  
Badiiy muharrir Bahriiddin Bozorov  
Texnik muharrir Dilmurod Jalilov  
Sahifalovchi Madina Abdullayeva  
Musahhih Nigora G'aniyeva*

Nashriyot litsenziyasi AI № 315. 24.11.2017.  
2019-yil 7-iyunda bosishga ruxsat etildi.  
Bichimi 84x108 1/32. Palatino Linotype garniturasи.  
Ofset bosma. 8 bosma taboq. 6,23 nashr tabog'i.  
Adadi 10000 nusxa. 136-raqamli buyurtma.  
Bahosi shartnoma asosida

YOSHLAR NASHRIYOT UYI.  
Shayxontohur tumani, Navoiy ko'chasi, 11-uy.

«Yoshlar matbuoti» MCHJda chop etildi.  
1000113. Toshkent, Chilonzor-8, Qatortol ko'chasi, 60.

«Bir yuz bir» romani syujetiga real voqea – bir yuz bir o'zbek jangchisining Ikkinchi jahon urushi yillaridagi fojiali taqdiri asos qilib olingan. Amersfort konslagerida do'zax azobiga mardona dosh bergen bu askarlar Gitlerning makkorona rejasini butkul barbod qilgani va fashistlarning jahon tarixini boshqa o'zanga burib yuborishiga ozmiko'pmi to'siq bo'lganini bilmay halok bo'lgan.



[www.book.uz](http://www.book.uz)  
Onlayn kitob do'koni

ISBN 978-9943-5530-6-4

A standard linear barcode representing the ISBN number 9789943553064.

9 789943 553064

